ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

6-son

(Noyabr-Dakabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT		
	4	Ta'lim oluvchilarda muloqot va muomula madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani xis qilish) – asosiy to'rtta konpetensiyalar "4k"ni shakllantirish dolzarb masala
TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
M. Pardayeva	6	Ta'lim oluvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning produktiv yechimlari
Z. Sangirova	12	Bolalarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda pedagog va ota-onalar hamkorligi
Z. D. Jo'rayeva	15	Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish – ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida
U. G'oyimov	19	O'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishni takomillashtirishning dolzarbligi
G. Uzoqova	22	Milliy yuksalish sharoitida ma'naviyatning falsafiy tahlili
D. Xaydarova	26	Turizm terminlarining leksikografik, lingvistik va kulturologik talqinini o'rganishning ijtimoiy-pedagogik omillari
D. Shomalikova	29	O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda bolalar davriy nashrlarining didaktik imkoniyatlari
TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI		
D. Elmurodova	33	Talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari
I. Toshmanov	36	Biologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini takomillashtirish (7-sinf biologiya fani misolida)
O. Ochilov	41	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini loyihalashtirishning ilmiy-metodik asoslari
D. Akbarova	45	To'garak va sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning ijodiy qobilyatini o'stirish
N. Karimova	48	Erkin Vohidov va Mixail Bulgakov asarlari tahlili asosida syujetlarining mutonosibligi ("Ikkinchi tumor" tragikomediya hamda "Ityurak" qissasi asosida)
F. Abdullayeva	51	Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatda konsept tushunchasining qo'llanilishi
M. Obidova	54	O'zbek tilini o'qitishda o'quvchilarga kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish
O. Avezmurodov, Z. Avezmurodova	59	Fizika fanini o'qitishda ajdodlarimizning ilmiy meroslaridan foydalanish va uning tarbiyaviy ahamiyati
U. Sarapova	63	Ta'lim muassasasi va oila hamkorligida boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy tarbiya ko'nikmalarini shakllantirishninng o'ziga xos jihatlari
ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI		
M. To'ychiyeva	67	Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati
D. Elmurodova	70	Muammoli ta'lim texnologiyalari asosida oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni va komponentlari

Z. Yulchiyeva	75	Muhandislik madaniyatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati
		TA’LIMDA MARKETING
T. Komilov	79	Ta’lim sifatini oshirishda moliyalashtirishning ahamiyati (Nazariy yondashuvlarning tahlili)
		KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH
E. Murodov	85	Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini mustaqil hayotga tayyorlashda kasb-hunarga o‘rgatishning zaruriyati
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
S. Tursunova, F. Mirzayeva	90	I-IV-sinf o‘quvchilariga mos harakatli o‘yinlarning ahamiyati
S. Elova	93	Sportning gimnastika turi bo‘yicha qizlarni musobaqalarga saralash metodikasi
B. Xolmaxmatov	97	Ixtisoslashtiriligan futbol maktablarida yosh futbolchilarni tanlab olish tizimini takomillashtirish
S. Baxodirov	100	Yosh futbolchilarni musobaqa sharoitida texnik-taktik mahoratini takomillashtirish
T. Arislanov	104	Yosh basketbolchilarni musobaqa sharoitida texnik-taktik mahoratini takomillashtirish
		MAKTABGACHA TA’LIM
N. Erhanova	107	Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar nutqini o‘stirishning noan’anaviy usullari
		PSIXOLOGIYA
Sh. Axmedova	111	Harbiy pedagoglarda kasbiy bilimdonlik sifatlarini rivojlanishining ijtimoiy-psixologik omillari
G. Mahsudova	114	Bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisining kasbiy nutq faoliyatini rivojlantirishda nutq o‘stirishning o‘rni
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
В. Гофурова	118	Гендер в современной лингвистике как социально-педагогическая проблема
Г. Исламова	123	Некоторые аспекты совершенствования воспитания в семье
		МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
И. Турамуратова	126	Концептуальная метафора как инструмент познания и развития когнитивных способностей студентов при обучении языку
		СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
С. Ахадова	130	Современные методы в преподавании иностранных языков
Р. Турдикулова	135	Применение средств массовой информации на уроках иностранных языков (на примере преподавания испанского языка)
Н. Саидова	139	Перевод рекламных текстов: один из факторов формирования межкультурной коммуникации

TA'LIM OLUVCHILARDA MULOQOT VA MUOMALA MADANIYATI, TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATI, KREATIVLIK FAZILATI, GURUHDA ISHLASH (JAMOANI HIS QILISH) – ASOSIY TO'RTTA KOMPETENSIYALAR "4K"NI SHAKLLANTIRISH DOLZARB MASALA

Mamlakatimizda so'nggi yillarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda, ushbu islohotlarni hayotga to'liq joriy etish ijtimoiy taraqqiyot mas'uliyatini o'z zimmasiga oladigan vatanparvar, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan iqtidorli va istiqbolli, malakali va raqobatbardosh professional kadrlarga juda katta ehtiyojni vujudga keltirdi. Bu ehtiyoj, birinchi navbatda, davlat va jamiyatning ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirilishiga turtki bo'lmoqda.

Ta'limning ustuvor vazifalaridan biri, bu ta'lim oluvchi ongu shuurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, unda kelajakda jamiyatda o'z munosib o'rnini topishi uchun amaliy hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan o'quvchi yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga faol kirishishiga zamin hozirlashdir. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim-tarbiya jarayonini nafaqat ta'lim oluvchilarga fanlar bo'yicha bilim berish, balki egallagan bilim va malakalarini amalga tatbiq etish, ulardan hayotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish ham asosiy vazifalardan biridir.

Pedagogika fani nazariyasi va amaliyotida "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari bir vaqtda qo'llanilmoqda. Kompetensiya ta'lim oluvchilarning tayyorgarligiga avvaldan qo'yilgan talablarni anglatsa, kompetentlik shaxsning mavjud sifatlari va qo'yilgan doiraga, sohaga munosabati bo'yicha shaxs faoliyatining minimal tajribasi bilan belgilanadi.

Respublikamiz ta'lim sohasi mutaxassislari XXI asrning eng asosiy to'rtta kompetensiyalarini "4k"ni (muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani his qilish), shakllantirish dolzarb masala ekanligini ta'kidlashmoqda.

Ushbu kompetensiyalar barcha kasblarni mukammal egallash, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun jiddiy ahamiyatga ega. Ish beruvchilar bilan muloqot jarayonida shunisi ma'lumki, soft skills, ya'ni barcha kasblarni egallashning asosi bo'lgan – hayot davomida paydo bladigan muammolarni hal qilish, boshqa insonlar, hamkasblar bilan til topishib, ishlab ketish malakalarini shakllanganligi ularning eng asosiy talabiga aylangan. Ushbu malakalarni qandaydir o'quv kurslarda yoki treninglarda shakllantirib bo'lmaydi, bu malakalar bolalikdan, butun hayot davomida shakllanib boradi. Ayniqsa, ushbu malakalarni shakllantirishga boshlang'ich sinfdan jiddiy ahamiyat berish zarur.

Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, zamonaviy ish beruvchilar yuqorida ko'rsatib o'tilgan malakalarning, kompetensiyalarning shakllanganligi ular uchun asosiy ish faolyatlaridagi malakalaridan muhimroq ekanligini ta'kidlashmoqda. Muloqot va

muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani his qilish) kompetensiyalarining shakllanganligi nafaqat o‘qish, ishlash jarayonida, balki hayot davomida ham muhimdir. Ushbu kompetensiyalarning shakllanganligi farzandlarimiz o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishning strategiyalarini belgilab olish, hayot davomida paydo bo‘ladigan muammolarga, vazifalarga to‘g‘ri yechim topishga yordam beradi.

Umumta’lim maktablaridagi ta’lim jarayonida har bir o‘quvchi muhim (muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani xis qilish) hamda fanga oid kompetentliklarga ega bo‘lishiga yordam berish asosiy vazifamizdir. Har bir sinfdagi o‘quvchilar har xil, o‘ziga xos ta’limiy ehtiyojlar va xususiyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, umumiy dastur asosida ta’lim oladilar, eng asosiy to‘rtta kospetensiyalarini “4k”ni shakllantirish va baholash uchun ta’limda differensial yondashuvni joriy qilish zarurati paydo bo‘ldi. Differensial yondashuv “4k” va predmetga oid kompetentliklarini shakllantirishga, qobiliyatlarni, qiziqishlarni rivojlantirishga va o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishga yordam beradigan qulay va optimal shart-sharoitlar yaratadi, tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlariga, fikrlash jarayonlarining tezligiga, bilishga qiziqish darajasi va har bir bolaning rivojlanganligi darajasiga asoslangan. Har bir o‘quvchining kuchli tomonlarini va qiyinchiliklarini bilish va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish o‘qituvchiga nimani va qay tarzda o‘rgatishni, bolani o‘qishga qanday qiziqtirishni belgilab beradi. Ushbu yondashuv har bir o‘quvchiga teng imkoniyatlar taqdim qilgan holda, o‘qituvchiga ta’lim jarayonini individuallashtirishga yordam beradi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni alohida shakllantirishni emas, balki ularni kompleks ravishda egallashni taqozo etadi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish jarayonida barcha yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha davlat ta’lim standartlari, o‘quv dastur va rejalarni yangilash, o‘qitishni sifat va mazmun jihatdan yanada takomillashtirish zarurdir.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan yondashuvlarga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqil tafakkur, faol fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlik, mediaresurslardan o‘z faoliyatida oqilona foydalanish, sog‘lom raqobat hamda tolerantlikni shakllantiradi, shuningdek, ma’naviy-ahloqiy, jismoniy, aqliy hislatlarni kamol toptirishga, jumladan, ezgulikni himoya qilish, tez o‘zgaruvchan, murakkab dunyoda o‘z o‘rnini topish, altruizm, dunyoviy muammolarni anglash, to‘g‘ri qarorlar qabul qila olish, zaruriy hayotiy ko‘nikmalarni egallash, o‘z xatti-harakatlari, qarorlari uchun javobgarlik hissi, shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, axborotlarni qabul qilish va ajrata olish, abstrakt, ijodiy, mantiqiy tasavvurni kengaytirishga xizmat qiladi.

Mehriniso PARDAYEVA,
Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik Markazi boshqarma boshlig'i,
PhD, dotsent

TA'LIM OLUVCHILARDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING PRODUKTIV YECHIMLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktab ta'limi sifatini yangi bosqichga ko'tarishning dolzarb muammolari, unga ta'sir etuvchi omillari va yechimlari jumladan, o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning samarali modellariga asoslangan o'qitish metodikalarini amaliyotga joriy etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. O'quvchi, maktab, ta'lim sifati, XX asr ko'nikmalari, 4K modeli, metodika, darslik, pedagogika, o'qituvchi mahorati, kasbiy rivojlanish, o'quv natijalari, baholash, taksonomiya.

В данной статье освещены актуальные проблемы повышения качества школьного образования на новый уровень, факторы, влияющие на это и пути решения, в том числе внедрение методов обучения, основанных на эффективных моделях формирования жизненных навыков у учащихся.

Ключевые слова. Обучаемый, школа, качество образования, навыки XXI века, модель 4К, методика, учебник, педагогика, навыки учителя, профессиональное развитие, образовательные результаты, оценка, таксономия.

This article highlights the current problems of improving the quality of school education to a new level, the factors influencing this and solutions, including the introduction of teaching methods based on effective models for the formation of life skills in students.

Key words. Learner, school, quality of education, skills of the XXI century, 4Kb model methodology, textbook, pedagogy, teacher skills, professional development, educational results, assessment, taxonomy.

Maktab ta'limi butun dunyoda boshqa ta'lim turlari, jumladan, maktabgacha ta'lim, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim olish davrlariga nisbatan ko'proq muddatni, ya'ni 9-12 yilni tashkil etadi. Shuningdek, maktab davrida ta'lim oluvchilar yoshi, pisoxofiziologik va intellektual xususiyatlariga ko'ra ta'lim olishning eng muhim va fundamental bug'ini hisoblanadi. Bunda barcha ta'lim turlari bilan uzviylik, uzluksizlikni ta'minlash juda muhim va ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omildir.

Barcha sohalardagi globallashuv natijasida yuz berayotgan integrallashuv butun dunyoda maktab bitiruvchisi portretining umumiylashuviga olib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida ta'limning yangi paradigmasini yaratadi. Bitiruvchi portreti, modeli albatta, mamlakatning ustuvor maqsadlari, taraqqiyot strategiyasi va milliy qadriyatlarini inobatga olgan holda yaratiladi, buning natijasida ilg'or tajribalar asosida ta'lim mazmuni, o'qitish va baholash metodologiyasi shakllanadi.

Blum taksonomiyasi asosida ta'lim strategiyasi va trayektoriyasini belgilagan tajribalarni ko'p o'rganganmiz. Jahon va mahalliy olimlar, tadqiqotchilar unga juda ko'p marta asoslangan holda ta'limdagi muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy yangiliklarga

erishganlar. Ko‘plab olimlar o‘z qarashlari, yondashuvlari va tajribalari asosida mazkur taksonomiyani takomillashgan modellarini taqdim etgan bo‘lsa-da, bitiruvchi portretiga erishishning mantiqiy negizini saqlab qolingan darajalari umumiydir.

Shunday modellardan biri sifatida “Padagogik g‘ildirak”ni keltirish mumkin. U beshta sektorlarga bo‘lingan bo‘lib, ularning har biri o‘qituvchiga hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar, qo‘llaniladigan yondashuvlar va raqamli resurslar haqida tushuncha beradi:

1. Bitiruvchining shaxsiy sifat va ko‘nikmalari — ta’lim faoliyatining uzoq muddatli maqsadlari hisoblanadi.

2. Motivatsiya – ta’lim natijalarini “Nega men buni qilyapman?” degan savolning javobiga muvofiq rejalashtirish.

3. Blum taksonomiyasi — yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ta’lim maqsadlarini rejalashtirishning klassik pedagogik modelidir.

4. Texnologiyadan foydalanish — o‘quv maqsadlariga erishish uchun tegishli ilovalar/resurslar.

5. SAMR (Substitution-o‘zgartirish, augmentation-ko‘paytirish, modification-modifikatsiya, redefinition-qayta belgilash) modeli texnologiyadan qay darajada foydalanilishini tavsiflovchi pedagogik modeldir.

Padagogik g‘ildirak, shuningdek, ta’lim yondashuvlari-resurslarni tanlash mezonlarini taqdim etadi: bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash, yaratish. Ta’limning har bir bosqichida mazkur darajalarga erishish uchun pedagoglar o‘quv-tarbiya jarayonini aniq maqsadlarga yo‘naltirishi, o‘quv-metodik resurslarni to‘g‘ri tanlash, metodologiya va strategiyalarni to‘g‘ri belgilash hamda amalga oshirishi lozim. Har bir darajada qaysi ko‘nikmalar shakllanishi, natijada qanday faoliyat paydo bo‘lishini aniq tasavvur qilishi uchun quyidagi jadvaldagi ma’lumotlar foydali bo‘lishi mumkin.

Darajalar	Ko‘nikmalar	Ko‘nikmalar tavsifi	Faoliyat
1-daraja	Bilish	Ma’lumotni eslab qolish	Aniqlash, tavsiflash, nomlash, belgilash, tanib olish, ko‘paytirish
2-daraja	Tushunish/ anglash	Ma’nosini tushunish, tushunchani ifodalash	Xulosa qilish, saralash, himoya qilish, izohlash, misollar keltirish
3-daraja	Qo‘llash	Ma’lumotdan to‘g‘ri foydalanish, bilganlarini notanish vaziyatlarda qo‘llash	Qurish, modellashtirish, bashorat qilish, tayyorlash
4-daraja	Tahlil qilish (analiz, sintez)	Ma’lumotni taqsimlash yoki tushunchalarni qismlarga ajratish, fikrlarni shakllantirish uchun tushunchlarni jamlash	Taqqoslash, qiyoslash, ajratish, farqlash, tanlash, qismlash
5-daraja	Baholash	Erishilgan natijalarni belgilab qo‘yilgan mezonlar asosida baholash, ularning to‘g‘riligi, aniqligi, sifati, samaradorligini baholash va ongli qarorlar qabul qilish	Baholash, qiyoslash, tasdiqlash, xulosalash, asoslash, darajalash, himoya qilish, qaror qabul qilish
6-daraja	Yaratish	G‘oyalar yaratish, rejalar ishlab chiqish va o‘z mahsulotlarini yaratish	Yaratish, yasash, kashf qilish, tuzish, qayta qurish, ishlab chiqish, loyihalash, takomillashtirish

Shuningdek, maktab ta’limi sifatini ta’minlashga ta’sir etuvchi bir necha muhim omillar mavjud, jumladan:

– ta’lim oluvchilar (kimni o‘qitamiz?);

– ta’lim beruvchilar (kim o‘qitadi?);

– ta’lim mazmuni (nimani va qancha o‘qitamiz?);

– ta’lim-tarbiya berish metodologiyasi (qanday o‘qitamiz?);

– o‘quv natijalarini baholash (nimaga erishamiz?).

Ta’lim oluvchilarning individual qobiliyatlari, ta’limiy ehtiyojlari va ta’lim olishdan maqsadlariga mos ravishda ta’lim xizmatlari turlari, jumladan, variativ va tabaqalashtirilgan, ixtisoslashtirilgan hamda maxsus ta’lim shakllarini joriy etish dolzarblik kasb etmoqda. Garchi mazkur islohotlar ta’lim xizmatlari bozorini kengaytirib, ta’lim tashkilotlari orasida raqobat muhitini keltirib chiqarish orqali ilg‘or/brend maktablar, shu qatorda xususiy, paydo bo‘lishiga olib kelsa-da, ta’lim oluvchilar imkoniyatlarining ularning xohish-istaklariga nomutanosiblik (iqtisodiy jihatdan)ni keltirib chiqarmoqda. Ayrim rivojlangan davlatlarda barcha maktablar davlat maktablari, masalan, Finlyandiya, Singapur, ta’limga yondashuv barcha uchun teng imkoniyatlarni nazarda tutadi.

Ta’lim xizmatlari bozoridagi turli talablarga ko‘ra takliflarning shakllanishi o‘ziga xos ijobiy va salbiy jihatlarga ega, ammo, bozor iqtisodiyoti davrida ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishda davlat monopoliyasiga chek qo‘yadi. Iste’molchilarga tanlash imkoniyatini beradi.

Ta’lim muassasalari, ularning mulkchilik shakli va maqomidan qat’i nazar, mamlakatning ta’lim siyosati asosida taraqqiyot strategiyalari va maqsadlariga mos ravishda o‘z maqsadlarini shakllantiradi, resurslar va imkoniyatlarini qo‘llaydi.

Bugungi kunda o‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch va fanga oid ko‘nikmalar, kompetensiyalarni-o‘quv natijalarini ilg‘or tajribalardan kelib chiqib, aniqlashtirish, bunda mehnat bozoring real talablaridan kelib chiqib, ta’lim mazmuni va metodologiyasini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘lib, quyida tayanch ko‘nikma va kompetensiyalar kltirildi:

Muloqot (kommunikatsiya) ko‘nikmasi:

• muloqotdan cho‘chimaslik, unga faol kirishish, savollar berish, berilgan savollarga asosli javob qaytarish;

• muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshiga moslashish;

• muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan o‘rinli foydalanish;

• muloqot qoidalari, ma’nosini tushunish va ishonch darajasini oshirish;

• boshqalarning fikrini tinglay bilish;

• atrofdagilarda o‘zining ijobiy obrazini shakllantira olish;

• o‘z fikr va his-tuyg‘ularini erkin va tushunarli tarzda ifodalash;

• muloqot mazmuniga mos tarzda ma’lumotlarni taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani o‘rnatish;

• o‘z fikr-mulohazalarini aniq va ishonarli dalillash;

• katta va kichik jamoada boshqalar bilan hamkorlikda ishlash.

Jamoaviy ishlash (kollaboratsiya) ko‘nikmasi:

• umumiy maqsadlarni o‘z maqsadidek qabul qilish, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo‘nalishini tanlash;

• ijtimoiy o‘zaro ta’sir, ya’ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaraga kirishish, o‘z harakatlarini boshqalarniki bilan muvofiqlashtirish;

• belgilangan reja va g‘oyalarni amalga oshirish uchun o‘z jamoasini shakllantirish va yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish;

• zimmasiga olgan majburiyatlarni talab darajasida bajarish;

• mustaqillik, avtonomiya va tashabbuskorlik.

Tanqidiy (kritik) fikrlash:

• masalani chuqur va batafsil o‘rganish, uning mohiyati, xususiyatlari, holati va boshqa jihatlari bilan bog‘liq omillarni tahlil qilish;

• eng muhim dalillarni ajrata olish va baholash;

• olinayotgan va berilayotgan ma’lumotlarning aniqligi, ishonchliligi va sifatini baholash;

• o‘z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy izchillikda bayon etish orqali tushuntirish;

• erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarni to‘g‘ri shakllantirish, zarur ma’lumotlarni va ularning yetarliligini aniqlash, shu asosda mustaqil xulosalar chiqarish;

• o‘z-o‘zini boshqara olish, nazorat qilish, mulohaza yuritish va natijalarini yaxshilash;

• o‘rganilayotgan masalaga turli nuqtayi nazardan yondashish;

• kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish;

• amaliy vaziyatda duch kelgan masalalarni hal qilish uchun vaziyatni modellashtirish va unga maqbul yechim topish;

• strategik fikrlash.

Kreativlik (ijodkorlik) ko‘nikmasi:

• tevarak-olamga qiziqish va u haqda ko‘proq bilishga intilish;

• dunyo obyektlari o‘rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o‘z savollariga javob topish;

• tasavvur olamini kengaytirish, noan’anaviy va antiqa g‘oyalarni o‘ylab topish;

• maqsadga tez va samarali erishish uchun mavjud bir nechta usullardan maqbulini ajratib olish;

• g‘oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, o‘zgaruvchan va kuchli axborot oqimi sharoitida o‘z faoliyatini tezda qayta tashkil etish.

Mantiqiy fikrlash va innovatsiya ko‘nikmasi:

• innovatsiyalar va yangi g‘oyalarni ilgari surish;

• improvizatsiya qilish, maqsadga yetishning yanada oson, mos va maqbul usullarini izlash;

• o‘z g‘oyalarini amalga oshirish uchun mantiqiy va ijodiy tafakkur yuritish;

• maqsadga erishish uchun mas’uliyat, qat’iyat va iroda bilan harakat qilish.

Madaniyatlararo ko‘nikmalar va global xabardorlik:

• turli madaniyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularning tarixiy va zamonaviy xususiyatlarini o‘rganish;

• turli mamlakatlar, madaniyatlar va alohida shaxslarning jamiyat rivojiga qo‘shgan hissasi bilan tanishish, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ahamiyatini tushunish;

• odamlarga, ularning e’tiqodi, millati, kelib chiqishi, jinsi va moddiy imkoniyatidan qat’i nazar, hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

• o‘zgalarning tili, madaniy o‘ziga xosligini to‘g‘ri qabul qilish va qo‘llab-quvvatlash.

Farovonlik va barqaror rivojlanish ko‘nikmasi:

• ta’lim olishdan zavqlanish, yangi bilimlar olishga intilish qobiliyatini rivojlantirish;

• o‘z bilimini xolis baholash va ta’lim olish maqsadlarini belgilash;

• barqaror turmush tarzi uchun foydali bo‘lgan odatlarni bilib olish;

• tuyg‘ularni tan olishni va ifodalashni o‘rganish;

• o‘z-o‘zini ijobiy baholashni rag‘batlantirish;

• gender tenglik, sog‘lom raqobat muhitini qo‘llab-quvvatlash.

Mehnatga oid hayotiy malakalar va tadbirkorlik ko‘nikmasi:

• mehnatga ijobiy munosabatni qo‘llab-quvvatlash;

• fanlarni o‘rganish ham mehnatning bir turi ekanligi va buning uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish;

• ko‘p qirrali ishlash usullarini qo‘llash;

• ish jarayonlarini to‘g‘ri rejalashtirish va tashkil etish, ularni avtomatlashtirishga intilish.

Ekologik savodxonlik:

• atrof-muhit, iqlim o‘zgarishi, energiya, suv, tuproq, havo, oziq-ovqat mahsulotlari sifati va tarkibi, ekotizimga ta’sir etuvchi turli omillar hamda ularning oqibatlarini bilish va tushunish;

• aholi soni ortishi hamda texnologiyalar rivojlanishi tabiatga ta’sir ko‘rsatishini va mavjud resurslar ko‘proq sarflanishiga sabab bo‘lishi bilish va tushunish;

• ekologik muammolarni o‘rganish va tahlil qilish, aniq xulosalar chiqarish, samarali qarorlar qabul qilish;

• ekologik muammolarni yechishda individual va jamoaviy harakatlanish (masalan, global aksiyalarda ishtirok etish, ekologik rivojlanishga ijobiy ta’sir etuvchi yechimlarni ishlab chiqish).

Kompyuter va AKT savodxonligi ko‘nikmasi:

• kompyuter va AKTdan foydalanish orqali jarayonlarni avtomatlashtirish va tezlashtirish, amaliy vaziyatlarni modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish;

• axborotni izlash va qo‘llashda AKTdan maqsadli foydalanish;

• axborotni olish, foydalanish va uzatishda matn, tinglash, lingvistik, fazoviy va vizual resurslardan unumli foydalanish;

• zamonaviy texnologiyalardan izlanish va ijodiy jarayonning bir qismi sifatida foydalanish;

• turli shakllardagi axborotni tushunish, og‘zaki va yozma tarzda izohlash;

• raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlarini bilish, ularning zamonaviy dunyodagi ahamiyatini to‘g‘ri baholay olish;

• global tarmoqdagi xavfsizlik qoidalari va odob-axloq qoidalarini bilish hamda ularga amal qilish;

Tizimli fikrlash va loyihalash ko‘nikmasi:

• tahlil qilish, asosli qarorlar qabul qilish, xavf va imkoniyatlarni baholash;

• atrofimda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni to‘liqroq va aniqroq idrok etish;

• sodir bo‘layotgan voqealar va ularning o‘zaro bog‘lanishini (tasvirlari) xolis nuqtayi nazardan baholash va ularga adekvat javob berish;

• maqsadga yanada muvaffaqiyatli erishish istiqbollini ko‘rish;

• empatiya: o‘zini boshqa odamning o‘rniga qo‘yib ko‘rish, uning holatini va his-tuyg‘ularini tushunish;

• fikrlash kengligi: muammoni butunligicha va barcha tafsilotlari bilan qamrab olgan holda tahlil qilish;

• eksperiment: sinab ko‘rish, xato qilsa, qayta urinib ko‘rish.

Mazkur ko‘nikmalarni samarali shakllantirish o‘qitish metodikasi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan faol foydalanishni nazarda tutadi, jumladan “4K” modeliga asoslangan innovatsion yondashuv-metodologiya o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, kollaboratsiya – o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini, ularni hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kommunikativlik – o‘quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyati, o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga yo‘naltirilgan.

O‘quvchilarda kreativ fikrlash, ya’ni ijodiy fikrlashni va yangilik qilish, o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llash, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Kritik fikrlashga yo‘naltirilgan metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarda muammolarga analitik nuqtayi nazardan yondashish va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan:

– muammoli ta’lim (har bir dars boshida – muammoli savol);

– muammoni muhokama qilishda o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish;

– mustahkamlash mashqlarini bajarishda guruh bo‘lib va yakka tartibda ishlash;

– blum taksonomiyasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirish;

– qiziqarli o‘qitish usullariga tayanish (maqol, anagramma, krossvord);

– loyihaga asoslangan ta’lim (har bir bob/chorak oxirida kichik-loyihalarni bajarish);

– refleksiya kabilar “4K” modeli asosida o‘quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ta’lim resurslarning eng asosiysi, o‘qituvchi bo‘lib, maktabda ta’lim sifati o‘qituvchi sifatidan yuqori bo‘lolmasligi barchaga ma’lum. Demak, ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchilar asosiy e’tiborni aynan o‘qituvchi kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratishi maqsadga muvofiq. O‘qituvchiga o‘qitishning eng samarali modellarni taqdim etish, unga kasbiy-rivojlanish uchun shart-sharoit yaratish va uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пинская М.А., Михайлова А.М., Компетенции “4К”: формирование и оценка на уроке: Практические рекомендации. – М; 2019.

2. https://designingoutcomes.com/assets/Padagogy_Wheel_Translations/Padagogy_Whl_V4_RUS_HD.pdf.

3. Педагогическое кольцо https://blendedlearning.pro/script/padagogywheel/.

4. https://mel.fm/blog/yekaterina-danilova/3492-chto-takoye-obucheniye-4k-zachem-ono-vashemu-rebenku-i-gde-uchitsya-po-takoy-sisteme.

Zamira SANGIROVA,
Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik
Markazi mutaxassisi, PhD

BOLALARDA HAYOTIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOG VA OTA-ONALAR HAMKORLIGI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy ta’lim berish jarayonida o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning eng maqbul yo‘llaridan biri bo‘lgan hamkorlikdagi ishlarni tashkil etishning metodologiyasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. O‘quvchi, maktab, pedagog, ota-ona, hayotiy ko‘nikmalar, zamonaviy ta’lim, hamkorlik, tanqidiy va kreativ fikrlash.

В статье рассматривается методика организации работы в сотрудничестве, которая является одним из лучших способов развития жизненных навыков учащихся в ходе современного образования.

Ключевые слова. Ученик, школа, педагог, родитель, жизненные навыки, современное образование, сотрудничество, критическое и творческое мышление.

The article discusses the methodology of organizing education in cooperation, which is one of the best ways to develop students’ life skills in the course of modern education.

Key words. Student, school, teacher, parent, life skills, modern education, cooperation, critical and creative thinking.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” dasturlarida bolalarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo‘lib ishlash, tadqiqotchilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini amaliyotga joriy etish vazifalari ko‘rsatilgan.

Bunda qo‘yilgan asosiy talab yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, tez o‘zgarayotgan dunyoga moslashishda nafaqat bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish, ularda izlanuvchanlik, ixtirochilik, ijodkorlik kabi sifatlarga ega bo‘lish orqali olgan bilimlarini hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilmoqda.

Shunday ekan, uzluksiz ta’limda bolalarning tabiatni butun bir borliq sifatida, olamning yagona manzarasini anglashi, ekologik muammolarni tushunishi hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, tabiat va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan kompetent shaxsni tarbiyalashda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish pedagogik muammo hisoblanadi.

Jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalashda tarbiyachi va ota-onaning hamkorligi muhim rol o‘ynaydi. Bolalarning hayoti davomida bilishi kerak bo‘lgan muhim hayotiy ko‘nikmalar qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish va muloqot qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga moslashuvchan va ijobiy xulq-atvor qobiliyatlari shaxsga kundalik hayotdagi muammolar bilan samarali kurashish imkonini beradi.

Bolalarda bosqichma – bosqich hayotiy ko‘nikmalar rivojlanadi. Bular: o‘z-o‘zini anglash, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, qaror qabul qilish, muammoni hal qilish, kommunikativ aloqa, hamkorlikda ishlash.

O‘z-o‘zini anglash – bu shaxs sifatida sizni shaxsga aylantiradigan fazilatlarni, shu jumladan, shaxsiyatingiz, harakatlaringiz, qadriyatlaringiz, e’tiqodlaringiz, his-tuyg‘ularingiz va fikrlaringizni idrok etish va tushunish qobiliyatidir.

Tanqidiy fikrlash – bu narsalarni ifodalashga harakat qiladigan bilimlarni tashkil etish usulini tahlil qilish, tushunish va baholashga asoslangan aqliy jarayon.

Ijodiy fikrlash – ijodiy tafakkur yaratish qobiliyatiga ega bo‘lgan bilim jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Muammoni tushunish, shuningdek, uni qayta aniqlash, fikrlarni o‘zgartirish, ma’lumotni qayta talqin qilish va yangi yechimlarni topish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Qaror qabul qilish – muammoni aniqlash, samarali yechim talablarini aniqlash, qaror maqsadlarini belgilash va muqobil variantlarni aniqlash kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Muammoni hal qilish – biz o‘z bilimlarimiz, ko‘nikmalarimiz va tushunchalarimizni notanish vaziyatni boshqarish uchun ishlatadigan fikrlash jarayoni.

Muloqot qilish – nimanidir batafsil oshkor qilish, ochish yoki tushuntirish harakati sifatida maqsadga erishishni o‘z ichiga oladi.

Hamkorlikda ishlash – ikki yoki undan ortiq kishi umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda harakat qilishi va boshqalar bilan samarali ishlash uchun foydalanadigan qobiliyatdir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning ijtimoiy, hissiy, kognitiv va akademik rivojlanishi arqonning iplari kabi bir-biriga chuqur bog‘langan va muvaffaqiyatli yo‘llarni yaratish uchun birlashadi.

Maktabgacha ta’lim va umumta’lim maktablarda yosh avlodga har doim, boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, bog‘chada, maktabda, uyda, shuningdek, jamoat joylarda o‘zini qanday tutish etikalarni o‘rgatiladi. Natijada bolalarda halollik, ochiqlik, qat’iyatlik, javobgarlik kabi aqliy munosobatlar ularning ongida rivojlanadi.

Bolaning har tomonlama rivojlanishida maktab, o‘qituvchilar va ota-onalar muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalar bolaning birinchi ustozi, ikkinchisi esa o‘qituvchidir. Bola shaxsini shakllantirishda ikkalasining ham katta hissasi va mas’uliyati bor.

Ota-onalarning roli: Ota-onalar bolaning birinchi uydagi namuna oladigan birinchi inson hisoblanadi. Bolalar ota-onalari kabi o‘zini tutishadi, munosabatda bo‘lishadi va ularga taqlid qilishadi. Ota-onalar o‘z farzandlarini o‘rganishga undash va rag‘batlantirishda muhim rol oynaydi. Ota-onaning yaxshi yordami bolaning ijobiy, sog‘lom, erkin fikrlovchi bo‘lib o‘sishida yordam beradi. Agar ota-onalar zukko, farzandini tez tushunadigan bo‘lsa, bolalar hayotining dastlabki bosqichida hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Pedagoglarning roli. Pedagoglarning asosiy vazifalari bolalarni bilimni o‘rganish orqali ularni hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish va unga hayotda qiyinchiliklarga bardosh berish yo‘llarini o‘rgatishdan iborat. U bolani mas’uliyatli va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi. Pedagog – bu bola bog‘chada, maktabda ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rganadigan birinchi shaxs hisoblanadi. Pedagoglar bolaga hayotning dastlabki tushunchalari va rivojlanish ko‘nikmalarini yo‘naltiradi hamda uning rivojlanishida ijobiy o‘zgarishlarga olib keladigan katta kuchga ega. Bola o‘sib ulg‘ayib, turli ko‘nikmalarga ega bo‘lsa, pedagog uning qiziqishini oshirish va uni yanada mustaqil fikrlashga o‘rgatishda haqiqiy rahbarga aylanadi.

Pedagog va ota-ona munosabatlari – ota-ona va pedagog o‘rtasidagi ishonch va o‘zaro bir-birini tushunish bolaning yaxshi ta’lim olishining haqiqiy siri hisoblanadi. Ota-onalarning pedagogga bo‘lgan eng katta yordami va hamkorligi bola bilan bog‘lanish, tushunish va ishlashga yordam beradi. Agar ota-ona va pedagog tushunib, hamkorlikda ishlasa, bolada ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Ota-ona va pedagogning yaxshi munosabati bolani bog‘chaga va maktabga borishga ijobiy munosabatini shakllantiradi va ularning bilimga intilishi, qiziqishi shunchalik yuqori bo‘ladi. Natijada bolada hayotiy ko‘nikmalar tez rivojlanishga imkoniyat yaratadi.

Ota-onalar farzandining umumiy rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikma va xususiyatlarini uning fanni o‘zlashtirishi orqali ko‘rishadi. Ota-onalar buni ‘‘hayotiy ko‘nikmalar’’ deb bilishadi, chunki ular o‘z farzandlarining muvaffaqiyatga erishishga tayyorlaydilar. Ota-onalar esa bu ko‘nikmalarning nima uchun foydali bo‘lishining ko‘plab sabablarini ko‘rsatadilar: farzandiga o‘rganishga yordam berishda jamiyatning yaxshi a’zosi bo‘lishdan tortib, ularni mehnatga tayyorlashgacha. Ota-onalar o‘qituvchilar bilan farzandining hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda va muvaffaqiyat qozonishiga yordam berish uchun hamkorlikda ishlashadi.

Ota-onalar uchun pedagoglarga yordam berishning beshta usuli:

1. Farzandingizni har kunning oxirida 10-20 daqiqa davomida o‘z kuni haqida gapirishini tinglang va uning bashorat qilishiga sharoit yarating. Bu orqali bolalarda muloqat qilish, va ijodiy fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishiga olib keladi.

2. Farzandingizning bo‘sh vaqtini osoyishta o‘tkazishi uchun sharoit yarating. Ularning bog‘chada va maktabga dam olishlariga imkon beradigan kun tartibi tuzishni va unga rioya qilishga o‘rgating. Bu orqali bolalarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

3. Bolalaringizning uy vazifasini bajarishda rag‘batlantiring. Bunda bolalar o‘z ishining sifati uchun mas’uliyatni oshirishni o‘rganishadi. Bunda bolalarda muammoni hal qilish ko‘nikmasi rivojlanadi.

4. Uyingizda kutubxona tashkil qiling. Bolalar o‘qish uchun ertak, badiiy kitoblar va hayotning ko‘plab savollariga javob beradigan kitoblar bilan to‘ldiring. Bolalar bilan o‘qigan kitobi yuzasidan fikr almashish orqali qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

5. Farzandingizning tarbiyachisi va o‘qituvchisi bilan hamkor bo‘ling. Farzandingiz bilan muayyan bir masala yuzasidan gaplashmoqchi bo‘lsangiz, buni bolaning oldida emas, shaxsiy holda hal qiling. Farzandingiz oldida hech qachon tarbiyachisini yoki o‘qituvchisini tanqid qilmang.

Xulosa o‘rinda shuni aytish mumkinki, pedagoglar va ota-onalar o‘zaro hamkorlikni yaxshi yo‘lga qo‘ysa, ular bog‘cha, maktab va maktabdan keyingi sharoitlarda o‘z farzandlarida ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” dasturi. https://lex.uz/docs/6396146.

2. Ahmadigatab T., Shayan N., Tazangi R., Taheri M. Hayotiy ko‘nikmalarga asoslangan talabalarning hayot sifatini bashorat qilish. Procedia Soc Behav Sci . 2011;30:1980-1982. doi: 10.1016/j.sbspro.2011.10.384.

Zulayxo DJO‘RAYEVA,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING AKMEOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida asoslangan. Shuningdek, akmeologiya, akmeologik yondashuv, kompetentlik tushunchalarini tahlil qilish natijasida akmeologik kompetentlik tushunchasiga mualliflik ta’rifi keltirilgan hamda funksiyalari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar. Akmeologiya, akmeologik yondashuv, kompetentlik, akmeologik kompetentlik, kasbiy mahorat, funksiya.

В данной статье развитие акмеологической компетентности будущих учителей основывается на социально-педагогической необходимости. Также в результате анализа понятий акмеологии, акмеологического подхода, компетентности дано авторское определение понятия акмеологической компетентности и показаны ее функции.

Ключевые слова. Акмеология, акмеологический подход, компетентность, акмеологическая компетентность, профессионализм, функция.

In this article, the development of acmeological competence of future teachers is based on a socio-pedagogical necessity. Also, as a result of the analysis of the concepts of acmeology, acmeological approach, competence, the author’s definition of the concept of acmeological competence is presented and its functions are shown.

Key words. Acmeology, acmeological approach, competence, acmeological competence, professionalism, function.

Bugungi globallashuv davrida bo‘lajak mutaxassislarni davlat va jamiyatning o‘zgaruvchan talablari asosida har jihatdan rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun ularda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish zarur. Bunda akmeologiya fani doirasida erishilgan natijalar asosida akmeologik kompetentlikni rivojlantirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Akmeologiya fani deganda turli davrlardagi fanlarning birligidan shakllangan fan tushuniladi. Akmeologiyaning tuzilishi shaxsning rivojlanishi, fenomenologiyasi va shakllanishining qonuniyatlari va mexanizmlarini, o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini, belgilangan kasbiy maqsadlarga erishish uchun o‘z-o‘zini tarbiyalashni o‘z ichiga oladi. Akmeologiya inson faoliyatining turli sohalarida kasbiy mahoratni oshirish tizimlarining samaradorlik darajasini aniqlash usullarini ishlab chiqadi va bu jarayonning qonuniyatlarini o‘rganadi.

Akmeologiyaning vazifasi – o‘z-o‘zini takomillashtirish va shaxsning o‘zini o‘zi shakllantirish, kasbiy mahorat va malakalarni shakllantirish, o‘z kasbiy bilimlarini amalda qo‘llash, kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganishdan iborat.

Akmeologiya boshqa fanlardan quyidagilar bilan ajralib turadi:

– akmeologiya fani bitiruvchining kasbiy faoliyati sohasiga tegishli bo‘lib, boshqa fanlar tomonidan bunday batafsil ko‘rib chiqilmaydi;

– o‘ziga xos usullar yordamida akmeologik jihat insonning kasbiy faoliyatini amalga oshiradi, empirik va eksperimental yo‘nalishda farqlanadi, amaliyot davridagi natija-

lardan shaxsiyatni shakllantirish va talabalar o‘rtasida kasbiy mahoratni shakllantirish sifatida foydalanadi;

– akmeologiya fani zamonaviy texnologiyalar yordamida professional natijalarga erishishga qaratilgan;

– akmeologiya mustaqil fan bo‘lib, fanlararo fan bo‘lib, tashkil etish usuli bo‘yicha – tizimli, amalga oshirish shakli – kompleks, umumiy ilmiy elementlari bo‘yicha – fundamental, amaliy yo‘nalishi bo‘yicha – amaliy fan hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda akmeologiya bilim predmeti va usullarini farqlovchi fanlar tizimiga aylandi: ta’lim akmeologiyasi (A.M. Zimichyev, N.V. Kuzmina v.b.), kasbiy shakllanish akmeologiyasi (A.A. Derkach, A.A. Rean v.b.), sport akmeologiyasi (I.P. Volkov), maktab akmeologiyasi (V.N. Maksimova, N.E. Kuznetsova v.b.) va boshqalar.

Yurtimizda bir qancha olimlar, xususan, B.B. Ma’murov bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish, D. Mahmudova akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini tadqiq etish masalalari, G.O. Ernazarova akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish, M.J. Shodiyeva akmeologik yondashuv asosida o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

MDH olimlaridan O.B. Akimovoy pedagogik akmeologiya asoslari, Y.A. Gagin shaxsiyatdan individuallikka o‘tishning akmeologik paradigmasi, V.G. Zazikin muvaffaqiyatga erishishning psixologik va akmeologik asoslari masalalarini tadqiq etganlar. Talabalarning akmeologik qobiliyatini rivojlantirish muammosi L.S. Vygotskiy, A.N. Leontev, B.F. Lomov, A.V. Petrovskiy kabi bir qancha tadqiqotchilarning ishlarida aniqlangan.

Xorij olimlari Susan Zaparzan akmeologik yondashuv asosida o‘qitish jarayonini tashkil etish masalalari, N. Stafeyeva akmeologik yondashuv asosida oliy ta’lim muassasasi talabalarining chet tillarini o‘rganishda kasbiy-pedagogik o‘z-o‘zini rivojlantirish omillarini o‘rgangan.

Tadqiqotchi N.V. Kuzmina kasbiy kompetensiyaning psixologik jihatlarini ajratib ko‘rsatadi, u ijtimoiy-psixologik va avtopsixologik qismlarga ajratadi. Psixologik kompetensiya – bu ta’lim va kommunikativ faoliyatning xususiyatlarini bilish, avtopsixologik kompetensiya esa o‘z faoliyatining natijasi, shaxsiy xususiyatlardir. Kompetensiya deganda shaxsning kasbiy faoliyatining qiymat-semantik, xulq-atvor va motivatsion natijalarini shakllantirishga imkon beruvchi yangiliklar, bilim, qobiliyat va ko‘nikmalar, qadriyatlarning birligi tushuniladi.

Talabalar bevosita ta’lim jarayonining tarkibiga kiradilar, chunki ta’limning muhim tarkibiy qismi o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijodiy salohiyatni shakllantirish, muvaffaqiyatga motivatsiya va ta’lim muassasalarida o‘qitish amaliyotida to‘liq erishish mumkin bo‘lgan kasbiy natijalarga erishishdir. Pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalarining akmeologik kompetensiyasini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlariga oid tadqiqot ma’lumotlarini tahlil qilib, shuni ta’kidlash mumkinki, bu masala psixologik-pedagogik adabiyotlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlari, mazmuni, tuzilishining turli jihatlarini qayd etadi.

Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, akmeologiya shaxsning qadr-qimmati va takomillashuvi, uning shakllanishi va rivojlanishining eng yuqori darajasida fikrlash va harakat qilish qobiliyati haqidagi fan sifatida rivojlanmoqda. Akmeologik bilimning maqsadi, markazi va obyekti shaxs bo‘lib, u subyekt sifatida qaraladi, shuningdek, o‘z-o‘zini ri-

vojlantirish va ijodkorlik, kasbiy faoliyatni o‘z-o‘zini tashkil etishga qodir hayotiy faoliyat hisoblanadi. Akmeologiya o‘z-o‘zini takomillashtirish va o‘zini o‘zi anglash usullarini yaratadi, kasbdagi turli shaxslarning imkoniyatlarini ochib beradi.

O‘qitishning akmeologik yondashuvi amalga oshirilganda, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun kasbiy jihatlarni hisobga olgan holda bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ustunlik qiladi. Bundan shuni ta’kidlash kerakki, akmeologiya nazariy va amaliy fan bo‘lib, u metafan va metaamaliyotdir.

Akmeologik yondashuv – bu insonning rivojlanishi, uning shaxsiy va kasbiy shakllanishi, yuqori marralarni egallash qonuniyatlarini qayd etib, o‘qituvchining o‘z faoliyatida erishgan eng yuqori cho‘qqisi hisoblanadi.

Akmeologik yondashuv – ta’lim mazmuni, ta’lim texnologiyalari va ta’lim oluvchilarni o‘qitish, ta’lim muassasasini boshqarishda funksionallikdan rivojlanishga o‘tishi, ta’limning barcha subyektlarida tizimlashtirilgan bilish motivlari, ta’lim olish ichki ehtiyojga aylanishi, ijodiy tafakkurda asosiy boshlovchilik evaziga ta’lim sifatini salmoqli oshishiga hissa qo‘shadi.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib, akmeologik kompetentlik tushunchasiga mualliflik ta’rifimizni ishlab chiqish uchun kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik atamalari va ularga berilgan mavjud ta’riflarni o‘rgandik, tahlil natijalarini umumlashtirdik.

Kasbiy kompetensiya uning mazmunini belgilaydigan aniq tuzilishga ega bo‘lishi kerak. Biroq, bugungi kunda kasbiy kompetensiyaning ma’lum bir tuzilishi mavjud emas, shuning uchun mualliflar turli xil variantlarni taklif qilishadi.

Maktabning yuqori malakali mutaxassislar va o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyoji talabalarning akmeologik kompetensiyasini rivojlantirish sharoitida o‘quv amaliyotini amalga oshirish imkoniyatlaridan yetarli darajada amaliy foydalanilmasligiga olib kelmoqda. Talabalarning shaxsiyati, kasbiy mahorati va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv amaliyotini o‘tkazishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish va akmeologik kompetensiyani samarali shakllantirishga yordam beradigan o‘quv amaliyoti uchun uslubiy instrumentlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qarama-qarshiliklarni malakali yondashuvni amalga oshirish, yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlash tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qiladigan akmeologik kompetensiyani shakllantirish orqali hal qilish mumkin.

Psixologiyada “kompetensiya” tushunchasi “kompetentlik” tushunchasi bilan taqqoslanadi. Pedagogikada bu tushunchalarning yagona talqini mavjud emas. Bir qator olimlar kompetensiya – bu ma’lum bir individual, integral xususiyat, shaxsning muayyan kasbiy tarkibiy qismlarining birligi deb hisoblashadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, kompetensiya – bu bilimlar, qobiliyatlar, ko‘nikmalar va shaxsiy xususiyatlar to‘plami; kompetensiya – bu qobiliyat, tajriba, savodxonlik va kasbiy faoliyatni amalga oshirish istagi.

“Kasbiy kompetensiya” ikki xil ma’noga ega: birinchidan, shaxs ta’sir qiladigan, tushunadigan va tajribaga ega bo‘lgan masalalar, hodisalar doirasi; ikkinchidan, har qanday shaxs ixtiyoridagi kompetensiyalar, masalalar, hodisalar doirasi. Ta’riflarning o‘zgaruvchanligi tadqiqot muammolarini hal qilish bo‘yicha olimlarning turli pozitsiyalari mavjudligida, amaliyotda ontologik va tizimli yondashuvlardan foydalanmaslikdadir.

Shunday qilib, akmeologik kompetensiya kasbiy yuksaklikka erishishga intilayotgan talabaning integrativ shaxsiyati sifatida ifodalanadi. Pedagogikaning turli sohalarida bo‘lajak o‘qituvchining akmeologik kompetensiyasi bir qator funksiyalarni o‘z ichiga

oladi, bular: motivatsion, ma’lumot beruvchi, normativ (standart), ijodiy, tarbiyaviy.

Akmeologik kompetentlikni rivojlantirishga doir mavjud tadqiqotlarni o‘rganish quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

– akme faoliyat kategoriyalari – texnologik innovatsiyalarga va ijodiy faoliyatga bo‘lgan doimiy qiziqish, o‘zini o‘zi takomillashtirish va kasbiy faoliyatda o‘zini namoyon qilish;

– davlat ta’lim standartining mazmuni, o‘qitish jarayonining tuzilishga bo‘lgan talablar, o‘quv natijalari, asosiy o‘quv dasturlarini amalga oshirish shartlari, innovatsion texnologiyalar, pedagogikadagi faoliyat maqsadlarini tushunish, o‘quvchilar bilan ishlash amaliyotidagi zamonaviy yangiliklarni bilish;

– maktab yoshidagi bolalarning individual tipologik xususiyatlarini ko‘rish va davlat ta’lim standartiga va har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq dasturlarni tuzish qobiliyatining yuqori darajasi; murakkab muammolarni innovatsion faoliyat, innovatsion texnologiyalar, davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quv muassasasi amaliyotida ishlab chiqish va amalga oshirish orqali hal qilish qobiliyati;

– o‘z kasbiy faoliyati strategiyasini yangi avlod standarti talablariga muvofiq o‘zgartirish; shaxsiy va kasbiy o‘sish qobiliyati kabi asosiy kategoriyalarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa shuki, bo‘lajak o‘qituvchining akmeologik kompetentligining mohiyati ushbu konsepsiyani to‘liq tushunishga, uning akmeologiya tizimida fan sifatidagi o‘rnini, pedagogika oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarini tayyorlash jarayonida aniqlashga yordam beradi. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, bugungi kunda eng dolzarb vazifa – pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalarining akmeologik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’murov B.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish: ped. fanl. dokt. diss. – T., 2018, – 264 b.

2. Mahmudova D. Akmeologik yondoshuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini tadqiq etish masalalari. Jamiyat va innovatsiyalar. / Обшество и инноватсии – Соиетй анд инноватионс Спеиал Иссуе./ – 6 (2021) / ISSN 2181-1415. – 139-144 b.

3. Susan Zaparzan. “Teaching Teaching style-acmeologic approach”, NSCC, Canada, 2003 y. – p. 185.

4. Stafeyeva N., Medvedeva I., Bulashova A., Zaichko M. Acmeological Approach as a Factor of Professional and Pedagogical Selfrealization of Students of a High Educational Institution at Studying of Foreign Languages. International science and technology conference “Earth science” IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 272 (2019) 032210 IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/272/3/032210.

5. Shodiyeva M.J. Akmeologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped.fanl.dokt. diss… (DSc). – T., 2022, – 386 b.

6. Ernazarova G.O. Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarini akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish: ped. fanl. dokt. (DSc) diss. avtor. – T., 2018. – 68 b.

Umar G‘OYIMOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

O‘QITUVCHILARDA REFLEKSIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya

Maqolada o‘qituvchilarda refleksivlikni rivojlantirishning ijtimoiy zarurat ekanligi haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, bugungi kunning asosiy vazifalari va yoshlarimizdan kutayotgan ertangi natijalar va bunda o‘qituvchining o‘rni hamda o‘qituvchiga yaratilayotgan shart-sharoitlar, o‘qituvchining refleksivligini shakllantirish me’zonlari haqida so‘z boradi. Muallif ba’zi olimlarning refleksiv pozitsiyalari bo‘yicha fikrlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Refleksiya, kommunikativ refleksiya, tasavvur, o‘qituvchi, boshqaruv faoliyati mexanizmi, rivojlanish, tashkiliy, psixologik, pedagog, nazorat qilish, fikrlash, ortga qaytish.

В статье приводится информация о том, что развитие рефлексивности у педагогов является социальной необходимостью. Также речь пойдет об основных задачах сегодняшнего дня и завтрашних результатах, которые мы ожидаем от сегодняшней молодежи, и роли учителя в этом, а также об условиях, которые создаются для учителя, критериях формирования рефлексивности учителя. Автор также приводит мнения некоторых ученых о рефлексивных позициях.

Ключевые слова. Рефлексия, коммуникативная рефлексия, воображение, педагог, механизм управленческой деятельности, развитие, организационно-психологическое, педагогическое, контроль, мышление, обратная связь.

The article provides information that the development of reflexivity among teachers is a social necessity. We will also talk about the main tasks of today and tomorrow's results that we expect from today's youth, and the role of the teacher in this, as well as the conditions that are created for the teacher, the criteria for the formation of teacher reflexivity. The author also cites the opinions of some scientists about reflexive positions.

Key words. Reflection, communicative reflection, imagination, teacher, mechanism of management activity, development, organizational, psychological, pedagogic, control, thinking, feedback.

Zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida Yurtni rivojlanishini shiddat bilan amalga oshirish, iqtidorli yoshlarni yetishtirib chiqarish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Chunki o‘qituvchi yetishtirib chiqarayotgan o‘quvchilar ertangi kunning davomchilari sanaladi. Shuning uchun o‘qituchilarga barcha sharoitlarni yaratish bugungi kunning asosiy talablaridan biri bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi yetishtirib berayotgan shaxslardan minglab yoshlar yangiliklar yarata olsa, mamlakat rivoji uchun cheksiz foyda keltiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish bugungi kunda alohida e’tibor qaratishni talab qiladi. Chunki ushbu o‘qituvchining refleksiv ko‘nikmalari o‘ziga xos psixologik hamda rivojlanish xususiyatiga ega. O‘z sohasining ustasi bo‘lishni istagan har qanday o‘qituvchi o‘z ustida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Refleksiya – (lot.reflexio) ortga qaytish, aks etish. Bu:

– kishining o‘z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati;

– bilishning alohida bir shakli;

– fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish;

– o‘zining shaxsiy harakatlari va ularning qonun qoidalarini fikrlashga yo‘naltirilgan inson faoliyatining nazariy shakli;

– o‘z ruhiy holati haqida o‘ylash, xayol surish, fikr yurgizish, uni tahlil qilishga moyillikni anglatadi.

Shaxsning refleksiv layoqatini o‘rganish hamda o‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish masalasi falsafa, psixologiya va pedagogikada alohida ahamiyatga ega. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, refleksiya o‘qituvchini o‘z ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Pedagogik nuqtayi nazardan o‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishning aql-idrok bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlaridan biri o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qilishdir. Tashqi qo‘zg‘atuvchi ta’sirlarsiz, o‘zlarining shaxsiy faoliyatlarini tahlil qilish va baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘qituvchi bu jarayonda o‘z ustida ishlaydi va o‘z-o‘zini rivojlantiradi.

Hozirgi zamon pedagogikasida ko‘nikmalar muayyan o‘quv harakatlarini takomillashtirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Bunday ko‘nikmalarni o‘quvchilar maxsus o‘rganadilar va murakkab masalalarni yechish jarayonida ulardan foydalanadilar. Taniqli psixolog V.V. Davedovning ta’kidlashicha, refleksiv ko‘nikmalar o‘quv harakatlarining ichki tayanch asosi hisoblanib, u ehtiyojlar, mayllarni o‘zaro muvofiqlashtiradi. Refleksiv ko‘nikmalar bilish harakatlari natijasida namoyon bo‘ladi.

Pedagogika fanlarida refleksiya tushunchasining kelib chiqishi haqida bir qator yondashuvlar mavjud. Pedagogik yo‘nalishda N.V. Ippolitova va N. Sterxovalar refleksiya tushunchasiga quyidagicha yondashadilar:

– shartlar muayyan obyektlar, tushunchalar, shart-sharoitlarning majmui hisoblanadi;

– ifodalangan majmualar insoning ta’lim-tarbiyasi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi;

– shart-sharoitlarning ta’siri shaxs ta’lim-tarbiyasi va uning rivojlanishini jadallashtirishi va unga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shuningdek, uning dinamikasi va yakuniy natijasiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– o‘z-o‘zini nazorat qilish, ya’ni maktabda va maktabdan tashqarida o‘zini nazorat qilish jarayonini tashkillashtirish;

– pedagogik – o‘qituvchilarning mustaqil ishlash shakllari va o‘quvchini tushuna olish ko‘nikmasini ishlab chiqish, o‘qituvchi o‘zida kuzatilayotgan kamchiliklarni anglay olish ko‘nikmasini shakllantirish, o‘quvchilarga ta’lim berishning Milliy dastur asosida ta’lim natijalariga erishish;

– psixologik – o‘qituvchi o‘zining erkinligi va psixologik xususiyatlarini hisobga olishi, qulay psixologik muhitni vujudga keltirishi, o‘zining mustaqil rivojlanishiga e’tibor qaratishi, pedagog sifatida o‘z ustida mustaqil mushohada yuritish uchun imkoniyat yaratish.

O‘qituvchining maqsadni ilgari surish layoqati, ya’ni o‘zi ko‘zlagan maqsadga erishmaguncha chekinmaslik ko‘nikmasi, muvaffaqiyatga erishish strategiyalarini tanlash va shaxsiy ta’limiy faoliyatiga tuzatishlar kiritish o‘qituvchida hosil bo‘lgan refleksiv ko‘nikmalarning mahsuli hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga bilimlarni taqdim etish bilan bir qatorda o‘zida refleksiv ko‘nikmalarni hosil qilishga ham alohida e’tibor qaratishi kerak.

B.X. Xodjayevning fikricha, refleksiya bosqichida darsning samaradorligi, kelgusidagi faoliyatni loyihalash uchun poydevor quriladi. O‘qituvchi o‘zining faoliyatini nazorat qiladi va tuzatishlar kiritadi.

G.S. Suxobskaya va L.L. Gorbunovalarning fikrlariga ko‘ra, refleksiya o‘zini-o‘zi anglashning ifodalanishi, muloqot jarayonida subyektning suhbatdoshi tomonidan qanday qabul qilinayotganligini anglashi, muammolar va ularning vujudga kelish sabablarini ko‘ra olishi, aniqlashi, o‘rganishi va tahlil qila olish layoqatidir.

G.M. Kodjaspirova va A.Yu. Kodjaspirovlar refleksiya tushunchasini fikrlash, o‘z-o‘zini anglash, o‘zini-o‘zi nazorat qilish; o‘zining shaxsiy xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini anglash uchun yo‘naltirilgan faoliyat, inson nazariy faoliyatining shakli, ya’ni o‘tmishdagi voqelikka murojaat qilish imkoniyati sifatida talqin etganlar.

O‘qituvchining kasbiy refleksiyasi haqida ham bir qancha olimlar fikr yuritganlar. Jumladan, V.I. Slobodchikov pedagogik refleksiya o‘qituvchining o‘zini va o‘z xatti-harakatlarini obyektiv baholashi, o‘quvchilar va boshqa insonlar tomonidan o‘zini qanday qabul qilinayotganligini, eng avvalo, u muloqot jarayonida kimlar bilan o‘zaro ta’sirda ekanligini tushunish qobiliyati, deb hisoblaydi. Sh. Qurbonov, E. Seytxalilov, M. Quronov, R. Ahliddinov va I. Majidovlarning aytishicha, refleksiya samarali fikrlashning muhim tarzi, yuz berayotgan hodisani keng tizim kontekstida tushunish jarayonlarini alohida tashkil etish (u vaziyat va harakatlarni baholashni, vaziyatlarni hal qilish usullari va operatsiyalarini topishni o‘z ichiga oladi), vazifalarni hal qilishga jalb etilgan individ hamda boshqa odamlarning o‘zini-o‘zi tahlil qilishi, o‘z holati hamda harakatlarini faol o‘ylab ko‘rishdan iborat jarayondir. Shu sababli refleksiya (orqaga qaytish) ichidan (bir individning kechinmalari va o‘ziga o‘zi hisob berishi) ham, tashqaridan (jamoa bo‘lib fikrlash faoliyati va birgalikda yechim izlash sifatida) ham bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ularda o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirish asosda refleksiv faoliyatlarini kengaytirish lozim. Chunki o‘z-o‘zini tahlil qilish o‘qituvchining o‘zi tomonidan keng mushohada yuritish hamda har tomonlama o‘ylab ko‘rish jarayonida vujudga keladi.

O‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini tashkil etish va muvofiqlashtirishda refleksiv yondashuv muhim ahamiyatga ega. Refleksiv yondashuv o‘qituvchilarni o‘tmishga murojat qilishga undaydi va ortga nazar solishga va yaqin o‘tmishdagi voqelikni his etishga chorlaydi. Buning natijasida ular o‘z ustida mustaqil fikr yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Refleksiv yondashuv o‘qituvchilarni o‘zini-o‘zi tahlil qilish, o‘z tushunchalari, yetkaza olish ko‘nikmalarini va faolligini obyektiv baholashga xizmat qiladi.

O‘qituvchida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish o‘zini-o‘zi tarbiyalashga va o‘z tushunchalarini boshqalarga yetkaza olishni rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Shunday qilib, o‘qituvchilarning rifliksivligini ilmiy asosda tashkil etish va muvofiqlashtirish samaradorligini ta’minlash ularning refleksiv faoliyatini tashkil etish asosida ichki dunyosi, tafakkuri, dunyoqarashining rivojlanishini, boshqalarning bilish xususiyatini ham inobatga olishni taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

2. Xodjayev B.X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish: Ped.f.d. ...diss. – T., 2016. – 314 b.

3. Давыдов В.В.Теория развивающего обучения [Текст] / В.В. Давыдов. – М.: ИНТОР, 1996. – С. 544.

Gulzoda UZOQOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

MILLIY YUKSALISH SHAROITIDA MA’NAVIYATNING FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada ma’naviyat hodisasi sinergetik usullarni qo‘llagan holda tadqiq etilib, ma’naviyatning rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq ochib berildi. Shuningdek, ma’naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatiga nisbatan qiziqish kuchayib borishi, ma’naviyat asosida o‘zlikni anglash, milliy manfaatlarni to‘g‘ri tushunish, mamlakat rivojini to‘g‘ri yo‘naltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar nisbatini to‘g‘ri belgilashi mulohaza qilinadi.

Kalit so‘zlar. Ma’naviyat, davlat, milliy qadriyat, milliy ong, millat, jamiyat, o‘zlikni anglash, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, ma’naviy tarbiya samaradorligini oshirish.

В статье исследуется феномен духовности с применением синергетических методов, более подробно раскрываются закономерности развития духовности. Также рассматривается возрастающий интерес к значению духовности в развитии общества, осознание себя на основе духовности, правильное понимание национальных интересов, правильное направление развития страны, правильное определение соотношения национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова. Духовность, государство, национальные ценности, национальное сознание, нация, общество, самосознание, повышение эффективности духовно-просветительской работы, повышение эффективности духовного воспитания.

The article explores the phenomenon of spirituality with the use of synergetic methods, reveals in more detail the patterns of the development of spirituality. It also considers the growing interest in the importance of spirituality in the development of society, self-awareness based on spirituality, a correct understanding of national interests, the right direction of the country's development, the correct definition of the ratio of national and universal values.

Key words. Spirituality, the state, national values, national consciousness, nation, society, self-awareness, increasing the effectiveness of spiritual and educational work, increasing the effectiveness of spiritual education.

O‘zbekiston milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o‘tganidan keyin ma’naviyat Yangi O‘zbekistonning yangicha fikrlaydigan fuqarosini tarbiyalashning asosiy omili o‘laroq jamiyatni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga ruhlantirish, yo‘naltirish vazifasini bajarishga kirishdi. Yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun, Prezident Sh. Mirziyoyev takidlaganidek, “Farzandlarimiz orasidan yangi avlod Beruniylarini, Ibn Sino va Ulug‘beklarini, Xorazmiy va Farg‘oniylarini tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak”.

Haqiqatan, jamiyat taraqqiyotini ma’naviyat rivojlanishisiz tasavvur etish qiyin. Chunki odamlar ongi, ijtimoiy muhit, uning yangiliklarga ochiqligi, tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashi, yangi texnologiyalarga xayrixohligi, har qanday turg‘unlikni va dogmatizmni inkor qiladigan, doimiy ravishda barcha sohalarga takomillashishga intiluvchan bo‘lishi ulkan ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda adolat, o‘zaro ishonch va bir-birini qo‘llab-quvvatlash, xayrixohlik, mehr-oqibat, go‘zallikka, halollikka intilish qaror topsa, iqtisodiy munosabatlar ham takomillashadi, ishlab chiqarish vositalari va texnologiyalari ham yangilanib, rivojlanib boradi. Va aksincha, ma’naviy muhit qanchalik yomon bo‘lsa, odamlar o‘rtasida ishonch bo‘lmasa, bir-biriga nisbatan nosog‘lom, raqiblarcha

munosabatda bo‘lsa, ijtimoiy munosabatlarga ham, iqtisodiyotga ham darz ketadi. Yulg‘ichlik, bir-birini aldash yildan-yil kuchayib boraveradi. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish kerakki, ma’naviyat ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar mazmuni ijobiy yoki salbiyligi odamlarning ongiga, e’tiqodiga, qaysi qadriyatlarga tayanishiga, ya’ni ma’naviyatiga borib taqalar ekan.

Ma’naviyat – juda murakkab, serqirra hodisa, shu bilan birga xalq dilining mazmun mohiyatidir.

“Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori, avvalombor farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak” - degan edi Islom Karimov[1]. Albatta, yangi avlodni voyaga yetkazishda xalq ma’naviyatining o‘rni, boy tarixiy merosimiz, an’ana va urf-odatlarimizning, madaniyat va san’atning, fan va ta’limning rivoji alohida ahamiyatga ega. Yangi O‘zbekistonning yangicha fikrlaydigan fuqarosini, barcha sohalarda raqobatbardosh kadrlarni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, ilm-fan va madaniyat yutuqlarini o‘zlashtirish orqali tarbiyalash mumkin.

Ammo jahon axborot maydonida bunyodkor g‘oyalar qatorida buzg‘unchi g‘oyalar ham, taraqqiyotning barqaror omillari qatorida tasodifiy, beqaror omillar ham uchraydi. Ba’zan tasodifiy omillarning, buzg‘unchi g‘oyalarning insonga ta’siri ko‘proq bo‘ladi. Shu sababdan amalga oshirayotgan islohotlarimiz, xususan, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, madaniyat va san’at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini munosib qadrlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur. “Agar biz ta’lim-tarbiya, madaniyat va ma’naviyat sohasidagi ishlarimizni aniq tizim asosida tashkil etib, ularning samaradorligini oshirmasak, ertangi kunimizni qurolmaymiz”[2], – degan edi Prezident Sh. Mirziyoyev o‘z nutqida.

Ma’naviyat millatning butun tarixi davomida rivojlanadi, ammo u ba’zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba’zan esa ma’lum darajada tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Unda barqarorlik beqarorlik bilan, an’anaviylik, yangilanish bilan, tarixiylik, zamonaviylik bilan birgalikda, o‘zaro aralash keladi. Faqat nisbatlari har xil bo‘ladi.

XX asrda barcha jarayonlarni barqarorlik va beqarorlikning o‘zaro munosabatlarida ilmiy o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki taraqqiyot asosida barqarorlik va beqarorlikning bir-biri bilan o‘zaro mushtarakligi yotadi.

Agar ma’naviy jarayonlar faqat barqarorlikdan iborat bo‘lganda, hech qanday rivojlanish bo‘lmas edi. Hamma narsa qotib qolgan, ya’ni turg‘unlikka mahkum bo‘lgan bo‘lar edi. Xuddi shunday beqarorlik hukmronlik qilganda ham faqat relyativistik, oquvchan bo‘lib, bu holda ham rivojlanish vujudga kelmaydi.

Ma’naviyat masalalarini barqarorlik va beqarorlik nuqtayi nazarda tahlil etish nihoyatda muhim hisoblanadi. Barqarorlik ma’naviy qadriyatlarning shakllanishining muhim omili bo‘lsa, beqarorlik esa, ularning hayotga moslashishi, rivojlanishi va yangilanishi uchun zarur. Ma’naviy tarbiya samaradorligini oshirish ham tarbiya jarayonini, ziddiyatlarini, turli ta’sirlar va omillarning bir-birini korrelyatsiya qilishini, salbiy ta’sirlarni minimallashtirish mexanizmini bilishni talab qiladi. Bu borada bizda katta ilmiy va uslubiy bo‘shliq mavjud.

[1] I.Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” – Ma’naviyat.2008 y. 1-bet.

[2] http://old.tashpmi.uz/uz/raising_and_upbringing/depart_for_raising_and_upbringing/459
https://new.tdpu.uz/news/3727

Murakkab ijtimoiy hodisa sifatida ma’naviyatning rivojlanish jarayonida kuzatiladigan, bir tomondan, barqarorlik, sobitlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ikkinchi tomondan, ma’naviyatda vujudga keladigan yangiliklar, o‘zgarishlar, beqarorlik jarayonlari va hodisalari bir-biriga qanday ta’sir ko‘rsatishi, ma’naviy rivojlanish jarayonidagi barqarorlik va beqarorlik dialektikasi o‘rganilmagan. Ma’naviyatni tadqiq etishda an’anaviy usullar ko‘p qo‘llanilmoqda. Masalaning mohiyatiga chuqur kirib borish uchun an’anaviy usullar bilan birga sinergetik yondashuv va usullardan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Ammo ma’naviyatni sinergetik usulini qo‘llab o‘rganish tadqiqotchilar e’tiboridan biroz chetda qolib kelmoqda. Ma’naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi, chunki ma’naviyat rivojlanadigan jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o‘z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’naviyat, avvalo, tarixiy hodisadir. U bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. Markaziy Osiyo xalqlarining ibtidosi asrlar qariga singib ketgan bo‘lib, ularning necha ming yillik ma’naviy kamolot pillapoyalarini bosib o‘tganligini aniqlash bugun uchun dolzarb muammodir.

Ma’naviy kamolot zamonda, ya’ni millatning butun tarixi davomida yuz beradi, ammo u ba’zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba’zan esa, ma’lum darajada tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Millatning aksariyati ma’naviy tanazzulga yuz tutgan fojiyaviy sharoitlarda ham ma’naviyat yo‘qolmaydi, ko‘lam va mazmunda o‘zi erishgan kamolot bosqichini to‘liq yo‘qotmaydi, ammo pasaytirishi mumkin.

Jamiyat ma’naviy tizimining rivojlanishi o‘z navbatida shu jamiyat a’zolarining ma’naviy kamolot darajasiga bog‘liqdir. Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”[3] .

Lekin bir narsani esda tutish lozimki, jamiyat a’zolari hech qachon bir xil fikrlamaydi, saviyasi, qiziqishlari, ko‘zlagan maqsadlari har xil bo‘ladi. Shu sababdan ma’naviyat individual va guruhiy manfaatlar to‘qnashuvini, ziddiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Bu ma’naviyatning ichki rivojlanishini, yangilanishini belgilaydi. Manfaatlar to‘qnashuvi va ziddiyatlari ma’naviyatdagi beqarorlikning bir ko‘rinishidir. Ammo ma’naviyatdagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy manfaatlar ham aks etadi. Ular ma’naviyatning barqarorligini saqlaydi.

Tarixiy taraqqiyotda ko‘plab jamiyatlarni ko‘rdik, ularning har birining o‘z ma’naviy tizimlari bo‘lgan hamda bu tizimlar rivojlangan va jamiyat ehtiyojiga mos ravishda yangilanib borgan. Ushbu ma’naviy tizimlar shakllanishi jamiyat ehtiyojlari o‘sishiga, bilimi, tajribasiga bog‘liqdir. Masalan, insoniyatning muayyan tarixiy bosqichagi ma’naviy ehtiyoj shakllari boshqa bosqichdagi ehtiyoj shakllari bilan doim ham mos bo‘lavermaydi. Ya’ni inson istak-xohishi, orzu-intilishlari o‘zgarib turadi, shunga monand ravishda jamiyat talabi, ehtiyoji ham yuksalib boraveradi. XX asr boshlarida kiyinish madaniyatida qabul qilingan me’yorlar bugungi kun meyorlariga mos kelmagan: erkaklar ham, ayollar ham tanasining deyarli 90 foiz berkitib turadigan liboslar kiyishgan. Ochiqroq kiyimlarni kiyish davrda qabul qilingan axloqiy, diniy, estetik va boshqa ma’naviy me’yorlarga mos emas edi. Insonlar tafakkuri, ongi taraqqiyoti nati-

[3] https://qalampir.uz/uz/news/prezident-ma-naviyatni-yuksaltirish-buyicha-yigilish-utkazdi-31829

jasida insoniyat axloqiy, diniy va ma’naviy yangi me’yorlarni ijtimoiy hayotga joriy etib kelinmoqda.

Jamiyat ma’naviy tizimi shakllanishi va taraqqiyoti, ularning ma’naviy boyishi uchun xizmat qiladigan, qadr-qimmatga ega bo‘lgan narsa, hodisalarda, ma’naviy qadriyatlarda ham o‘zgarishlar yuz beradi. Ma’naviyat taraqqiyoti jarayonida barqaror holat yuzaga chiqishi haqida fikr yuritar ekanmiz, jamiyat ma’naviy tizimida barqarorlikka erishganidan so‘ng bu tizim muayyan davrda jamiyatga xizmat qiladi. Bu davrda barqarorlik ma’naviy tizim rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, muyyan davrlardagi barqarorlik turg‘unlikka sabab bo‘lib, ma’naviy tizimni rivojlanishdan, taraqqiyotdan orqada qolishiga sabab bo‘lgan. Ma’naviy taraqqiyot jarayonida beqaror va barqaror holatlarni, muvozanatsizlik va muvozanat, tartiblilik va tartibsizlikning namoyon bo‘lishi, ularning ma’naviyat rivojlanishida ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rib chiqamiz.

Masalan, islom dinigacha bo‘lgan davrda Arabiston yarim orolida jaholat, tartibsizlik, ijtimoiy beqarorlik hukmron edi. Islom dini davlatda va jamiyatda barqarorlik o‘rnatilishiga sabab bo‘ldi. Ichki nizolarga qaramasdan islom mamlakatlarida ilm-fan, adabiyot va san’atning islomga xos shakllari barqaror rivojlandi. Turg‘unlik XIII asrdan asta-sekin boshlandi. Ammo Markaziy Osiyoda ikki marta yuz bergan Uyg‘onish davridan keyin XVI asrdan boshlangan turg‘unlik islom mamlakatlaridagidek, ma’naviyat va dunyoqarash, oqibatda esa davlat va jamiyat rivojining orqada qolishiga sabab bo‘ldi.

Tarixga e’tibor beradigan bo‘lsak, ibtidoiy jamoa tuzumida har bir qabilalarning o‘z diniy e’tiqodlari, urf-odat, an’analari, ijtimoiy me’yorlari, ya’ni o‘z ma’naviy tizimlari bo‘lgan. Ular qulay yashash sharoiti uchun kurashishgan, sardorlar qabila a’zolarida yovga nafrat tuyg‘ularini shakllantirishgan. Bundan maqsadi yashash uchun kurash bo‘lgan tuzum uchun tabiiy xol. Shunday bo‘lsa-da, qabila ichida tenglik g‘oyalari asosiy o‘rinda bo‘lgan. Bu holatlarda muayyan barqarorlik namoyon bo‘lganligini ko‘radigan bo‘lsak, keyinchalik xususiy mulkchilik kuchayib, tabaqalanish vujudga kelishi oqibatida jamiyatga yangi me’yorlarni joriy etishga ehtiyoj tug‘iladi va shunday vaziyatlarda beqarorlik kuchliroq namoyon bo‘ladi, toki yangi me’yorlar jamiyatga to‘la moslashgunga qadar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” – T., 2021 y.

2. Shavkat Mirziyoyev “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir” – T.: “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 y.

3. Shavkat Mirziyoyev. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” – M., 2017 y.

4. Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili: (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning – 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatimiz yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvida so‘zlagan nutqi) // Xalq so‘zi, 2016. – 31-dekabr.

5. Erkayev A. “Yangi O‘zbekiston: mo‘ljal – Uchinchi Renessans”. – T.: Ma’naviyat, 2021 y.

6. Erkayev A. “Ma’naviyatshunoslik” monografiya. – T.: Ma’naviyat, 2018 y.

7. Erkayev A. Tafakkur erkinligi/ A. Erkayev; ikkinchi to‘ldirilgan nashri. – T.: Ma’naviyat, 2021. – 256 b.

Dilafruz XAYDAROVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
“Ispan tili nazariy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

TURIZM TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK, LINGVISTIK VA KULTUROLOGIK TALQININI O‘RGANISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada turizmga oid terminlar tizimi qonuniyatlari, turizm terminarining murakkablik tug‘diruvchi omillari, turizm terminlarining klassifikatsiyasi, xususiyatlarini qiyosiy aspektda batafsil yoritilgan. Shuningdek, qiyosiy tilshunoslikda atamashunoslik mustaqil soha sifatida talqin etilgan, atama-so‘zlarning iste’molda qo‘llanilishi, terminologik tizimni diaxronik jihatlari, turizm terminlari mezonlari, milliy sayyohlik terminshunosligi masalalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Turizm, termin, qonuniyatlar, murakkablik tug‘diruvchi omillar, turizm terminlarining klassifikatsiyasi, qiyosiy tilshunoslik, atamashunoslik, terminologik tizim, diaxronik jihatlar, turizm terminlari mezonlari, milliy sayyohlik terminshunosligi.

В статье подробно описаны правила системы терминов, связанных с туризмом, факторы, обусловливающие сложность туристических терминов, классификация туристических терминови и их характеристика в сравнительном аспекте. А также, в статье терминология рассматривается как самостоятельная область сравнительного языкознания, раскрываются терминоупотребление, диахронические аспекты терминологической системы, критерии туристических терминов, вопросы национальной туристской терминологии.

Ключевые слова. Туризм, термин, терминология, осложняющие факторы, классификация туристических терминов, сравнительное языкознание, терминологическая система, диахронические аспекты, критерии туристических терминов, национальная туристская терминология.

The article describes in detail the rules of the system of terms related to tourism, the factors that determine the complexity of tourism terms, the classification of tourism terms and their characteristics in a comparative aspect. And also, in the article terminology is considered as an independent field of comparative linguistics, term usage, diachronic aspects of the terminological system, criteria for tourist terms, issues of national tourist terminology are revealed.

Key words. Tourism, term, terminology, complicating factors, classification of tourism terms, comparative linguistics, terminological system, diachronic aspects, criteria for tourism terms, national tourism terminology.

Jahon tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli sohalar terminologiyasi, ularni boshqa tillardan o‘zlashtirishning leksikografik, lingvistik va kulturologik talqini masalalarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar ko‘lami kengayib bormoqda. Natijada xalqaro sohalardagi atamalar qatorida turizmga oid terminlar tizimini tilimiz qonuniyatlari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish, iqtisodiy-madaniy sharoitda ehtiyoj bo‘lganlarini, murakkablik tug‘diruvchi omillarni belgilash, qardosh bo‘lmagan tillar tizimida turizm terminlarining klassifikatsiyasini yaratib, xususiyatlarini qiyosiy aspektda aniqlash imkonini yuzaga keltiradi.

Dunyo tilshunosligida har bir xalqning qardosh xalqlar bilan ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy aloqalari yuzasidan zaruriy bo‘lgan lingvistik va nolingvistik omillarni o‘rganish, turli sohalar atamashunosligi hamda ixtisosliklar tilini shakllantirish singari ustuvor masalalar yechimiga qaratilgan ishlar tadqiqiga keng o‘rin ajratildi. Bunday

tadqiqotlar natijasida atamalarni o‘zlashtirishning tillararo tafovut va o‘xshashliklarni taqqoslash hamda muvofiqlashtirishning yangi metodlari yaratiladi, tilshunoslik turli nazariy xulosalar bilan boyib boradi, shuningdek, turli millatlar terminologik sistemalarining tarixiy jarayonlarini qiyosiy aspektda chog‘ishtirish, ularning shakllanishida ijtimoiy-madaniy omillarni aniqlash, termin-so‘zlarning leksikografik talqini xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida qiyosiy tilshunoslikda atamashunoslikni mustaqil soha sifatida talqin etish, atama-so‘zlarning iste’molda qo‘llanilish qiymatini, amaliy ahamiyatini, yashovchanligini sinovdan o‘tkazish borasida jiddiy yutuqlarga erishildi. Natijada har bir sohaning lisoniy vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish imkoniyatini aks ettiruvchi, so‘z qo‘llashdagi individualligini ko‘rsatuvchi amaliy-terminologik tahlil asosidagi tadqiqotlar ustuvorligi kuzatila boshladi.

Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib turgan hozirgi bir sharoitda ingliz, fransuz, ispan va o‘zbek atamashunosligida turizm terminlarini tahlil qilish, ularning lingvistik, kulturologik xususiyatlarini yoritishda jahon tilshunosligi ilg‘or tajribasiga tayanish, yangi terminosistemalar yaratishda ixchamlik, tushunarlilik, jahon xalqaro standartlarga muvofiqlik kabi masalalarni atroflicha tadqiq etish zarurati kuchaymoqda.

Har qanday terminologik tizimni majmuiy o‘rganish va ta’riflash ham sinxronik, ham diaxronik jihatlarni o‘z ichiga olishi lozim, bunda terminologiya rivojlanishining tarixini har tomonlama tahlil qilish terminlar yaratilishi va ularning faoliyati-qo‘llanishining umumiy tamoyillarini belgilashga imkon beradi. Terminologiyalarni diaxronik jihatdan tadqiq etish muammosiga ko‘p sonli tadqiqotlar bag‘ishlangan, ularda tarmoq terminologiyalarining maqomlari, terminlar shakllanishining manbalari va usullari o‘rganilgan. Diaxronik tadqiqotlarda terminologiyalar tug‘ilishi, paydo bo‘lishi va rivojlanishining vaqtini va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin, chunki hozirgi paytda shakllanayotgan terminologiyalar ko‘p jihatdan ularning rivojlanish bosqichlarini takrorlaydi: terminologiyalar rivojlanishining umumiy moyilliklarini va ushbu rivojlanishni belgilab beruvchi omillarni, hamda maxsus leksikaga va uni tartibga solish urinishlariga nisbatan moyilliklarini aniqlash mumkin deb hisoblanadi.

Hozirgi kunda 1991-yil Ottavada o‘tkazilgan Sayohat va turizm statistikasi xalqaro konferensiyasida qabul qilingan qarorlar asosida yangi hisobot tayyorlangan. Bu hujjatga asosan yangi tatbiq qilingan, keyinchalik amaliyotga kiritiladigan turizm terminlari quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

– izoh, klassifikatsiyalar rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarni hisobga olgan holda umumjahon amaliy qo‘llanish doirasiga ega bo‘lishi;

– oddiylik, aniqlikka urg‘u berishi;

– ular imkon qadar demokratiya, transport tizimi, biznes, xalqaro migratsiya, to‘lovlar balansi, milliy hisob tizimlari kabi hozirgi xalqaro standart va klassifikatsiyalar bilan hamohang bo‘lishi;

– amaliy turizm so‘rovnomasi, tadqiqotlarda o‘lchab bo‘ladigan, raqamlarda ifodalash mumkin bo‘lgan darajada sodda bo‘lishi lozim.

Har bir sohaga oid maxsus so‘z va iboralar, termin va nomlar alohida yondashuvni talab etishi, ularning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash va lug‘atlarda ularning talqin etilishida barcha xususiyatlarning e’tiborga olinishi mukammal lug‘atlarning

yaratilishiga olib keladi. Lug‘atlarning barchaga tushunarli, foydalanishga qulay variantda taqdim etilishi, talqin va tavsiflarning mukammaligini ta’minlaydigan masalalar yechimiga qaratilgan tadqiqotlar ham ilmiy, ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Ma’lumki, terminologiya keng tadqiq etilgan soha, uning turli aspektlari dunyo va mahalliy tilshunoslikda o‘rganilgan. O‘zbek tili turizm terminologiyasi haqida so‘z borar ekan, bu yerda bir necha o‘ziga xos jihatlarni ta’kidlab o‘tishimizga ehtiyoj tug‘iladi.

Turizm tadbirkorligi amaliyotini nisbatan keyinroq keng ko‘lamda targ‘ib etganligimiz, uni iqtisodiyotning alohida istiqbolli jabhasiga aylantirganimiz sababdan, bizga qadar shakllantirilgan hamda jahon andozasiga aylangan terminlarni o‘zlashtiramiz.

O‘zbek sayyohligi terminshunosligini, shuningdek, jahon (ya’ni ingliz) turizm terminologiyasini dunyo marralarida o‘zini namoyon etib ulgurgan o‘zbek san’ati, an’analari, oshxonasi hamda sporti asosida vujudga kelgan yangi tushunchalar bilan boyitamiz. O‘zbek sayyohligida asosiy zalvor obidashunoslikda bo‘lganligi vajidan ko‘proq e’tiborimizni arxitektura, qurilish deskriptiv terminologiyasiga yo‘naltirishimiz zarur.

Terminologizatsiya – ko‘p tillarga xos bo‘lgan va umumiy jarayon bo‘lib, umumiy adabiy tilda so‘zning terminga aylanishi. Terminologiyada umumiy adabiy tilning so‘zi ma’lum bir fan konsepsiyasini ifodalash uchun olinadi, shu bilan birga u atamaning o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘ladi (uning ma’nosi torroq, o‘ziga xos, aniq ta’riflanadi, fan tushunchalari tizimiga kiradi), lekin ko‘pchilik mutaxassis bo‘lmaganlarga tushunarli bo‘lib qoladi. Turistik terminologiyaga kelsak, shuni ta’kidlash joizki, turistik atamalarning aksariyati shunga o‘xshash tarzda umumiy adabiy tildan olingan; Turizm sohasidagi ba’zi tushunchalarni bildirish uchun so‘zlarning asl ma’nosi toraygan va ixtisoslashgan. Semantik terminlarning shakllanishi allaqachon mavjud bo‘lgan so‘zlarni qayta ko‘rib chiqishni nazarda tutadi, bu jarayonda oddiy so‘zning semantik tuzilishi salohiyatining oshishi, shuningdek, so‘z boyligining miqdoriy va sifat jihatdan boyishi kuzatiladi.

Yuqorida eslatib o‘tilganidek, nafaqat turizm balki ixtiyoriy boshqa soha terminologiyasini o‘zlashtirishda ham milliy madaniyatimiz sharoitlari, ijtimoiy-pedagogik qarashlarimiz ta’sirida u yoki bu terminga yon bosishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bagirova S. Turizm atamalarining o‘zbek, rus va ispan tillarida qo‘llanilishi // Zamonaviy romangerman tilshunosligi va tillarni o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. − Samarqand, 2018. − 139 b.

2. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – T.: Mumtoz so‘z, 2017. – 144 b.

3. Иванова Н., Масленникова О. Некоторые особенности современной терминологии туристики или к чему еще может/должен быть готов культуролог // Journal Humscience, 2013. – С. 228-234.

4. Мошняга Е.В. Терминосистема международного туризма как лингвокультурное явление / Е.В.Мошняга // Вестник Московского городского педагогического университета. Сер. “Филология. Теория языка. Языковое образование”. – 2009, № 1 (3). – С. 67-73.

5. Medlik S. Dictionary of travel, tourism and hospitality. − Butterworth-Heinemann, third edition, 2003. − P. 30. Ledina Merkaj, PhD Candidate, University/Ismail Qemali,Vlore, Albania, Tourist communication: a specialized discourse with difficulties in translation, European Scientific Journal December 2013 /SPECIAL/ edition vol.2 ISSN: 1857 – 7881 (Print) e - ISSN 1857- 7431.

Dilfuza SHOMALIKOVA,
“G‘uncha” jurnali Bosh muharriri, T.N. Qori Niyoziy nomidagi
O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

O‘QUVCHILARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHDA BOLALAR DAVRIY NASHRLARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada ommaviy axborot vositalari insoniyat hayotining barcha jabhalari bilan uzviy bog‘liqligi, axborot xuruji avj olgan asrda atrofda sodir bo‘layotgan voqealar haqida haqqoniy ma’lumotlarga ega bo‘lish, o‘quvchini shaxs sifatida rivojlantirish va uning ijtimoiy faolligini oshirishda ommaviy axborot fositalaridan foydalanish texnologiyalari, innovatsion usullari, diagnostik tizimi, pedagogika nazariyasi, pedagogik ta’limotlar tarixida ommaviy axborot vositalari asosida yosh avlodni tarbiyalash, o‘quvchi-yoshlar shaxsini shakllantirish masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonida bolalar davriy nashrlaridan keng foydalanish, hamda bolalar davriy nashrlarining didaktik imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ommaviy axborot vositalari, axborot xuruji, o‘quvchi shaxsi, texnologiya, innovatsion usul, diagnostik tizim, bolalar davriy nashrlari, didaktik imkoniyatlar.

В статье подробно описываются взаимосвязь средств массовой информации со всеми аспектами человеческой жизни, иметь достоверную информацию о происходящем вокруг в эпоху информационного кризиса, технологии использования средств массовой информации для развития ученика как личности и повышения его социальной активности, инновационные методы, диагностическая система. В статье также раскрыто широкое использование детских периодических изданий в образовательно-воспитательном процессе, дидактические возможности детских периодических изданий.

Ключевые слова. Средства массовой информации, информационная шумиха, личность ученика, технологии, инновационный метод, диагностическая система, детские периодические издания, дидактические возможности.

The article describes in detail the relationship of the media with all aspects of human life, having reliable information about what is happening around in the era of the information crisis, technologies for using the media to develop the student as an individual and increase his social activity, innovative methods, and a diagnostic system. The article also reveals the widespread use of children’s periodicals in the educational process, the didactic capabilities of children’s periodicals.

Key words. Mass media, information hype, student personality, technology, innovative method, diagnostic system, children’s periodicals, didactic opportunities.

Globallashuv jarayoni shiddat bilan kechayotgan ayni paytda har qanday ommaviy axborot vositasining jahon axborot makonida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, taraqqiy topishi uning oldida turgan eng asosiy vazifa hisoblanadi. Shu bois bugungi dunyoni, uzoq-yaqinda yashayotgan odamlarning hayotini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Binobarin, ommaviy axborot vositalari insoniyat hayotining barcha jabhalari bilan uzviy bog‘lanib ketgan.

Hozirning o‘zidayoq juda ko‘p mamlakatlar o‘z madaniyati, an’analari va ma’naviy qadriyatlarini yot axborot ta’siridan himoya qilish uchun maxsus choralar ko‘rishga majbur bo‘lmoqda. Shu sababli shiddat bilan kechayotgan voqea-hodisalar oqimida

kirib kelayotgan axborotning mazmunini anglash, uni to‘g‘ri talqin etib, xulosalar chiqarish nihoyatda muhim hisoblanadi. Bugun aholi, jumladan, yoshlar kundalik hayoti, ta’lim jarayoni, ish faoliyatida ham turli mazmundagi ma’lumotlarga ommaviy axborot vositalari orqali ega bo‘lmoqdalar. Ular ko‘rayotgan filmlar, ko‘rsatuvlar, tinglayotgan radioeshittirishlar mazmun-mohiyati nuqtayi nazaridan kelib chiqib, ularning ma’naviy olamiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Ommaviy axborot vositalari orqali ta’sir etishning ijobiy va salbiy ko‘rinishlarini hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, inson ma’naviy kamolotida u qabul qilayotgan axborot muhitining roli katta. Demak, bugun yoshlarning nimani ko‘rib, nimani tinglayotgani birinchi navbatda u voyaga yetayotgan oila, shu bilan bir qatorda ta’lim muassasalari e’tiboridan ham chetda qolishi kerak emas.

Albatta, fikr almashish ongni charxlaydi, tafakkurga quvvat beradi. Lekin ba’zi ijtimoiy xavfli axborotning aks ta’siri uning o‘zidan ham xavfliroq manzaralarni hosil qilishi mumkinligini unutmasligimiz lozim.

Bugungi kunda o‘quvchini shaxs sifatida rivojlantirish va uning ijtimoiy faolligini oshirishda ommaviy axborot fositalaridan foydalanish texnologiyalarini, innovatsion usullarini takomillashtirish, o‘quvchi-yoshlar ma’naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirishning diagnostik tizimini takomillashtirish, global axborot maydonida o‘quvchi-yoshlarni turli g‘oyaviy ta’sirlardan himoyalash va axborot xavfsizligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Pedagogika nazariyasi, pedagogik ta’limotlar tarixida ommaviy axborot vositalari asosida yosh avlodni tarbiyalash, o‘quvchi-yoshlar shaxsini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining ta’sirini tahlil qilish masalalarini ilmiy-pedagogik o‘rganish ishlari jadal olib borilmoqda.

Mamlakatimizda yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, shaxs kamoloti yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘quvchi-yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni Vatanga sodiq, fidoyi insonlar etib tarbiyalash uzviylik va uzluksizlikni talab qiladigan dolzarb pedagogik jarayon sifatida “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida muhim o‘rin egallaydi.

Ma’lumki, ommaviy axborot vositalari jamiyatning ma’naviy qadriyatlarini mustahkamlash, mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy-ma’naviy qarashlarni shakllantirish maqsadida axborot tarqatishning eng faol va tizimli shakllaridan biri hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari orqali odamlarning fikrlari va xatti-harakatlariga uyushgan holda ta’sir ko‘rsatiladi.

O‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanishi muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy jamiyat hayotini bosma so‘zsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Gazeta, jurnal, kitob – bu butun dunyo ko‘rinadigan oyna, yordamchi va murabbiy. Jamiyatni qayta qurish, demokratlashtirish, yangicha tafakkurni shakllantirish uchun kurashda matbuot bebaho o‘rin tutadi. Jurnallar, gazetalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar fan va madaniyatning barcha yutuqlarini saqlash va avloddan-avlodga yetkazishning asosiy vositasidir. Barcha yoshdagi kishilar uchun jurnal va gazetalar bilim manbai bo‘lib xizmat qiladi, hayotni o‘rganish va qadrlashga, ijtimoiy munosabatlar va tabiat hodisalari qonuniyatlarini tushunishga yordam beradi. Insonning ijtimoiy va axloqiy ideallarini shakllantirishda, uning ijtimoiy xulq-atvor normalarini o‘zlashtirishida matbuotining o‘rni, ayniqsa, katta.

Ta’lim-tarbiya jarayonida bolalar davriy nashrlaridan keng foydalanish yosh avlodni zamonaviy ijtimoiy talablar darajasida o‘qitish va tarbiyalashni sifat bosqichiga olib chiqish hamda pedagogikada yangicha yo‘nalish ochish imkonini beradi.


Bolalar davriy nashrlaridagi maqolalar, xabarlar, ma'lumotlar va matnlarni uch guruhga bo'lish mumkin: ta'limiy-tarbiyaviy, xabar va yangiliklarga doir va badiiy matnlar. Bu guruhlar bir qator xususiyatlardan kelib chiqib, keskin farqlanadi.

Quyidagi jadvalda bolalar davriy nashrlarining didaktik imkoniyatlari ko'rib chiqilgan:

Bolalar davriy nashrlarining xususiyatlari	**Bolalar davriy nashrlarining ta'lim jarayonidagi funksiyalari**
Kundalik hayotning haqiqiy voqeligi	Ta'lim jarayoning hayot bilan bog'lanishi
	Maqolalardagi, ma'lumotlardagi noaniqliklarni aniqlashni hamda o'z fikrini bildirishni o'rganish
Haqiqiy voqelikni yoritish	Tabiiy fanlar va gumanitar bilimlarni birlashtirish
	Maqolalardagi, ma'lumotlardagi noaniqliklarni aniqlashni hamda o'z fikrini bildirishni o'rganish
Kommunikatsiya, muloqotning tizimliligi	Ma'lumotlar oqimidan foydalanish va tushunib yetishni o'rganish
Kommunikatsiya, muloqotning ko'p qirraliligi	Ma'lumotlar oqimidan zarurlarini aniqlash, yo'nalishlarini belgilab olish, tushunib yetish, nokeraklarini chiqarishni o'rganish
Ma'lumotlarni interpretatsiya qilish imkoniyati	Ma'lumotlar oqimiga o'z pozitsiyasini bildirishni, yashirin yoki yot g'oyalarni aniqlash, dunyoqarashni, muallifning fikrini tushunish, ma'lumot maqsadini aniqlashni o'rganish
Matnlarning noadaptivligi	Maxsus adabiyotlar, lug'atlar va h.k. lardan zaruriy ma'lumotlarni izlashni o'rganish
Matnlarning sayoz strukturasi	Ma'lumotlar oqimidagi asosiy g'oyalarni aniqlashni o'rganish
	Maqolalar, ma'lumotlar, matnlar va h.k. lar strukturasini ishlab chiqishni o'rganish
Maqolalar, ma'lumotlar, matnlar va h.k. larning kontekstlashganligi	Matnlardagi asosiy g'oyalarni aniqlash va belgilab olishni o'rganish
	Tabiiy fanlar va gumanitar bilimlarni birlashtirish
Fanlararolik	Fanlararo bog'liqlikni aniqlashni o'rganish
Multifanlararolik	Nafaqat tabiiy fanlar va gumanitar bilimlarni, balki boshqa yo'nalishlardagi bog'liqlikni o'rganish

Maktab darsliklari faqat bitta ma'lumot qatlamini o'z ichiga oladi, ta'limni, tarbiya esa nazarda tutilmaydi. Matnni turlicha talqin qilish imkoniyati axborot qatlamlari soni va matnning maqsadi bilan bog'liq. Darsliklardagi ma'lumotlar variativ – turlicha tushunishga imkon bermaydi. Biroq, shuni ta'kidlaymizki, darsliklardagi ma'lumotlar faqat bitta o'quv predmeti uchun to'g'ri, chunki bir xil atamalar turli fanlarda turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Matbuot matnlarida o'quvchilar uchun turlicha talqin qilish imkoniyati ochib beriladi, o'quvchilarga keng imkoniyatlarni taqdim etadi.

Darsliklar auditoriyasi faqat ma'lum bir dastur bo'yicha ma'lum fanni o'rganayotgan ta'lim oluvchilar bilan chegaralanadi. Matbuot auditoriyasi esa ta'lim oluvchilarning yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei, ma'lumoti va boshqalardan qat'i nazar, aholining barcha qatlamlarini qamrab oladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudov S.Yu. Ilmiy-pedagogik va o‘quv-metodik nashrlar orqali uzluksiz ta’limda informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashish – pedagogik muammo sifatida // Uzluksiz ta’lim. – T., 2015. – №3. – 68-72 b. (13.00.00 № 9, 2015).

2. Махмудов С.Ю. Концептуальные направления предотвращения информационных угроз в научно-педагогических и учебно-методических изданиях // Butun umr davomida ta’lim: Barqaror rivojlanish manfaatlarida uzluksiz ta’lim. Xalqaro 14-konferensiya. – Rossiya. Sankt-Peterburg. 2016. – 280-288 b.

3. Maxmudov S.Yu. O‘quvchi-yoshlarni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib voyaga yetkazish informatsiyaviy tahdidlar oldini olishning muhim omili // Sog‘lom ayol millat g‘ururi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – T., 2016. – 211-217 b.

4. Maxmudov S.Yu. Shaxs ma’naviyatini yuksaltirish jamiyat rivojining asosiy omili // Oila institutlari va oila qadriyatlarining rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – T., 2016. – 72-73 b.

Dilnoza ELMURODOVA,
‘‘Iqtisodiyot va pedagogika universiteti’’ nodavlat ta’lim muassasasi,
‘‘Pedagogika va o‘qitish metodikasi’’ kafedrasi o‘qituvchisi

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari keng yoritilgan. Shuningdek, tanqidiy fikrlashning turli xil ta’riflari aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari, tahliliy ko‘nikmalar, inson kapitali, zamonaviy avlod, mantiq, argumentatsiya.

В данной статье широко освещаются научно-методические основы развития навыков критического мышления у студентов высших образовательных организаций. Также упоминаются различные определения критического мышления.

Ключевые слова. Навыки критического мышления, аналитические способности, человеческое достоинство, современное поколение, логика, аргументация.

In this article, the scientific and methodological foundations of the development of critical thinking skills among students of higher educational institutions are widely covered. Various definitions of critical thinking are also mentioned.

Key words. Critical thinking skills, analytical skills, human dignity, modern generation, logic, argumentation.

Zamonaviy axborot – ta’lim muhitida ta’lim oluvchida tanqidiy fikrlashni shakllantirish o‘qituvchining kasbiy kompetentligi darajasini belgilaydigan mezonlardan biridir. Axborot jamiyati, raqamli iqtisodning dolzarb muammolarini hal qilishda o‘zgarishlarga tayyorgarlik, maqsadlarga erishishning nostandart usullarini taqdim qilish, mustaqil qarorlar qabul qilish, tahliliy ko‘nikmalar, jamoada samarali faoliyat olib borish, tashabbuskorlik, moslashuvchanlik muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, zamonaviy ta’lim oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli yechimi pedagoglarning kasbiy kompetentligining yuqori darajasi hamda tanqidiy fikrlashiga (critical thinking) uzviy bog‘liq. Yuqori dinamikaga ega jamiyatda axborotni yaratish, tizimlashtirish va baholash yangi bilish usullari va yondashuvlarni ishlab chiqish zaruriyatini vujudga keltirdi. Globallashgan zamonaviy jamiyatda yangi bilimlarni yaratish, ma’lumotlarni qayta baholash, nostandart yechimlar taklif qilish, intensiv usullarni ishlab chiqish, erkin, ijodiy va tanqidiy fikrlash diskursida hayot davomida ta’limning muhim konsepti bo‘lgan tanqidiy tafakkur faollashadi.

Bu orqali zamonaviy avlodning o‘zini o‘zi rivojlantirish (self-development), bajarish orqali o‘rganish (learning by doing) muhiti yaratiladi hamda ikkita eng muhim strategik maqsad – sifatli ta’lim olish imkoniyatini berish va inson kapitalini (human capital – inson va jamiyat manfaatlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikmalar yig‘indisi) mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga erishiladi. Zamonaviy

avlodga ta’rif berilganda alpha-generation, millenniallar (millennials), senteniallar, Z-avlod, homelanders, homeland generation, new silent generation, next-avlod, virtual avlod, millenitlar, exo-bumerlar kabi tushunchalardan foydalanilmoqda. Bunda zamonaviy avlodda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Partnership for 21st Century Skills (XXI asr ko‘nikmalari yo‘lida hamkorlik tashkiloti) tomonidan raqamli jamiyatda samarali faoliyat olib borish, ijtimoiy va kasbiy hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun talab qilinadigan mahorat va kompetensiyalar (Four Cs) quyidagilarni o‘z ichiga oladi: collaboration (hamkorlik), communication (muloqot), critical thinking (tanqidiy tafakkur), creativity (ijodkorlik). Quyida critical thinking (tanqidiy tafakkur) ko‘nikmasining mazmun mohiyatini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Partnership for 21st Century Skills tomonidan olib borilgan tadqiqotlar doirasida ishlab chiqilgan kompetensiyalar tizimida Critical thinking yetakchi o‘rinni egallagan. Critical thinking – bu tanqidiy nuqtayi nazardan narsa va hodisalarni tahlil qilish uchun asosli xulosalar ishlab chiqish, vaziyatni oqilona baholash, izohlash, olingan natijalarni vaziyatlar va muammolarga to‘g‘ri qo‘llash imkonini beradigan ko‘nikmalar tizimi. Tanqidiy fikrlash – bu narsa va ma’lumotlarni tahlil qilish, hodisalarni sharhlash, hodisalarni baholash va obyektiv xulosalar chiqarish uchun ishlatiladigan mulohazalar tizimi.

Tanqidiy fikrlash — fikrlashning alohida turi bo‘lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Tanqidiy fikrlash bu — o‘z-o‘zini boshqaradigan, o‘zini o‘zi tarbiyalaydigan, o‘zini o‘zi nazorat qiladigan va o‘zini o‘zi to‘g‘irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat’iy me’yorlariga rioya qilish va qo‘llashdir.

An’anaga ko‘ra, tanqidiy fikrlashning turli xil ta’riflari mavjud:

– muayyan qaror yoki xulosaga kelish uchun axborotni faol, mohirona shakllantirish, qo‘llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash jarayoni;

– aniq, oqilona, ochiq va asosli fikrlash;

– maqsadli, o‘z-o‘zini tartibga soluvchi xulosa, sharhlash, tahlil qilish, baholash va xulosa qilish, shuningdek, ushbu xulosaga asos bo‘lgan dalillar, konseptual, uslubiy, mezon yoki kontekstual tushunchalarni tushuntirish;

– tartibga solish va aniqlashtirish, samaradorlikni oshirish, fikrlashdagi xatolarni tan olish kabilar orqali o‘z fikrlashini shakllantirish;

– ehtiyotkorlik bilan tahliliy aniqlashga asoslangan baholash.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, tanqidiy fikrlash — bu fikr yuritishni, ularning e’tiqodlari va harakatlarini boshqaradigan qarorlar qabul qilishga e’tibor berishni talab qiladigan fikrlash usuli. Tanqidiy fikrlash mantiqiy xulosalar chiqarishga, murakkab ma’lumotlarni qayta ishlashga, turli tomonlardan qarashga o‘rgatadi, shu sababli insonlar ishonchliroq xulosalar chiqarishi mumkin. Tanqidiy fikrlash bir necha yo‘llar bilan belgilanishi mumkin bo‘lsa-da, uning asosiy tarkibiy qismi — natijaga erishish, bunga oqilona fikrlash va natijaga asoslangan yondashuv orqali erishish mumkin. Tanqidiy fikrlash, birinchi navbatda, muammolarni hal qilish, hisoblash va ehtimollardan samarali foydalanish kabi o‘rganish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Bu fikrlash jarayonida ishtirok etish tendensiyasini ham o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy tanqidiy fikrlash bo‘yicha izlanish olib borgan olimlar ushbu an’anaviy ta’riflarni sifat, tushuncha va jarayonga kengaytirishga harakat qilishdi, jumladan,

ijodkorlik, tasavvur, izlanish, hayajon, empatiya, bilimlarni bog‘lash, subyektivlik, noaniqlik. Tanqidiy fikrlashning ba’zi ta’riflari bu subyektiv tajribalarni istisno qiladi. Rivojlangan tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxs kuzatish va o‘z nuqtayi nazarini asoslash, ma’lumotni o‘rganishga e’tibor berish va turli vaziyatlarda tahliliy ko‘nikmalarni qo‘llash qobiliyati hisoblanadi.

Tanqidiy fikrga ega bo‘lgan shaxs:

– turli g‘oyalar va tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy va sabab-oqibat munosabatlarini tushunadi;

– boshqalarning mulohazalarini tezda tahlil qiladi va ularga baho beradi;

– o‘z dalillarini to‘g‘ri tuzadi va boshqalarga yetkazadi;

– mantiq va argumentatsiya (lot. argumentation – dalil-isbotlar keltirish degan ma’noni anglatib, ishontirishning ratsional usuli, muayyan tezisni himoya qilib, batafsil asoslash va dalillar keltirishga tayangan usul u ishontirishning eng kuchli usuli bo‘lib, haqiqiy dalillar sifatida deduktiv xulosa;

– aksariyat hollarda haqiqatga yaqin mulohazalar argument (dalil) bo‘lib xizmat qiladi)dagi nomuvofiqliklar va oddiy xatolarga e’tibor beradi;

– fikrlarning ahamiyati va umumiy kontekstga mosligini qayd etadi;

– o‘z qarashlari va e’tiqodlarini aks ettiruvchi tarzda baholaydi.

Tadqiqot muammosiga doir ilmiy manbalar tahlili tanqidiy fikrlashning yettita tanqidiy xususiyati mavjudligini ko‘rsatdi: izlanuvchan va ishtiyoqli, ochiq, tizimli fikrlashga qodir, analitik, qat’iyatli, tanqidiy fikrlashda ishonchli va yetuk.

Xulosa qilib aytganda, o‘qitishning zamonaviy usul va vositalarini, ta’lim jarayonini tashkil qilishning yangi shakllarini amaliyotga joriy qilish, shuningdek, o‘quvchilarning zamonaviy talablarga asoslangan zaruriy ko‘nikmalarini shakllantirish nihoyatda muhimligidan kelib chiqib, bugungi globallashuv davrida ta’lim-tarbiyaning sifat va samaradorligi uchun mas’ul bo‘lgan o‘qituvchilarning innovatsion faoliyat yuritishlari muhim hisoblanadi. Zero, jahon sivilizatsiyasi davri hozirgi avlodni mumtoz pedagogik nazariyalar bilan emas, balki yangilangan o‘quv-tarbiya tizimi asosida tarbiyalashni nazarda tutadi. Shunga muvofiq, o‘qituvchilar kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlarni egallashi, o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish asosida ularning o‘quv-biluv faoliyatini takomillashtirishi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishi hamda ta’limiy muhitni shakllantirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022−2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni.

2. Akramova G.R. O‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirish: ped.fanl.dokt.diss. …avtoreferati. – T., 2023. – 65 b.

3. Edward M. Glaser. ‘‘Defining Critical Thinking’’. The International Center for the Assessment of Higher Order Thinking (ICAT, US)/Critical Thinking Community. 22-mart 2017.

4. Elektron resurs: http://www.21stcenturyskills.org.

Ikrom TOSHMANOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

BIOLOGIYA FANIDAN LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARI DASTURIY TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH (7-sinf biologiya fani misolida)

Annotatsiya

Maqolada o‘quv jarayonining muvaffaqiyati, uning asosiy tamoyillari, ya’ni ilmiylik, o‘rganishning izchilligi va tizimliligi, ko‘zga ko‘rinuvchanligi, bilim olishdagi ongliligi va faolligi, o‘quvchilarning mustaqilligi kabilarga bog‘liqligi qayd etiladi. Bundan tashqari bilimlarni ongli va faol o‘zlashtirishda nafaqat o‘rganilayotgan materialning mazmuniga, balki o‘quv jarayonining o‘ziga ham qiziqish alohida rol o‘ynashi mulohaza qilinadi.

Kalit so‘zlar. Raqamli ta’lim, laboratoriya, o‘quvchi, mulohaza, effect, jarayon, ilmiylik, organik moddalarning hosil bo‘lishi, zamonaviy texnologiyalar, kompyuter dasturlari bilan ishlash tajribasiga ega bo‘lish.

В статье отмечается, что успешность образовательного процесса зависит от его основных принципов, а именно: научности, последовательности и систематичности обучения, наглядности, осознанности и активности в получении знаний, самостоятельности учащихся. Кроме того, предполагается, что особую роль в сознательном и активном усвоении знаний играет интерес не только к содержанию изучаемого материала, но и к самому процессу обучения.

Ключевые слова. Цифровое образование, лаборатория, студент, рефлексия, эффект, процесс, научность, образование органических веществ, наличие опыта работы с современными технологиями, компьютерными программами.

The article notes that the success of the educational process depends on its basic principles, namely: scientific, consistent and systematic learning, visibility, awareness and activity in obtaining knowledge, independence of students. In addition, it is assumed that a special role in the conscious and active assimilation of knowledge is played by interest not only in the content of the material being studied, but also in the learning process itself.

Key words. Digital education, laboratory, student, reflection, effect, process, scientific knowledge, the formation of organic substances, the experience of working with modern technologies, computer programs.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi xalqimiz uchun juda katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan voqiylikdir. Mustaqillik deganda davlatning o‘zi tarixiy va madaniy an’analariga suyangan holda rivojlanishning aniq sharoitlaridan kelib chiqib, o‘zining yaqin kelajagini rivojlantirish yo‘llarini belgilaydi. Ana shunday yo‘llardan biri ta’lim sohasining barcha jabhalarida islohotlar o‘tkazishdan iborat. Bu islohotlar ta’lim to‘g‘risidagi qonunda o‘z ifodasini topgan. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida barcha sohalarda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning 2017 – 2021-yillarga mo‘ljallangan beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha qabul qilingan “Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi – ijtimoiy sohani rivojlantirishga bag‘ishlangan’’. Huddi shu yo‘nalishning to‘rtinchi bandida ta’lim va ilm-fanga alohida e’tibor berilgan bo‘lib, ta’lim tizimida jahon andozalariga mos ta’lim shakllarini tashkil etish, bilim berishning ustuvor metodlaridan foydalanishni yanada takomillashtirishga qaratilgan.

Mustaqil ish jarayonida, eksperiment o‘tkazishda ong va faollik rivojlanadi. Biologiya bo‘yicha raqamli laboratoriya muvaffaqiyatli o‘rganish tamoyillarini amalga oshirish imkonini beradi. Raqamli laboratoriyalar – bu fan darslarida ko‘rgazmali va laboratoriya tajribalarini o‘tkazish uchun asbob-uskunalar va dasturiy ta’minot. Bular tabiiy fanlar bo‘yicha eksperimentlardan ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish uchun uskunalar va dasturiy ta’minot to‘plamidir. Ular frontal yoki ko‘rgazmali eksperimentni tayyorlash va o‘tkazishga ketadigan vaqtni qisqartirish, eksperimentning ravshanligini oshirish va uning natijalarini vizualizatsiya qilish, tajribalar ro‘yxatini kengaytirish, dalada o‘lchovlarni amalga oshirish va allaqachon tanish bo‘lgan tajribalarni modernizatsiya qilish imkoniyatini beradi. Zamonaviy jihozlar yordamida maktab dasturiga kiritilgan ishlarni ham, mutlaqo yangi tadqiqotlarni ham amalga oshirish mumkin. 7-sinf biologiya darslarida raqamli laboratoriyalardan foydalangan holda o‘quvchilar bir qator laboratoriya ishlarini (jadval) bajarishlari mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, biologiya laboratoriyasi yordamida biologiya darslarida ko‘plab ko‘rgazmali tajribalar o‘tkazish mumkin. Masalan: o‘pkada gaz almashinuvi, nafas olish testlari; suv muhitida bosimning o‘zgarishi; yurak-qon tomir tizimining dozalangan yukga javobi; venoz klapanlarning funksiyasi.

O‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, raqamli laboratoriyalardan foydalanish fanga qiziqishni sezilarli darajada oshirishga yordam beradi va o‘quvchilarga nafaqat tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarni, balki qiziqarli va zamonaviy texnologiyalar, kompyuter dasturlari bilan ishlash tajribasiga ega bo‘lish bilan birga mustaqil ishlash imkonini beradi. Talabalar ma’lum bir dars mavzusi bilan cheklanmagan tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanish va ma’lumotlarni o‘zlari tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Keng kommunikatsiya imkoniyatlari tufayli to‘liq tarmoqqa, internetga ulanishga, Bluetooth aloqasiga ega zamonaviy laboratoriya qurilmoqda.

Bargda organik moddalarning hosil bo‘lishi laboratoriyaning nazariy qismi (bargda organik moddalarning hosil bo‘lishini tajribada o‘rganish).

O‘simlikda barg og‘izchalari orqali havodan o‘zlashtirilgan karbonat angidrid gazi barg eti hujayralaridagi xlorofill donachalari ishtirokida va yorug‘lik ta’sirida organik moddalar hosil bo‘ldi. Bu jarayonda xlorofill donachalarida karbonat angidrid suv bilan birikdi. Natijada, dastlab shakar, so‘ngra kraxmal hosil bo‘ldi. Karbonat angidrid suv bilan birikkanda, shakardan tashqari erkin kislorod gazi ajralib, og‘izchalar orqali havoga chiqdi. Fotosintez jarayonida o‘simlikning ba’zi organlarida oqsil va yog‘lar ham hosil bo‘ldi. O‘simlik hujayralari shu organik moddalardan oziqlandi. Ortiqcha organik moddalar urug‘, meva, ildiz va boshqa organlarning to‘qimalarida to‘plandi va boshqa barcha tirik organizmlar uchun oziq manbayi bo‘lib xizmat qildi.


Kerakli material va jihozlar: tuvakda o‘sayotgan o‘simlik, spirt lampasi, stakan, suv, probirka, qaychi, qora qog‘oz, spirt, yod, tomizgich, petri likopchasi


Ishni bajarish tartibi:

1. Yorongulni 2-3 kun qorong‘i joy (shkaf)da saqlang.
2. Qora qog‘ozga shakl yoki harf chizib, kesib olish.
3. Yorongul bargini qora qog‘oz bilan yoping va qistirgich bilan mahkamlang. O‘simlikni yorug‘ joyga qo‘yish.
4. Ikki kundan so‘ng bargni kesib oling, qora qog‘ozni olib tashlang.
5. Bargni dastlab issiq suvga, keyin spirtga solish.
6. Spirtli idishni suv hammomiga qo‘yish (qaynoq spirtda barg rangsizlandi, spirt yashil rangga kirdi).
7. Rangsizlangan bargni suvga chayib olish.
8. Petri idishdagi yod eritmasiga rangsizlangan bargni solish.
9. Bargning qora qog‘oz yopilgan qismi sarg‘ish, qora qog‘oz yopilmagan qismi esa ko‘k rangga kirganini kuzating.


Natija: Bargning qog‘oz bilan yopilgan qismi oqish, qog‘oz yopilmagan qismi esa ko‘k rangga kirdi.

1-topshiriq: Savollarga to‘g‘ri javoblarni toping.





2-topshiriq: Laboratoriya jarayonining ketma-ketligini aniqlang.



Darslarda talabalar uchun ko‘p bosqichli ishlarni tashkil etish, o‘quv jarayonini individuallashtirish, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish samaradorligini oshirish mumkin bo‘ladi. Masalan, o‘simliklarni o‘stirish uchun raqamli biologik laboratoriya o‘simliklarning o‘sishining butun jarayonini aniq ko‘rsatishga imkon beradi, atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarni kengaytiradi va butun hayotning vizual tavsifi bilan turli tajribalar o‘tkazish imkoniyatini ochadi. Raqamli biolaboratoriyalar umumiy ta’limning Federal davlat ta’lim standartlarining “Asosiy umumiy ta’limning asosiy ta’lim dasturini amalga oshirish uchun moddiy-texnik shartlar” qismidagi talablariga qat’iy rioya qiladi. Bunday

o‘quv va ilmiy-tadqiqot majmualari o‘quv jarayonida biologik laboratoriyadan foydalanish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma, ishlab chiqaruvchining ko‘rsatmalari, asboblar to‘plami, ixtisoslashtirilgan gadjetlar (simsiz videokamera, raqamli yorug‘lik, harorat, elektr o‘tkazuvchanlik sensorlari) o‘z ichiga oladi.

Guruch. 1. O‘simliklar yetishtirish uchun raqamli biologik laboratoriya, ANRO EXPERT o‘quv-ilmiy-tadqiqot majmuasi Innovatsion uskunalar eng qimmat uskunalardan biri bo‘lib, bunday majmualarni hamma ta’lim muassasalari ham sotib olishga qodir emas. Ushbu muammoni tahlil qilib, veb-texnologiyalardan foydalangan holda elektron formatda bunday biologik laboratoriya loyihasini yaratishni taklif qilamiz. Elektron raqamli biolaboratoriya platforma va loyiha rejasi asosida quriladi. Yaratish platformasining asosi veb-sayt dizaynerlari – Tilda Publishing, LPgenerator, WIX, uKit, uCoz, Nethouse, 1C-UMI va Setup tavsiya etiladi. Har qanday interfeysdan foydalanish bir qator afzalliklarga va funksionallikka ega. Bepul veb-texnologiyalar to‘plamidan foydalanish turli xil moslashtirilgan shablonlarni, modullarni, kanvaslarni ochib beradi, shuningdek, sahifalarni boshqa loyihalar bilan birlashtiradi. Raqamli biolaboratoriyani yaratish loyihamizda biz asosiy vazifani maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanish uchun asosiy maktabning maktab biologiya kursi bo‘limlarini tizimlashtirishda ko‘ramiz. Veb-kvest, klaster, yorgan va keshlash ko‘rinishidagi veb va aqlli texnologiyalar 5-9-sinflarda biologiyaning har bir bo‘limiga qo‘llaniladi. Ushbu texnologiyalardan foydalangan holda kompleks bo‘limlarini ishlab chiqish nafaqat maktab kursini o‘rganishga, balki biologiyaning aniq mavzulari (bo‘limlari) bo‘yicha talabalarning chuqur bilimlarini shakllantirishga yordam berishi kerak. Ushbu muammoning holatini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, hozirgi vaqtda elektron biolaboratoriyalar faqat tabiiy fanlar siklining ayrim fanlari bo‘yicha yaratilgan. Masalan, fizikani o‘rganishda bunday laboratoriyalar keng tarqalgan. R.E.E.L elektron teskari muhandislik laboratoriyasi mavjud bo‘lib, u Windows, Mac platformasi, iOS, Android-da boshqotirmalardan iborat labirint hisoblanadi. Elektron biologiya laboratoriyalari juda kam uchraydi. Bu o‘quv va ilmiy-tadqiqot majmuasini yaratishda veb-texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligini belgilaydi.

Quyida raqamli ta’lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg‘ulotlari dasturiy ta’minotini takomillashtirishda raqamli laboratoriya namunasi taqdim etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ofurov A., Tolipova J. va boshqalar. Biologiyani o‘qitishning umumiy metodikasi (o‘quv-metodik qo‘llanma). – T., 2005. – 152 b.

2. Babanskiy Yu.B. Hozirgi zamon umumta’lim maktablarida o‘qitish metodlari. – T.: O‘qituvchi, 1990. –158 b.

3. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: ‘‘Sharq’’ nashriyoti. 1997.

4. Богданов О.П. Редкие животние Узбекистана. – Т.: ‘‘Комус’’, 1992.

5. Болшая энциклопедия животних. – М.: ‘‘Олма-пресс‘‘, 2000.

6. Бровкина Е.Т.,Казмина Н.И. Уроки биологии, – М.: “Просвещение”, 1987.

7. Селевко Г.К. Современние образовательние технологии. Учебное пособие. – М.: Народное образование, 1998.

8. Dubovskiy P.K., Ummatov F. Biologiyadan o‘quv qo‘llanma. 1, 2-qismlar. – T., 1991, 1994.

9. Инновация в мировой педагогике. Новости интернета. №21. – Т., 2003.

10. Ishmuxamedov P., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy qo‘llanma). – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi. – 182 b.

11. Yo‘ldoshev J.G. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2004. – 100 b.

Og‘abek OCHILOV,
Qarshi davlat unuversiteti mustaqil tadqiqotchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI LOYIHALASHTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini loyihalashtirishning ilmiy-metodik asoslari keng bayon etilgan. Shuningdek, o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishga doir omillar, tamoyillar va vazifalar umumlashtirilgan.

Kalit so‘zlar. Ijodiy faoliyat, loyihalashtirish, ijodiy munosabat, ijodiy qobiliyat, ijodkorlik, ijodiy yondashish, ijodiy funksiya.

В данной статье подробно описаны научно-методические основы проектирования творческой деятельности учащихся младших классов. Также обобщены факторы, принципы и задачи, связанные с профессиональным развитием учителей.

Ключевые слова. Творческая деятельность, дизайн, творческое отношение, творческие способности, креативность, творческий подход, творческая функция.

In this article, the scientific-methodical basis of designing the creative activity of elementary school students is described in detail. Also, factors, principles and tasks related to professional development of teachers are summarized.

Key words. Creative activity, design, creative attitude, creative ability, creativity, creative approach, creative function.

Zamonaviy maktab o‘quvchisini ijodiy faoliyatga tayyorlash muammolarini hal qilish har qanday vazifani mazmunli, sifatli, ijodiy munosabat bilan uyg‘unlashtirgan holda barqaror ishlash odatini tarbiyalashni o‘z ichiga oladi, bu esa o‘z navbatida shaxsda umumiy mehnat va ijodiy qobiliyatlarning uyg‘unligini tashkil qiladi. Ilmiy adabiyotlarda “kreativ” tushunchasi “ijodkorlik” tushunchasi bilan uzviy bog‘liq holda qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Ikkala tushuncha ham “kreativ” atamasining kelib chiqishiga asoslanadi (lot. creatio – yaratish, ingliz tilida creativity – ijodiy salohiyat, kreativlik).

A.G. Maslouning nuqtayi nazariga ko‘ra ijodkorlik – bu inson tabiatining asosiy xususiyati, har bir shaxsga tug‘ilishdan boshlab berilgan potensial, shuningdek, dunyoni idrok etish yoki voqelik bilan munosabatda bo‘lishning o‘ziga xos usuli sifatida belgilanadi. Ko‘rinadiki, ijodkorlik – atrofdagi obyektlar va hodisalarni yangi, g‘ayrioddiy nuqtayi nazardan ko‘rish va idrok etish qobiliyati yoki mahorati sifatida belgilanadi.

G. Altshullerning ta’kidlashicha, ijodkorlik – mavjud tajribani qayta tashkil etish va bilimlarning yangi birikmalarini shakllantirish asosida yangi narsalarni keltirib chiqaradigan faoliyatdir.

I. Lerner tadqiqotlarida ijodkorlikni uchta yo‘nalishga rioya qilish orqali o‘rgatish mumkinligini asosladi: intellektual operatsiyalarni o‘rgatish; ijodiy faoliyatni o‘qitish tartiblari; ijodiy qadriyat munosabatini shakllantirish.

A.Dunayev ilmiy izlanishlari natijasida o‘qituvchi ijodining asosiy mezoni – o‘quvchi shaxsini shakllantirishda ijobiy dinamikani ta’minlash va o‘qituvchi faoliyati samaradorligini oshirishdan iborat ekanligini asosladi.

A. Buldaning ta’kidicha, ijodkorlik – eng yuqori darajadagi insonning yagona qobiliyati hisoblanadi.

Tadqiqotchilar ijodkorlikning quyidagi asosiy jihatlarini ko‘rib chiqadilar: faoliyat sifatida; resurs sifatida; ijodiy qobiliyat sifatida; sharoit sifatida (ijodkorlik mahsuliga bo‘lgan talablarni tashkil etuvchi soha, tuzilma, ijtimoiy kontekst); muammo sifatida. Tadqiqot doirasida amalga oshirgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijodkorlik – yangi narsalarni yaratish bilan bog‘liq (shaxs va jamiyat uchun) kompetentlik hisoblanadi.

Ko‘rinadiki, ta’lim-tarbiya jarayonidagi ijodkorlik kasbiy rivojlanish davridagi innovatsion faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, bu ta’lim jarayonidagi islohotlar, ta’limni tizimli yangilashning asosiy sharti hisoblanadi. Kreativ fikrlash – bu innovatsion (yangi, novator, original, nostandart, noodatiy va hokazo…) va samarali (amaliy, natijaviy, tejamli, optimal va hokazo) yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta’sirchan ifodalashga qaratilgan g‘oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir.

Kreativ fikrlash bizga muammolarni hal qilishda noodatiy yechim topishga yordam beradi. Kreativ fikrlashni baholashda turli g‘oyalarni ishlab chiqish, kreativ g‘oyalarni ishlab chiqish hamda g‘oyalarni baholash va takomillashtirish kompetentligiga e’tibor qaratiladi.

O‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish, darslarni yangi texnologiya va metodlar orqali o‘tish o‘quvchida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bilan birga ulardagi ijodiylik, yaratuvchanlik qobiliyatini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Kreativlik – shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo‘l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi. Kreativlik tushunchasi (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma’nosini anglatadi. Yangi, original (o‘ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma’naviy bog‘liqliklarni yaratishdir. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o‘ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug‘atlariga asoslanib o‘quvchining kreativligiga uning fikridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta’rif berish mumkin. Uning zamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash bir narsaga turli tomondan yondashishni anglatadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, ijodkorlik ko‘nikmasi quyidagilarni umumlashtiradi:

– qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko‘proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o‘rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o‘z savollariga javob topish qobiliyati;

– tasavvur – ko‘plab original va nostandart g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

– optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta

– usullarni solishtirish qobiliyati;

– g‘oyalarni rivojlantirish – g‘oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o‘zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma’lumotlarning paydo bo‘lishida o‘z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

Kreativ tafakkur barcha faoliyat turlariga tegishli. Bundan lingvistik kreativlik ham mavjud bo‘lib, bu tilning turli sath birliklaridan foydlangan holda obrazli fikrlash, ma’lum tafakkur mahsuli bo‘lmish tushuncha yarata olish imkoniyatidir. Tilda tushunchani turli shaklda ifodalash imkoniyati mavjud.

Bunda o‘quvchi qaysi usulni va talabni tanlashi, qanday yo‘l bilan ifodalashi, albatta, unda kreativ kompetensiyaga qanchalik egaligiga ko‘ra belgilanadi. Tomas

Edisonning ta'kidlashicha, "kreativlik – g'ayriixtiyoriy jarayon" hisoblanadi. Kreativlik shaxs ega bo'lgan bilimning ko'pqirrali ekanida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, hayotiy muammolarni yechishda noodatiy yondasha olish, kutilmagan qarorlar chiqara olishda namoyon bo'ladi.

Kreativ fikrlovchi insonlar biron bir manzarani o'zgacharoq tasavvur etadi, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqay oladi. Mana shunday kreativ tafakkurni rivojlantirish tashkil etilgan darsning qaysi metod va usullardan foydalanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchidan o'z fani yuzasidan chuqur bilimga ega bo'lish bilan birga, ta'limdagi samarali metod va usullardan ham xabardorlikni talab etadi. Chunki kelajakdagi yangi innovatsiyalar va ixtirolarning barchasi aynan kreativ kompetensiya orqali vujudga keladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi: Ijodiy faoliyat – bu sifat jihatidan yangi ijtimoiy qadriyatlarni yaratishga qaratilgan inson faoliyatining shakli. Ijodiy faoliyati uchun zaruriy harakatlar (har xil yechimlar qobiliyati), tanqidiylik (samarasiz strategiyalarni tark etish qobiliyati), bu tushunish va "chegara"ni bekor qilish qobiliyati, idrok va boshqa narsalar yaxlitligi.

Ijodiy funksiyaning asosiy o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

– nisbatan mustaqillik, har bir ijodiy funksiya, pedagogik faoliyat muayyan vazifasining yechimini ta'minlab, ba'zi prinsiplarning mustaqil tizimi bilan aniqlanadi;

– pedagogik jarayon doirasida boshqa ijodiy funksiyalar bilan bevosita aloqadorlik, hech bir funksiya butun pedagogik jarayonga sababsiz olib tashlanmaydi;

– tashkiliy bo'linish imkoniyati, muayyan sharoitlarda u yoki bu ijodiy funksiyani bajarish alohida xodimga topshirilishi mumkin, ammo uning faoliyati boshqa vazifalarni amalga oshiruvchi xodimlardan uzilishda amalga oshirilishi mumkin emas.

Ayni paytda, maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini samarali rivojlantirish uchun evristik usullardan foydalanish ijodkorlikning algoritmik usullaridan foydalanish bilan birlashtirilishi kerak. Adabiyotni tahlil qilish asosida ijodiy vazifalarga qo'yiladigan quyidagi talablarni ajratish mumkin: ochiqlik (muammoli vaziyat yoki ziddiyatning mazmuni); shartning tanlangan ijod usullariga muvofiqligi; turli xil yechimlarni topish imkoniyati; hozirgi rivojlanish darajasini hisobga olgan holda; talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

Mutaxassislar tomonidan ijodiy vazifalar tizimi uchun tarkibni tanlashda ikkita omil hisobga olinishi qayd etilganligini kuzatish mumkin:

– kichik maktab o'quvchilarining ijodiy faoliyati asosan jamiyat tomonidan hal qilingan muammolar bo'yicha amalga oshiriladi;

– boshlang'ich maktab predmetlari mazmunining ijodiy imkoniyatlari.

Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishning eng muhim pedagogik shartlari quyidagilardir:

– faoliyatning mohiyatini o'zgartirish;

– bolalarning ta'lim faoliyatida xayrixohlik muhiti;

– jamoaning shakllanishi.

Amalda, tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, o'zaro ta'sir strategiyasini tanlashda odatda ikkita usul qo'llaniladi:

– tashqi tomondan rivojlanish, shaxsning ichki dunyosiga aralashish sifatida, unga ishlab chiqilgan usullar, faoliyat normalari va xatti-harakatlarini yuklash;

– faollik, mustaqillik, mas’uliyatni rag‘batlantirish, shaxsga hurmat ko‘rsatish, unga xos bo‘lgan imkoniyatlarni ochib berish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish kabi ichki tomondan rivojlanish.

Ijodkor kishiga xos bo‘lgan bu xususiyatlar faqat demokratik muloqot uslubi tufayli shakllanadi. Bunday holda, o‘qituvchi insonning individual xususiyatlarini, uning tajribasini, ehtiyojlari va imkoniyatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi, shuningdek, u baholashda obyektiv, bolalar bilan aloqada ko‘p qirrali va tashabbuskor bo‘lishi kerak. Ijodiy izlanishga bo‘lgan ishtiyoq nafaqat kommunikativ faoliyat natijasidir, balki umuman ko‘proq darajada pedagogik faoliyatga bo‘lgan munosabat natijasidir. Ko‘pgina o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, maktab o‘quvchilarining badiiy va ijodiy faoliyatini tashkil qilishning eng muhim sharti – bu nafaqat qiziqishni, nostandart yechimlarga bo‘lgan talabni ahamiyatsiz fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan emas, balki yangi va g‘ayrioddiy narsalarni idrok etishga tayyorlikni rivojlantirish, ulardan foydalanish va amalga oshirish istagi bilan yaratilgan ijodiy muhitni yaratishdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘rinadiki, ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish va ta’limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi, shu bilan birga, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Zero, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olish, ta’limni samarali tashkil etishda darslarni noan’anaviy tarzda o‘tkazish, darslarda ijodiy faoliyatni tashkil eishga doir intensiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni.

2. Altshuller G.S. Scientific and methodological foundations of developing students’ critical thinking skills in higher education organizations / G.S. Altshuller, N.M. Vertni. – Minsk: Belarusiya, 1994. – 479 p.

3. Dunayeva A.N. Pedagogik ijodning mohiyati va tuzilishi // Fan va ta’lim: Ukraina APS Janubiy ilmiy markazining ilmiy-amaliy jurnali. – 2005 yil. – № 3-4. – 81-83 b.

4. Лернер Р.С. “Технология” в дополнителном образовании. Електронный ресурс: http://www.bim-bad.ru/biblioteka/article_full.php?aid=1303&binn_rubrik_pl_articles=183.

5. Maslou A.G. Motivatsiya va shaxsiyat. – Sankt-Peterburg, 1999, – 78 b.

6. Elektron resurs: http://www.21stcenturyskills.org

7. Elektorn resurs: https://fanvatalim.uz/uz/article/47/

Dilafruz AKBAROVA,
Andijon viloyati, Ulug‘nor tumani, 20-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

TO‘GARAK VA SINFDAN TASHQARI ISHLARDA O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILYATINI O‘STIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada har bir sohada yetuk mutaxassislarni yetishtirishda avvalo, ularning maktab davridan ko‘nikma-qobiliyatlarini shakllantirish, ayniqsa, o‘quvchi bolalik davrida ijodkorlik xususiyatlarining pedagogik-psixologik omillari haqida fikr-mulohazalar yurutilgan.

Kalit so‘zlar. Pedagogika-psixologiya, metodika, innovatsiya, ijodkorlik, ta’lim oluvchi, ta’lim beruvchi, qobiliyat.

В данной статье даны размышления о воспитании зрелых специалистов в каждой области, прежде всего, о формировании у них навыков и умений со школьного возраста, особенно о педагогико-психологических факторах особенностей творчества школьника в детстве.

Ключевые слова. Педагогика-психология, методика, новаторство, творчество, воспитатель, воспитатель, одаренность.

In the development of mature specialists in each field, the first part of this article is the formation of their skills and abilities from the school period, especially in the period of study, thinking about the pedagogical and psychological factors of the features of creativity.

Key words. Pedagogy-psychology, methodology, innovation, creativity, educator, educator, ability.

Zamonaviy psixologiya har qanday qobiliyat faqat faoliyat jarayonida rivojlanib borishini isbotladi. Tabiatan bolaning moyilligi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, uning ijodiy qobiliyatlari faqat mehnat jarayonida rivojlanishi mumkin, chunki mehnat jarayonida diqqatni tortish, ba’zi to‘siqlarni yengib o‘tish, muayyan operatsiyalar ketma-ketligini yodlash kerak. Bularning barchasi o‘quvchining irodasini rivojlantiradi, diqqatini, xotirasini mustahkamlaydi. O‘qituvchi uchun o‘quvchilarda bilimga, ijodkorlikka qiziqishni rivojlantirish juda muhimdir. Ijodiy odam, qoida tariqasida, hamma narsada – oddiy muloqotdan tortib, professional faoliyatgacha muvaffaqiyat qozonadi. Ijodkorlik insonga murakkab muammolarning original yechimlarini topishga yordam beradi. Shuning uchun ham o‘quvchilarni ijodga bo‘lgan qiziqishlarini rag‘batlantirish zarur, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish, Amerikalik psixolog Frommning aytishicha, ijodkorlik – bu hayratga tushish va o‘rganish qobiliyati, nostandart vaziyatlarda yechim topa olish qobiliyati, bu yangi narsalarni kashf etishga e’tibor berish va o‘z tajribasini chuqur anglash qobiliyatidir. Ijodkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari fikrning ravonligi va moslashuvchanligi, o‘ziga xoslik, qiziquvchanlik, aniqlik va jasoratdir, fikrlashning ravonligi – vaqt birligida yuzaga keladigan g‘oyalar soni.

Fikrlashning moslashuvchanligi – tez va ichki kuchsiz bir fikrdan ikkinchisiga o‘tish qobiliyati.

Originallik – umumiy qabul qilingan, paradoksal, kutilmagan yechimlardan farq qiladigan g’oyalarni yaratish qobiliyati.

Qiziqish – hayratda qolish qobiliyati, qiziquvchanlik va hamma yangi narsaga ochiqlik.

Aniqlik – ijodiy mahsulotingizni yaxshilash yoki tugatish qobiliyati.

Jasorat – noaniq vaziyatda qaror qabul qilish, o‘z xulosalaridan qo‘rqmaslik va ularni oxirigacha etkazish qobiliyati. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga ta’sir qiluvchi shart-sharoitlar.

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari namoyon bo‘lishiga ma’lum to‘siqlar to‘sqinlik qiladi. Ular ichki va tashqi bo‘linishi mumkin. Ichki to‘siqlarga quyidagilar kiradi:

– stereotiplar;

– tasdiqlashga juda ko‘p e’tibor berish;

– o‘ziga past baho berish;

– o‘z-o‘zini tartibga solishning yetarli darajada emasligi.

O‘quvchilarning ijodiy bo‘lishiga to‘sqinlik qiladigan tashqi to‘siqlarga quyidagilar kiradi:

– tanqid;

– stress;

– vaqt yetishmasligi.

Ushbu to‘siqlarni yengib o‘tish uchun o‘quvchilarga tashqi baholash va tanqidiy mulohazalar tahdidini bartaraf etishga harakat qiladigan, sinfda qulay psixologik muhitni yaratishga intiladigan o‘qituvchi yordam berishi mumkin. E.Torrance tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, baholanmagan faoliyat sharoitida ishlaydigan va erkin tajriba o‘tkazishga da’vat etilgan bolalar, keyinchalik baholanadigan faoliyat sharoitida ishlaydigan bolalarga qaraganda yuqori darajadagi ijodkorlikni namoyon etadilar. Baholanmagan faoliyat prinsipining asosiy maqsadi o‘quvchilarni xato qilish qo‘rquvidan xalos qilishdir. Ijodiy rivojlanishga ta’sir qiluvchi eng muhim omil, har qanday bosqichda o‘quvchi uchun juda muhimdir, o‘qituvchining ijodkorligi, shu jumladan, muloqot va o‘quvchilar bilan aloqa qilish jarayoni.

O‘quvchilarni o‘quv mashg‘ulotlariga munosabatlarida namoyon bo‘ladigan individual ruhiy xususiyatlari — diqqati, yaxshi yoki noxush kayfiyatlari, irodaviy faolligi, hamda qiziqishi va havaslari fizikani o‘rganish jarayonida amal qiladigan muhim omillardandir.

Ma’lumki, diqqat — aqliy faoliyatda g‘oyat muhim rol o‘ynaydi. Diqqatning ahamiyatini ta’kidlab, K.D. Ushinskiy ‘‘Diqqat — ruhimizga o‘tib turadigan hamma narsaning eshigidir’’, - deb ta’lim beradi. Demak, bilimlarni puxta egallash, ya’ni fizikani o‘zlashtirishning zarur shartlaridan biri o‘quvchilar diqqatining fizik jarayonlarni puxta bilib, o‘zlashtirib olishga yo‘naltirilishi, unda kuchli va barqaror to‘planishidir. Diqqatning o‘rganilayotgan materialdan chalg‘ib ketishi, parishonlik, zarur obyektga to‘planmasligi yoki to‘planishining qiyinligi ta’limning sifatiga, shuningdek, o‘zlashtirish tezligiga ham salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar kechiradigan xilma-xil ta’sirchanlik holatlar, yaxshi yoki noxush kayfiyatlar, his va tuyg‘ular katta rol o‘ynaydi. Bu hissiyotlar diqqatning kuchli va barqarorligiga ham ta’sir qiladi.

Ma’lumki, biron maqsadga erishmoq uchun, ruhiy zo‘r berish, irodaviy faollik ko‘rsatish, kuch sarflash lozim bo‘ladi. Ta’lim jarayonida aqliy faoliyatning faolligi, asosan iroda kuchi yordami bilan ta’min etiladi. Ta’lim jarayonida sarflanadigan kuch va harakatdan kuzatilgan maqsadning aniqligi, unga erishish vositalarining ravshanligi, o‘quvchilarda faollik tug‘diradi, o‘quv materialini to‘la va chuqur idrok qilish ham anglab

olishga intilishni kuchaytiradi. Bilim va malakalar hosil qilishda diqqat, hissiyot va irodaning ijobiy yo‘li o‘quvchilardagi qiziqishga ham bog‘liqdir. Chunki, qiziqish kishining o‘z hayotida eng ahamiyatli eng qimmatbaho deb bilgan narsalarga yo‘nalganligidir.

Qiziqish kishining qiziqqan narsasiga doimiy intilishida, uni o‘ziga yaqinlashtirishida, o‘rganib olishga intilishida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining pedagogik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan omillar haqida ham to‘xtalib o‘tmoq kerak. O‘qituvchining fanni, uni o‘qitish uslubini qanchalik egallaganligi, darsni tashkil qilish va o‘tkazish mahorati, umuman o‘qituvchining fan o‘qituvchisiga xos individual sifatlari o‘quvchilarda bilimlarning shakllanishida amal qiladigan omillar jumlasidandir.

Bilim va malakalar hosil qilishda, ya’ni fizikani o‘zlashtirishda ham, o‘qituvchining bilimdonligi, o‘qitish uslublari bilan qurollanganligi, pedagogik mahorat juda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, ta’limning har qanday sharoitida, har vaqt ham amal qilaveradigan universal uslublar yo‘q va bunday uslubning bo‘lishi ham mumkin emas. O‘qitish uslubi avvalo hosil qilinadigan bilim jumladan, o‘rganiladigan materialning mazmuni va harakteriga mos kelishi kerak. Sezgi, idrok bilishning birinchi bosqichi bo‘lib, aqliy faoliyatning yuksak shakli – abstrakt tafakkur sezgi, idrok obrazlariga asoslanadi. Demak, ta’limning samaradorligini oshirish uchun bolalarning sezgi-idrokdan hosil bo‘lgan tajribalaridan, tasavvurlaridan foydalanish, fan asoslarini egallashda ham, fizik bilimlarni egallashda ham, unga tayanish zarurdir. Chunki, inson sezgi idrokining asosiy mohiyati ongning tashqi borliq bilan bevosita bog‘lanishini ta’min etishdir, insonning yuksak ehtiyojlarini, ya’ni dunyoni bilish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishdir.

Demak, har qanday bilish jarayoni va hodisalaming mohiyatini anglab olish faqat sezgi orqali, idrok va tasavvurlar orqali sodir bo‘ladi. Sezgi va idrok tasvvur obrazlarining shakllanishiga olib keladi, tasavvurlar esa, o‘z navbatida inson aqliy faoliyatining yuksak bosqichi abstrakt tafakkurning hissiy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, sezgi idrok va tasavvurlar har qanday bilishning negizi, bilishga asos bo‘lgan manba bo‘lsa ham, u murakkab bilish jarayonining faqat birinchi bosqichi bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida avval hissiy bazani yaratish ta’limning tobora murakkablashib, chuqurlashib boruvchi bosqichlarida unga tayanib ish ko‘rish, hissiy bilish bilan to‘g‘ri (ratsional) bilish faoliyatlarining to‘g‘ri nisbatda bo‘lishiga rioya qilish zarur bo‘ladi. Bu o‘quvchilarda bilimlarning shakllanishi uchun ham zaruriy shartdir. Har bir o‘qituvchi o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida ularni ijodiy qobiliyatini to‘g‘ri baholay borishi kerak. O‘quvchilar bilan ishlash jarayonida ularni qiziqishini birinchi o‘rinda kuzatib, shu bio‘yicha muhim yo‘nalish bera olishi zarur. Dars jarayonida har xil metodlar bilan bunday samarani yanada oshira olishimiz mumkin. O‘quvchilarni o‘zlashtirishi o‘qtuvchining ularni qiziqtira olishidadir va bunday holatlarda o‘qituvchidan yuqori darajada intiluvchanlik va talabchanlik zaruriy holat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bogoyavlenskaya D.B. Intellektual faoliyat darajalarini o‘rganish usuli. Psixologiyaga oid savollar.

2. Godfroy J. Psixologiya, 2 jild, 1-jild. – M.: Mir, 1992. – C. 435-442.

3. Drujinin V.N. Umumiy qobiliyatlar psixologiyasi. – Sankt-Peterburg: “Peter”, 2000 yil.

4. Istratova O.N. Psixodiagnostika. Eng yaxshi testlar to‘plami Rostov-Don: Feniks, 2006. – 375 b. Simonov P.V. Hissiy miya. – M.: Nauka, 1981-yil.

Nilufar KARIMOVA,
Farg‘ona shahar ixtisoslashtiriligan san’at
maktabi o‘qituvchisi

ERKIN VOHIDOV VA MIXAIL BULGAKOV ASARLARI TAHLILI ASOSIDA SYUJETLARINING MUTONOSIBLIGI (“Ikkinchi tumor” tragikomediya hamda “Ityurak” qissasi asosida)

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston xalq shoiri, mutafakkiri, dramaturgi Erkin Vohidovning “Ikkinchi tumor’’ tragikomediyasi va rus adabiyoti namoyondasi Mixail Bulgakovning “It yurak” qissasidagi syujetlarining mutonosibligi, shuningdek, “Ikkinchi tumor” tragikomediyadagi ilmning qadri va ilmsizlik fojeasi, badiiy, falsafiy, mafkuraviy jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Shoir, dramaturg, pyesa, badiiylik, falsafa, mafkura, milliylik, hayot haqiqatini murakkabligi, ma’suliyat, syujetlarining mutonosibligi.

В статье рассматриваются художественные, философские, идеологические аспекты трагикомедии “второй амулет’ народного поэта, мыслителя, драматурга Узбекистана Эркина Вахидова и сюжеты повести русского литературного деятеля Михаила Булгакова “Собачье сердце”, а также значение науки и трагедии ненаучности в трагикомедии “второй амулет”.

Ключевые слова. Поэт, драматург, автор пьес, произведений искусства, философии, идеологии, национальности, сложности жизненного факта, ответственности, соразмерности сюжетов.

The article examines the artistic, philosophical, ideological aspects of the tragicomedy “the second amulet“ by the national poet, thinker, playwright of Uzbekistan Erkin Vakhidov and the plots of the story of the Russian literary figure Mikhail Bulgakov ”The Heart of a Dog“, as well as the significance of science and the tragedy of unscientific in the tragicomedy ”the second amulet".

Key words. Poet, playwright, author of plays, works of art, philosophy, ideology, nationality, complexity of life fact, responsibility, proportionality of plots.

Xalqimizning sevimli shoiri, serqirra ijodkori, jamoat arbobi, O‘zbekiston xalq shoiri E. Vohidov, nafaqat, shoir, balki el suygan dramaturg hamdir. Uning pesalari butun ijodiyotini qamrab olgan milliylik, falsafiylik, tarixiylik kabi g‘oyalar tamoyili kitobxonni beixtiyor poetik mushohadaga chorlaydi. Hayot haqiqatini murakkabligi va to‘lig‘icha, ziddiyatlari bilan boricha nomoyon etish, murakkab ijtimoiy masalalarni dadil ko‘tarib chiqish, ma’naviy va estetik ruh erkinligini badiiy tasvirlash shoir ijodiyotining asosiy xususiyatlaridan biridir. Shuningdek, uning badiiy tarjima, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, hajviyot qatorida, dramaturgiya yo‘nalishida yozgan asarlari ham tahsinga loyiq. Yillar davomida inson dardini kuylagan, odamlar orasidagi turfa illatlarni, jamiyatning yetarlicha yutuq va kamchiliklarini o‘rgangan ijodkor, umumbashariy mavzularnigina qalamga oladi. Shunday mavzulardan biri bu – insonni to‘gri tarbiyalash masalasidir.

Dunyodagi eng og‘ir va og‘riqli vazifalardan biri bo‘lgan – inson va uning o‘zligini shakllantirish masalasi har doim Erkin Vohidov ijodining bosh mavzusi bo‘lgan. Ijodkor nainki, she’rlari, balki oddiy xalq orasiga kirib borishi ancha oson bo‘lgan dramalari orqali ham ushbu mavzuga qayta-qayta murojaat qilgan. Xususan, Erkin Vohidov

ijodiyoti yorqin nomoyon bo‘lgan “Oltin devor” komediyasidan so‘ng 1970-yilda yozilgan “Ikkinchi tumor” tragikomediyasidir. Muallif “Ikkinchi tumor” asarida asosan ijtimoiy-falsafiy muammolarning, inson va tafakkurning milliy omillarini qay darajada ekanligini ko‘tarib chiqadi.

Erkin Vohidov ijodida shaxs va jamiyat psixologiyasini yaqqol aks ettirish yetakchilik qiladi. Xususan, inson umrining qadr-qiymati, falsafasi bilan bog‘liq badiiy fikr evolutsiyasini – “Ikkinchi tumor” pyesasi misolida ko‘rishimiz mumkin.

Bu asarda yozuvchi ijtimoiy hayot fojeasini hajviy usulda tasvirlab beradi. Masalan, psixolog Mahmudiy jahonshumul ilmiy tadqiqot qilish maqsadida tanlagan mavzunisini amaliyotda sinovdan o‘tkazmoqni reja qiladi va uning hayotini o‘zgartirishni tanlaydi. Xuddi shunday ijtimoiy holat Mixayil Bulgakovning ham “It yurak” qissasida qalamga olingan. Ushbu qissada ham ilmiy mashhurlikka erishishni istagan professor Flip Flipovich it va inson azolarini almashtirish orqali meditsina tarixidagi qaltis tajribalardan biriga qo‘l uradi. Mahmudiy esa 22 yoshli o‘qishni, yozishni bilmaydigan, ilm-tafakkurdan xabari yo‘q, sodda, savodsiz Matmusani bir yil davomida o‘qitib, kombinat direktori darajasiga ko‘tarmoqchi bo‘ladi. Vaholanki, ilmni misqollab, yillar davomida mashaqqat chekib olgandagina u o‘zining haqiqiy samarasini beradi.

Matmusa qisqa fursatda erishgan mansab soxta va yuzaki ko‘rinish edi. Mahmudiy o‘z xatosini, ya’ni insonga tafakkur qilish ne’mati faqat Alloh tomonidan berilishini, har qanday yutuq, mavaffaqiyat ilm va mehnat evazigaligini, o‘z natijasini hamda samarasini berishini Matmusa timsolida ko‘radi. Shuningdek, yozuvchi asarda olimning ikkinchi xatosi 18 yoshli singlisining zavol taqdiri ostida o‘zbek milliy qadriyatlari hayotimizga qanchalik kerakligini yoritib beradi. Muallif Mahmudiyning ilmga berilib, yevropalashib ketgan hayoti misolida beradi. Pyesada yozuvchining bosh maqsadi personajlar o‘rtasidagi bahslarda ochib boriladi. Xususan, bir o‘rinda Matmusa: “Siz dahriysiz-ku, meni ham o‘zingizdek dahriy qildingiz. Avvallari Xudodan qo‘rqar edim, endi hech narsadan qo‘rqmayman”, degan daxshatli fikrlarni aytadi. Bu fikr orqali Mahmudiyning o‘zbek bo‘lsa-da ateistik tarzda fikrlashi oydinlashadi. Matmusaning fikirlari Mahmudiyga yashash tarzi xato ekanligini anglashga yordam beradi. Yana bir o‘rinda, Matmusa o‘zining akademik Pavlov tajriba uchun tanlagan it emasligini va inson ekanligini ham ta’kidlaydi. Mixayil Bulgakovning asarida esa, nainki inson, balki it ustida tajriba o‘tkazish ham ilohiy qonuniyatlarga zidligini yana bir karra isbotlaydi. Bulgakovning “It yurak” qissasida shunday parcha keltiriladi : “Insonga va hayvonga ishontirish yo‘li bilan ta’sir o‘tkazish mumkin”.

Bu fikrning amaliy ifodasini E. Vohidovning “Ikkinchi tumor” tragikomediyasida ham ko‘rishimiz mumkin. Pyesada Matmusa o‘zini kombinat direktori bo‘lishiga shunchalik ishonar ediki, vaqt o‘tib, o‘zining darajasini unitib, asta-sekin o‘zini kombinat direktori rahbaridek tuta boshladi va xohish-istaklari yanada kattalashdi. “It yurak” qissasidagi itdan insonga aylangan Sharikov ham o‘tmish hayotini butunlay unutib, o‘zini zamonaviy chin insonday tutib, haq-huquqini talab qila boshlaydi. Masalan, uni yaratgan professor Flip Flipovichdan o‘ziga nisbatan hurmat, e’tibor, fuqorolik hujjati va uy joyga egaligi haqidagi asoslovchi dalil huquqini ham talab qiladi. Aynan “Ikkinchi tumor” pyesasida ham Matmusaning o‘zini tajribaga topshirishdan avval, Mahmudiydan hujjat sifatida tilxat yozib berishini talab qiladi. Ikkala asar qahramoni ham qandaydir hujjatga ega bo‘lsam, insoniylik qadr-qiymatim osha boradi, degan fikrda edi. Xususan “It yurak” asaridagi Sharikov “Hujjat – bu dunyodagi eng muhim narsa” deb hisoblagan. Vaholanki, ikki qahramon ham o‘z o‘tmishida o‘z-o‘zligiga ega edi. Ular tajriba asosida

o‘zgartirilganiga qaramay hayotida haqiqiy, baxtga erisha olmadilar. Buni “Ikkinchi tumor” pyesasi qahramoni Matmusaning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi “Men go‘l, savodsiz bo‘lsam ham odam edim. O‘z ungan joyim, o‘z hayotim, o‘z maqsadim bor edi.”

Shuni aytish joizki, psixolog Mahmudiyning do‘sti ham “Inson miyasining xaritasini tuzish mumkindir-u, ammo yurakning xaritasini chizib bo‘lmas”, deb ta’kidlaydi. Shunda o‘zining xatoliklarini tan olgan Mahmudiy “O‘z yuragiga quloq solgan odamgina, boshqalarnig yuragini eshitishi mumkin. Men ko‘kragimda nima borligini esdan chiqarib qo‘yibman”, deya hammadan o‘z uzrini so‘raydi. Asarda esa tajribaning inqirozi, olimning tavba-tazarrusi o‘sha vaqt dardi, muammosi inson umrining mohiyatini anglash bilan yakun topadi.

Erkin Vohidov qalamiga mansub “Ikkinchi tumor” tragikomediyasi 1995-yili Xorazm viloyat musiqali drama teatrida sahna yuzini ko‘rdi. Asarni, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, rejissyor Mahkam Muhamedov sahnalashtirdi. Ushbu spektaklda na hayotiy, na rahbarlik tajribasiga ega bo‘lmagan sohadan mutlaqo yiroq va bexabar kimsani boshliq qilib qo‘yish orqali sinov va tajribalar o‘tkazish naqadar beo‘xshov, taragik fojealar oqibatlarga olib kelish haqida hikoya qilinadi. Rejissyor rassom, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi O‘. Olloberganov bilan birgalikda yangi badiiy-sahnaviy ifoda vositalarini izlab topishga intildi. Bu holat ba’zi o‘rinlarda voqealar shartli, xayoliy va ramziy ishoralar orqali talqin qilinishida nomoyon bo‘ladi. Shuningdek, o‘rni bilan Erkin Vohidov she’rlaridan namunalar kiritilgani, yengil hazil, yumor va ba’zan satirik lavhalarning “sachrab” turishi spektaklning emotsional-estetik ta’sirchanligini oshirgan.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tarixiy-adabiy hodisa yuz berganligiga ellik yildan oshsa ham o‘tgan davr davomida insoniyat zamon va taraqqiyot pillapoyalaridan ilgarilashda jadal rivojlanayotgan bo‘lsa-da, adib qalamiga mansub tragikomediya o‘zining badiiy, tarbiyaviy, estetik ahamiyatini yo‘qotmagan. Shunday ekan, ushbu pyesaning ilmiy tahlilini keng jamoatchilik orasida yoyilishi adabiyotshunoslar, drammaturglar, rejissiyorlar hamda ushbu soha safidagi barcha insonlar oldida turgan vazifalardan biri hisoblanadi.

Tahlilchi sifatida “Ikkinchi tumor” tragikomediyasi yana boshqa musiqali drama teatrlarida ham sahnalashtirilsa, xalqqa, ayniqsa, yoshlarga bir ibrat namunasi bo‘lishiga ishonaman. Sababi, bugungi o‘sib kelayotgan yoshlarning barchasi o‘z kelajagining porloq bo‘lishini, rahbarlik lavozimlarida ishlashni istaydi. Ular pyesada ilgari surilgan g‘oyani, insonning ilmsizligini hech qanday sabab bilan xaspo‘shlab bo‘lmasligini, martaba va rahbarlikning katta ma’suliyati borligini, anglab yetsa, tanlagan sohasi talablarini ihlos bilan o‘rgana boshlardi, deb umid qilamiz. Bu esa inson va uning hayotida ilmning o‘rni qanchalik muhimligi abadiy, o‘zgarmas mavzu ekanligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov E. ‘‘She’r dunyosi’’, – T.: Sharq, 2001 y.

2. Bulgakov M. ‘‘It yurak’’, – T.: Yangi asr avlodi – 2020 y.

3. https://saviya.uz.>adabiyotshunoslik. Omonilla Rizayev san’atshunoslik fanlar nomzodi

Fotima ABDULLAYEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, “Ispan tili amaliy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

KOGNITIV TILSHUNOSLIK VA LINGVOMADANIYATDA KONSEPT TUSHUNCHASINING QO‘LLANILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigma qamrovida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar hamda kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyada konsept tushunchasining qo‘llanilishi, shuningdek, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda til birliklarining struktural-semantik qurilishi, ularning kundalik muloqotda kommunikativ-pragmatik jihatdan ongli qo‘llanishi haqidagi ilmiy tahlillari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Zamonaviy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, antropotsentrik paradigma, lingvokulturologiya, konsept, til birliklarining struktural-semantik qurilishi, muloqot.

В данной статье освещаются научные исследования, проводимые в рамках антропоцентрической парадигмы в современном языкознании, а также применение понятия концепции в когнитивной лингвистике и лингвокультурологии, а также научный анализ структурно-семантического построения языковых единиц в исследованиях этого направления, их коммуникативно-прагматического сознательного применения в повседневном общении.

Ключевые слова. Современная Лингвистика, когнитивная лингвистика, антропоцентрическая парадигма, лингвокультурология, концептуализация, структурно-семантическое построение языковых единиц, коммуникация.

This proverb covers the scientific research carried out in the scope of the anthropocentric paradigm in modern linguistics and the application of the concept in cognitive linguistics and linguoculturology, as well as scientific analysis of the structral-semantic construction of language units in this direction of research, their communicative-pragmatic conscious use in everyday communication.

Key words. Modern linguistics, cognitive linguistics, anthropocentric paradigm, linguoculturology, concept, structural-semantic construction of language units, communication.

Mavjud bo‘lgan olamni bilimlarimizning obyekti sifatida hamda ongimizda inikos etayotgan va ongimizda tasvirlanayotgan axborotning anglanilmagan jarayonlari ta’sirida shakllanayotgan olam sifatida farqlay bilish kognitiv tilshunoslikning asosini tashkil qiladi. Til orqali uzatilayotgan axborot ushbu aks ettirilayotgan olam bilan chambarchas bog‘liqdir; odamlar narsalar to‘g‘risida faqat o‘zlari erishgan mental reprezentatsiyalarning darajasida so‘zlashishlari mumkin. Shuningdek, olam haqidagi bilimlar va shu jumladan, til axboroti inson ongida shunchaki jamg‘arilib bir-birlaridan mutlaqo alohida unsurlar ko‘rinishida mavjud bo‘la olmasligi to‘g‘risida tegishli tasavvurga ega bo‘lishi juda muhimdir. Turli toifadagi axborot ma’lum tarzda umumlashtiriladi va ayni shu yo‘l bilan odam axborotni yodga olish uchun imkon topadi hamda dastlab mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plash orqali yangi bilimlarni yaratadi.

Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigma qamrovida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar soni tobora ortib bormoqda. Buning boisi shuki, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda til birliklarining struktural-semantik qurilishi, ularning kundalik muloqotda kommunikativ-pragmatik jihatdan ongli qo‘llanishi va eng muhimi, u yoki bu til jamoasi vakillari bo‘lgan sotsiuslar muloqotining to‘laqonli kechishida, qolaversa, muloqot kabi

murakkab bir jarayonga daxldor qator lingvokognitiv va lingvokulturologik muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar berishda muayyan tilda so‘zlovchi, yozuvchi inson omilining roli beqiyos ekanligi va bu omilga doimo asosiy e’tiborni qaratish lingvokognitiv tahlilning qat’iy tamoyillaridan biri ekanligi soha tadqiqotchilari tomonidan qayd etilib, unga og‘ishmay, qat’iy amal qilib kelinayotganligi bilan asoslanadi. Shunday ekan, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning asosiy o‘rganish obyekti sanaladigan “konsept” nazariyasi rivojlanib, tobora sayqal topib bormoqda.

Til orqali ifodalanayotgan axborotning geshtal’tlar, semantik maydonlar, freymlarga ajratib o‘rganish kognitiv tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biridir. Mana shular qatoriga albatta konseptlar ham kiradi. Konsept atamasi tilshunoslikda joriy etilgan nisbatan yangi atama bo‘lib tilshunoslikning lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv yo‘nalishlarida so‘ngi yillarda e’lon qilingan ishlarda ko‘p qo‘llanmoqda. Konseptni o‘rganish tilda o‘z o‘rnini topayotgan va til birliklaridan u yoki bu obyektlarni hamda borliq hodisalarining ta’riflanishlarini muhim darajada belgilovchi assotsiativ timsoliy tushuncha-tasavvurlarni ko‘rib chiqishga qaratilgan boshqa tilshunoslik tadqiqotlari qatorida o‘z o‘rniga ega. Shu bilan birga, konsept atamasi shu toifa tadqiqotlar orasida eng ko‘p tarqalgandir. Uning shunchalik darajada keng qo‘llanishining boisi, ehtimol uning yetarli darajada aniq ta’rifga ega emasligidadir.

“Konsept” atamasi inglizcha “consept” so‘zidan olingan bo‘lib, tushuncha ma’nosini bildiradi. Mantiqiy-lisoniy va lisoniy-falsafiy yo‘nalishlarda “konsept” va “tushuncha” atamalari, ko‘pincha, sinonim sifatida ishlatiladi. Kognitiv yo‘nalishdagi tadqiqotlarda, asosan, kognitiv psixologiya va kognitologiyaga oid chet el olimlari tadqiqotlari ta’sirida rivojlanib, tilshunoslar mantiqiy va falsafiy talqinni “tushuncha” atamasiga qoldirib, ko‘proq “konsept” atamasidan foydalanadilar.

Konsept ong birligining asosi bo‘lib, lingvistik vositalar yordamida reifikatsiya (vakillik, obyektivlashtirish, verbalizatsiya) orqali taqdim etiladi. Konseptni obyektivlashtiradigan lingvistik vositalar yig‘indisini tahlil qilish orqali uning mazmuni va tuzilishini konseptual sferada qayta qurish mumkin. U faqat lingvistik ma’lumotlarga asoslanadi, konseptlar esa ong birliklari sifatida tarkibning noverbal qismiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, konseptlar mazmunini lisoniy birliklar orqali tahlil qilish ularni tavsiflash uchun yetarlicha boy va eng ishonchli asos beradi. Assotsiativ manba va diskursiv realizatsiya konseptual tarkibning til doirasi yoki sinxron bo‘lakning konseptual mazmuni dolzarb bo‘lgan jihatlarini ochib beradi hamda turli xil diskursiv amaliyotlarda konsept verballashuvining semantik va pragmatik asosda konseptual tarkibning tarixiy o‘zgarishini o‘rganishda ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilar ushbu atamadan foydalanganlarida uni turli mazmun-ma’nolarni ifodalash uchun qo‘llaydilar. Mana shu sababdan, konsept sifatida mohiyati jihatidan bir-birlaridan butunlay uzoq bo‘lgan va deyarli birorta aniq o‘lcham chegaralariga ega bo‘lmagan turli toifa hodisalar ko‘rib chiqiladi va shuningdek, konseptni tadqiq etishdagi ko‘p hollarda qo‘llanishi yetarli darajada asoslanmagan har xil materiallarning safarbar qilinishida namoyon bo‘lgan yondoshishlar xilma xilligi kuzatiladi. Biroq, “konsept” atamasining juda ham xilma-xil obyektlarga nisbatan qo‘llanishiga uning turli ta’riflarga ega bo‘lishiga qaramay, bizning fikrimizcha konsept tushunchasida uning xilma xil ta’riflarini birlashtiradigan va turli toifa konseptni konseptual tarmoqqa (tilning konsept doirasiga) kiritilishi mumkin bo‘lgan umumiylik belgisini ajrata-bilish imkoni mavjuddir. Mana shu umumiylik belgisi sifatida birinchi navbatda konsept tilda va nutqda aks ettiriladigan olam tasvirining unsuri ekanligi, xatto tilning emas, balki xotiraning, bilimning birligi to‘g‘risidagi tasavvur e’tirof qilinadi.

Konsept – bu “inson ruhiyatida aks ettirilgan xotira”ning mental leksikonning (millat uchun xos bo‘lgan jonli tilning), konseptual tizimning va aqliy tilning, qolaversa,

butun olam tasvirini aks ettiruvchi keng hajmli birligidir. Konsept tushunchasi odam o‘zining fikrlash jarayonlarida qo‘llaydigan, tajriba va bilimning mazmunini, butun inson faoliyatining hamda olamni bilishning mazmunini qandaydir “bilim kvantlari” ko‘rinishida anglangan ma’nolar tushunchasiga muvofiq keladi; konsept tabiatini ta’riflash va aniqlashning eng yaxshi yo‘lini til ta’minlay oladi deb hisoblaydilar.

Tilshunoslikka bag‘ishlangan ko‘pchilik ishlarning mualliflari konsept atamasini boshqa atamalar bilan taqqoslash yo‘li bilan aniqlashga harakat qiladilar. Bir qator ishlarda eng avval tushuncha, ma’no, mazmun va konsept atamalari aniq chegaralanadilar. Odatda tadqiqotchilar konseptni konsept doirasining birligi sifatida, ma’noni esa tilning birligi sifatida ko‘rib chiqadilar. Ma’no bilan konsept tushunchalarini bir-birlari bilan almashtirish mumkin emas: konsept bu – konsept doirasining birligi, ma’no esa – semantik tizimning, til-semantik maydonining birligidir. Ma’no o‘zining kompleks semalari orqali konseptning tashkil etuvchi ma’lum belgilarni bildiradi, shuningdek, har doim konseptning faqat ma’noga oid mazmunli qismidir. Konseptni izohlash uchun odatda ko‘p sonli leksik birliklar, va ko‘p xil ma’nolar kerak bo‘ladi. So‘z konseptni to‘liqligicha tashkil etmaydi, u o‘zining mazmun-ma’nosi orqali so‘zlayotgan kishi uchun ularning bosh maqsadini tashkil etuvchi, uning intensiyasiga kiruvchi, bildirish uchun relevant bo‘lgan bir necha asosiy konseptual belgilarni uzatadi. Butun konsept, o‘zining mazmun boyligi nuqtayi nazaridan va nazariy jihatdan, har biri uning faqatgina bir qismini ochib beruvchi faqat til vositalarining majmui orqali ifodalanishi mumkindir; “so‘z” har qanday nominatsiya kabi konseptni fikrlash birligi sifatida “kashf etuvchi” va undan fikrlash konsept mujassamlanadi. Konseptning verballashuvi jarayonida uning mazmunini aniqlovchi ma’noli belgilar unga muvofiq tildagi belgining ma’noli tarkibiga qayta kodlashadi.

Tilshunoslik tomonidan falsafaning logika bo‘limidan o‘zlashtirilgan “konsept” atamasi ba’zan “tushuncha” atamasining sinonimi sifatida ham qo‘llanadi. Ko‘p hollarda tadqiqotchilar olam haqidagi turli toifa bilimlarga, ya’ni: “individual va ijtimoiy” bilimlarga, oddiy, kundalik va ilmiy bilimlarga, birlamchi timsoliy va madaniy asosdagi tushunchaga tabaqalashtirib chegaralashga harakat qiladilar. Xususan, tushuncha konseptga nisbatan mazmunan torroq degan nuqtayi nazar mavjud. Til sohiblarining ongida tushuncha – tasavvur konseptning tarkibiy qismi sifatida hozir bo‘ladi va u turli xil assotsiatsiyalar hamda interpretatsiyalar (talqin-izohlar), bilan “boyib” boradi.

Bizning fikrimizga ko‘ra, konsept “vazinsizlik”da bo‘lmaydi, balki u har doim aniq bir kishiga yoki kishilar guruhiga tegishlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кубриякова Е.С. О когнитивной лингвистики и семантики термина когнитивны// Вестник Воронежского государственного университета. Воронеж, – 2001. – С. 90.

2. Mamatov A.Ye. Tilda kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? Tilshunoslikning dolzarb masalalari: Prof. A. Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon, 2012/ – 212-219 b.

3. Axrorova R.U. Fransuz va o‘zbek tillarida “yosh” tushunchasining gender jihati. ISSNDAGI xalqaro ilg‘or tadqiqotlar jurnali: 2278-6236. Menejment va ijtimoiy Fanlar, – 2022. №1. – 31-39 b.

4. Asqarova Sh.I. Terminology of the direction of language contacts in modern linguistics. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2020. 2 (11), – P. 234-239.

5. Ziyodbek A. (2022). O‘zbek va ingliz tillarida jinsning ifodalanishi. editorial board, 613.

Maxsuda OBIDOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari
universiteti akademik litseyi ijrochi direktori

O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARGA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek tilini o‘qitishning lingvodidaktik asoslari, o‘ziga xos xususiyatlari mazmun mohiyati va lingvistik terminlarning ilmiy-nazariy aspektlari hamda amalda tatbiq etish, nutq ko‘rinshlarini rivojlantirish bilan bog‘liq o‘quv fanlarining mutanosibligi, adabiy til me’yorlari (talaffuz, imloviy va grammatik)ni egallash bo‘yicha nazariy-amaliy malakalarni hosil qilishi aytib o‘tilgan. Shuningdek, nazariy ma’lumot-axborotlarni kengaytirish, kommunikativ kompetensiyani tadrijiy o‘stirish, kreativ yondashuvlarni, tanqidiy fikrlashni takomillashtirish bo‘yicha tilshunos, metodist olimlar hamda psixologlarning ilmiy fikr-mulohazalari, qarashlari tahlil qilinib, subyektiv munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar. O‘zbek tilini o‘qitish, lisoniy sathlar mazmuniy izohi, nutq va tafakkur proporsionalligi, turli o‘quv predmetlarining til o‘qitishdagi mutanosibligi, nutqiy ko‘nikma, nutqiy faoliyat, kommunikativ-informativ yondashuvlar, kasbiy fazilatlar va kreativ sifatlar.

В данной статье отмечены лингводидактические основы преподавания узбекского языка, особенности содержания и научно-теоретических аспектов лингвистических терминов, а также соразмерность учебных дисциплин, связанных с практическим применением, развитием речевых проявлений, формирование теоретико-практических компетенций по овладению нормами литературного языка (произношением, орфографией и грамматикой). Также были проанализированы и выражены субъективные взгляды лингвистов, методистов и психологов на расширение теоретической информации, развитие коммуникативной компетенции, совершенствование креативных подходов, критического мышления.

Ключевые слова. Преподавание узбекского языка, содержательная интерпретация языковых уровней, пропорциональность речи и мышления, соразмерность различных учебных предметов в языковом обучении, речевые навыки, речевая деятельность, коммуникативно-информационные подходы, профессиональные качества и творческие качества.

In this article, it is mentioned that the linguodidactic foundations of teaching the Uzbek language, specific features of the essence of the content and scientific-theoretical aspects of linguistic terms, as well as the proportionality of educational disciplines related to the implementation in practice, the development of speech manifestations, the formation of theoretical-practical qualifications for the acquisition of literary language norms (pronunciation, spelling and grammar). Scientific feedback, views of linguists, Methodist scientists and psychologists on the expansion of theoretical information, the evolutionary cultivation of communicative competence, the improvement of creative approaches, critical thinking were also analyzed and subjectively reacted.

Key words. Teaching uzbek, content explanation of linguistic levels, proparsion of speech and thinking, proportionality of various educational subjects in Language Teaching, speech skills, speech activity, communicative-informative approaches, professional qualities and creative qualities.

Bugungi kunda ta'lim bosqichlarida o'quvchi yoshlarning o'zbek tilida kommunikativ kompetensiyalarini, o'zaro o'zbek tilida muloqot qilish ko'nikmalarini o'stirish, bir-birini tushungan holda mazmunli suhbat qilish malakalarini takomillashtirish hamda ularning chuqur bilim egallashi, mustaqil, mantiqiy, kreativ fikrlashga yo'naltirish, o'quv-ta'limiy vositalar orqali nutq va tafakkurini rivojlantirish o'zbek tili o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ko'p millatli yurtimizda maktabgacha ta'lim muassasalari, umuta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilining o'qitilishi uzviyligini ta'minlanishiga yanada ko'p va jiddiy e'tibor berish lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasasiga, umumta'lim muassasasiga borib ta'lim oluvchi boshqa millat vakillarining farzandlari boshqa xorij tilidan tashqari o'zbek tilini ham davlat ta'lim standartida belgilangan darajada egallab chiqishlari juda muhimdir. Zero, ularning til o'rganish va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bilan birga o'zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, "O'zbek tili amaliyoti" nofilologik oliy o'quv yurtlarining 1-2-kurs rus guruhlari uchun darslik"[1]da o'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitish tamoyillari va metodlari yoritilgan.

Olima G. Qurbonova "Tibbiyot institutlarining rus guruhlarida o'zbek tilining eng asosiy va yetakchi fan sifatida o'qitilishi oliy ma'lumotli bo'lajak shifokorlarning o'zbek tilida o'z fikrini erkin va bemalol bayon qilish, o'zgalar fikrini tushunish zarurati bilan bevosita bog'langan". S. Adilova tomonidan rus guruhlarida o'zbek tili fanini o'qitishda mashg'ulotlarni kompyuter vositasida tashkil etishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan, ayrim mavzular bo'yicha elektron ishlanmalar, elektron darslikka kiritilishi mumkin bo'lgan ta'limiy dasturlar ssenariylar va loyihasi tuzilgan. N. Umarova elektron ta'limiy ishlanmalar yordamida texnika oliygohlari rus guruhlari talabalarining o'zbekcha yozma nutqini o'stirish tamoyillari, mazmuni va usullari, ta'limda multimedia va slaydlar turkumi, internetdan foydalanish masalalarini o'rgangan.

Darhaqiqat, o'zbek tilini o'qitishda tamoyil va metodlarni qo'llash asosiy o'rin egallaydi. Shuningdek, tibbiyot o'quv yurtlarining talabalari uchun ''O'zbek tilidan tahsil dasturi va qo'llanma"da o'zbek tili mashg'ulotlari, asosan, kundalik turmushda zarur bo'ladigan muomala munosabat, so'zlash, gaplashish ko'nikmalarini hosil qilish bo'yicha mavzular o'rin olgan"[2]. Asosan olib borilgan muomala munosabatlarida gaplashish, muloqot qilish mustahkamlanib boradi. Bunda suhbat ishtirokchilari o'rganilgan axborotga tayanadilar. N.I. Gendina to'g'ri ta'kidlaganidek, "Bugun axborot jamiyatini "ta'lim oluvchi" jamiyat, deb bejiz atalayotgani yo'q. Bunday deyishga quyidagilar asos bo'la oladi:

• axborot va bilimlar – jamiyatning bosh bunyodkor kuchi;

• yangilik, tezkorlik, jadallashuv – bugungi kunning eng tavsifli belgilari;

• xoh ishlab chiqarish, xoh ijtimoiy hayot bo'lsin, texnologiyalarning yangilanish maromi olti-yetti yilni tashkil etmoqda;

• ta'lim olishning uzluksizligi va qayta tayyorlovdan o'tishga qodirlik – shaxsning o'z ijtimoiy maqomini saqlab qolishning ajralmas qismi;

[1] Uzoqov H., Mirzakarimova O'., Saidova R. O'zbek tili amaliyoti. – T.: O'qituvchi, 1993. – 240 b.

[2] O'zbek tilidan tahsil dasturi va qo'llanma/ (Tibbiyot o'quv yurtlarining rus tilida gaplashadigan guruhlari uchun). – T., 1991. – 55 b.

• har bir insonning taqdiri o‘z vaqtida yangi axborotni qidirib topish, olish, mos ravishda qabul qilish va undan samarali foydalanishiga bog‘liq”[3].

Axborotning ham eng keraklisini topish va uni izohlab o‘rganish o‘zbekcha so‘zlashish ko‘nikmasini o‘stiradi.

Olim G.A Zolotinaning ta’kidlashicha, “O‘rganilayotgan material nazariy jihatdan o‘rganib chiqilgan va shunday sistemalashtirilgan bo‘lishi kerakki, til o‘rganuvchilarning maqsadga yetishiga qisqa, tejamli va unumli yo‘lni belgilab bersin. Ta’lim amaliyoti va nazariyasining vazifalari turlicha bo‘lgani holda obyekt, material va manfaatlar umumiydir – ushbu obyektning qurilishini yakunlashdir”[4]. Ushbi keltirilgan ta’kidlar asosida o‘quv materialining nazariy o‘rganilishi muayan darajada o‘zbek tilida amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga davlat tilida ish yuritishni mustahkamlashga yordam beradi.

O‘zbek tili berilgan nazariy ma’lumotlarni o‘qituvchi tomonidan qiziqarli tarzda o‘rgatilishi hamda intrektiv faoliyat natijasida ixtisoslikka va sohaga doir matnlarni aniq va mazmundor tahlil qila olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi bilan quyidagilar izohlanadi:

– o‘zbek adabiy tilning me’yorlarini o‘z nutqida rioya qilish;

– mazmun va mantiqqa asoslangan ixtisosiy nutqni o‘qib, kognitivlikni o‘stirish;

– davlat tilida ish yuritish hujjatlarini mustaqil tuzish, yozish, rasmiylashtirishga o‘rgatish;

– kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish;

– o‘zining mustaqil fikrini erkin bayon qilishi;

– so‘z boyligini oshirish, lug‘at zaxirasini kengaytirishi;

– sharqona nutqiy odob namunalari.

Mamlakatimizda keyingi yillar mobaynida ta’lim sohasida ham juda ko‘p o‘zgarishlar, rivojlanishlar bo‘lib, qator yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda.

Dunyodagi barcha xalq va elatlarning asosiy muloqot manbai, o‘sha xalqning milliy tili ekanligi barchaga ma’lum. Har bir davlatning tili, uning o‘qitilishi, rivojlantirilishi, taraqqiyoti o‘sib kelayotgan yosh avlodga qanday darajada yetkazilishiga bog‘liq. Chunki, har bir millatning tili – ana shu halqning an’analarini, madaniyatini, urf-odatlarini avloddan-avlodga o‘tishini ta’minlaydi. Bunda kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirilib borilishi ahamiyatga molik.

Kommunikativ kompetensiya – bu shaxslararo tajribani shakllantirishning darajasi, ya’ni ta’lim bilan o‘zaro muloqot qilish shaxs talab qiladigan boshqalar, o‘z qobiliyatlari va ijtimoiy mavqei doirasida ushbu jamiyatda muvaffaqiyatli ishlash uchun.

Kommunikativ kompetensiya – bu muayyan narsalarni qo‘yish va hal qilish qobiliyati aloqa vazifalari turlari: maqsadlarni aniqlash aloqa, vaziyatni baholash, hisobga olish hamkorning niyatlari va aloqa usullari (hamkorlar), yetarli strategiyalarni tanlash, aloqa muvaffaqiyatini baholash, o‘z nutq xatti-harakatlarini o‘zgartirishga tayyor bo‘lishi aniqlangan”. Kommunikativ kompetensiya:

• jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun o‘zining ona tilisi va birorta xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;

• o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;

• ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

[3] Гендина Н.И. Информационная грамотность или информационная культура: альтернатива или единство (результатў российских исследований) // Школьная библиотека. – М., 2005.- № 3. – С. 18.

[4] Золотина Г.А. Некоторые вопросы синтактической теории и обучение к русскому языка как иностронного. Синтаксис.:” Русский язык”, 1980, – С. 35.

• muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

• turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat”.

Kommunikativ kompetensiya – bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zaro ta’sirlashish sharoitida shakllanadigan odamlar o‘rtasidagi rivojlanayotgan va asosan ongli aloqalar tajribasi. Kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish jarayoni shaxsning rivojlanish taraqqiyoti bilan bog‘liq. Kommunikativ ko‘nikmalarni tartibga solish – insoniyat madaniyatining bir qismidir va ularni o‘zlashtirish va boyitish butun madaniy merosni rivojlantirish va ko‘paytirish bilan bir xil harakatlarga muvofiq sodir bo‘ladi. Kommunikativ sohani o‘zlashtirish jarayonida odam madaniy muhitdan kommunikativ vaziyatlarni og‘zaki va vizual shakllarda tahlil qilish vositalarini oladi[5].

Shulardan kelib chiqib, ta’limning maqsad va mazmunini, o‘quv jarayonini tashkil etish va uning natijalarini baholash usullarini belgilovchi kompetensiyaviy yondashuvning asosiy tamoyillari etib quyidagilarni belgilash imkoni yaratiladi:

– o‘quvchilarning ijtimoiy turli soha va faoliyatidagi muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyati;

– kognitiv, dunyoqarash, madaniy-axloqiy, iqtisodiy muammolarni hal qilishda didaktik moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yarata olish;

– o‘quvchilarda kommunikativ, tashkiliy muammolarni mustaqil hal qilish tajribasini shakllantirish uchun sharoit yaratish;

– ta’lim natijalarini baholash, ta’limning muayyan bosqichida o‘quvchilar erishgan ta’lim darajalarini tahlil qilish.

Biz yuqorida berilgan bilim, malaka, ko‘nikmalarni ta’lim muassasalarida bilim olayotgan o‘quvchilarga singdirish hamda o‘zga tillarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar uchun o‘zbek tilni o‘qitishning yoshlar uchun qiziq bo‘lgan o‘rganish usullari asosida ish olib borishimiz kerak. Buning uchun texnika asrida rivojlanayotgan yangi metodlarni qo‘llash, shu usullar orqali ularning so‘z boyligi va savodxonligini oshirishni maqsad qilib olgan pedagog o‘z fanining sevib o‘rganilishiga erishadi. O‘quvchi-yoshlarning aksariyati mobil telefonlaridan foydalanadilar. Ayniqsa, hozir yoshlar telegramm, instagramm ijtimoiy sahifalarida o‘z dunyoqarashlari, fikrlari bilan ishtirok etishga qiziqadilar. Men sizlarga ustozlarimiz qo‘llayotgan ajoyib metodlarning bir nechtasi bilan o‘rtoqlashmoqchiman. Ulardan biri Instagramni saralash, Chizish orqali tillarni o‘rgatish, Oshxonada o‘qish, Postcrossing (pochta varaqasi) metodlari o‘quvchilar uchun ayni muddao bo‘ladi. U sizning bergan ma’lumotlaringizni shu usullar orqali mustahkamlab borishga o‘rgatsangiz, o‘z oldingizga qo‘ygan maqsadingizning bir qismiga erishgan bo‘lasiz. Shunda hozir nutqimizda juda ko‘p qo‘llanilayotgan “Murad builder” (Murad is a builder) so‘zi – Murod binokor, “Tashkent siti” – Toshkent shahar, “Sake and cakelab” – tort va kekslar, Sladosti babushki Mayya – Maya buvi shirinliklari, “Fast food”- emas balki, ommaviy ishlab chiqarilgan oziq-ovqat turi bo‘lib, xizmat ko‘rsatish tezligiga ustuvor ahamiyat beradi. Bu tijorat atamasi restoran yoki do‘konda muzlatilgan, oldindan qizdirilgan yoki oldindan pishirilgan mahsulotlar bilan sotiladigan

[5] Р.П. Дондокова Сущностная характеристика и структура коммуникативной компетентности // Вестник Бурятского Государственного университета. 1.1. 2012. — С. 19. Электронный ресурс: — URL: file:///C:/Users/LinK/Downloads/сусчностная-характеристика-и-структура-коммуникативной-компетентности. Дата обращения: 29.09.2019.

va olib kelish – olib ketish uchun qadoqlangan holda sotiladigan oziq-ovqatlar, degan so‘zlarni ishlatamiz.

Instagramni saralash – metodi til o‘rganishni yaxshilash uchun ijtimoiy tarmoqlardan qanday foydalanish mumkinligiga e’tibor qaratadi. Ijtimoiy tarmoqlar asosan muloqot qilish va boshqa odamlarni dunyo haqida ko‘proq bilishga undash uchun ishlatiladi. Yozish ko‘nikmalari va so‘z boyligi o‘quvchilar Facebook kabi ijtimoiy media platformalaridan foydalanganda egallaydigan, eng keng tarqalgan ko‘nikmalardan biridir.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar tomonidan taqdim etilgan anonimlik (ismi noma’lum bo‘lgan) talabalarning tilni o‘rganishdagi faolligini oshiradi. Masalan, bu o‘quvchilarga, ayniqsa, boshqa odamlarga duch kelganda gapirishdan qiynalayotganlarga, boshqa o‘quvchilar bilan guruh muhokamasi kabi mashg‘ulotlarda ishtirok etishda ishonchli bo‘lishga yordam beradi.

Postcrossing (pochta varaqasi) metodi – bu metod orqali chet elliklarga otkritka yozish va o‘rganayotgan tilidagi jumlalarni tez-tez ishlatish imkoniyatini beradi.Postcrossing metodida – o‘quvchi o‘rganayotgan tilida, suhbatlasha oladigan do‘st topadi va ko‘plab kundalik hayot haqida gaplashadi, lug‘atdan foydalanib, bularning barchasini xorij (o‘zbek, ingliz, nemis va h.k) tilida yozish kerak, shuning uchun Postcrossingdan foydalanish o‘quvchilarni o‘z ustida ishlab, tilni mukammalroq o‘rganishiga yordam beradi, deb o‘ylayman.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilini o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy va ilg‘or metodlardan foydalanish, ularning so‘zlash, gapirish, muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-6084 (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.10.2020 y., 06/20/6084/1398-son).

2. Uzoqov H., Mirzakarimova O‘., Saidova R. O‘zbek tili amaliyoti. – T.: O‘qituvchi, 1993. – 240 b.

3. Qurbonova G.N. Tibbiyot institutlarining rus guruhlarida “O‘zbek tili” fanini o‘qitish jarayonida talabalarning ixtisosiy nutqi ustida ishlash metodikasi: Ped. fan. nomz . … diss. – T., 2000. – 10-11 b.

4. Adilova S.A. O‘zbek tili mashg‘ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish (oliy ta’lim muassasalari rusiyzabon guruhlarida): Ped. fan. nom. ...dis. – T.: TDPU, 2004. – 152 b.

5. Umarova N.Z. Talabalarning o‘zbekcha yozma nutqini o‘stirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasi (texnika oliy o‘quv yurtlarining rusiyzabon guruhlarida): Ped. fan. nom. ...dis. – T.: TDPU, 2007. – 133 b.

6. O‘zbek tilidan tahsil dasturi va qo‘llanma/ (Tibbiyot o‘quv yurtlarining rus tilida gaplashadigan guruhlari uchun). – T., 1991. – 55 b.

7. Гендина Н.И. Информационная грамотность или информационная культура: альтернатива или единство (результату российских исследований) // Школьная библиотека. – М., 2005. – № 3. – С. 18.

8. Золотина Г.А. Некоторые вопросы синтактической теории и обучение к русскому языка как иностронного. Синтаксис.: “Русский язык”, 1980.

Ollayor AVEZMUROTOV,
Urganch davlat universiteti, “Fizika” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Zebo AVEZMURATOVA,
Urganch davlat universiteti, “Fizika-matematika va texnologik ta’lim” kafedrasi dotsenti v/b.

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA AJDODLARIMIZNING ILMIY MEROSLARIDAN FOYDALANISH VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada fizika fanini o‘qitishda ajdodlarimizning ilmiy meroslaridan foydalanish va uning tarbiyaviy ahamiyati, buyuk Vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligining nishonlanishi va bunda YuNeSKO tashkilotining hamkorligi, shuningdek, Beruniyning fizika, matematika, astronomiya, biologiya, meditsinaga oid bir qator ilmiy meroslari hamda ta’limda ushbu ilmiy meroslardan foydalanishning afzalliklari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Fizika fani, Abu Rayhon Beruniy, ilmiy meros, Aristotel, “Osmon haqida”, linza, ko‘zoynak, ko‘zning ko‘rish mexanizmi.

В этой статье рассказывается об использовании научного наследия наших предков в преподавании физики и его образовательном значении, о праздновании 1050-летия со дня рождения нашего великого соотечественника Абу Райхана Беруни и сотрудничестве в этом организации ЮНЕСКО, а также о ряде научных достижений Беруни в области физики, математики, астрономии, биологии, медицины, а также о преимуществах использования этого научного наследия в образовании.

Ключевые слова. Наука физика, Абу Райхан Беруни, Ибн Сина, научное наследие, Аристотель, “О небе”, линза, очки, зрительный механизм глаза.


This article cites the use of the scientific heritage of our ancestors in teaching physics and its educational significance, the celebration of the 1050th anniversary of the birth of our great compatriot Abu Rayhon Beruni and the cooperation of the UNESCO organization, as well as a number of scientific legacies of Beruni related to physics, mathematics, astronomy, biology, medicine, as well as the benefits

Key words. Physics, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sina, scientific heritage, Aristotle, “On the sky”, lens, glasses, visual mechanism of the eye.

Bu yil butun Dunyo bo‘ylab YuNeSKO tashkiloti hamkorligida Buyuk Vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi nishonlanmoqda. Beruniy fizika, matematika, astronomiya, biologiya, meditsina va hokazo ko‘p sohalarda ilmiy meroslar qoldirgan. Ta’limda Beruniy ilmiy meroslaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.


Beruniy Aristotelning “Osmon haqida” 10 savolini va fizika kitobidan 8 savolni Ibn Sino bilan xat orqali muxokama qiladi. Aristotel eramizdan oldingi III asrda yashab o‘tgan grek filosofi bo‘lib, fizika tarixida birinchi kitob “Fizika” (Grekcha fizis) tabiat haqidagi kitobini yozgan. Sharqda uni “Almuallim-ul avvaliy” (“Birinchi ustoz”), deb hurmat qilganlar. Beruniy Aristotelning optika soxasidagi qarashlarini Ibn Sino bilan quyidagicha muhokama qiladi. U bir yozishmasida Ibn Sinoga savol bilan murojat qilib, shunday deydi: “Oq yumaloq, tiniq bir shishani suv bilan to‘lg‘azilsa, kuydirishda yumaloq tiniq tosh xizmatini bajaradi. Agar shisha suvdan bo‘shatilib, havo bilan

to‘lg‘izilgan bo‘lsa, kuydirmaydi va Quyosh shu’lasini to‘plamaydi, nima uchun suv shunday bo‘ladi, ya’ni suvli idishda kuydirish kuchi va Quyosh shu’lasini to‘plash quvvati paydo bo‘ladi”. Beruniy “Meneralogiya” asarida qabariq linzaning kattalashtirishi xususiyatini birinchi bo‘lib bayon qilgan. U shunday yozadi: “Aslida bu yoqut yarim shar shaklida tekis tomoni yozuvga qaratilgan bo‘lib, mayda xatlarni o‘qish mumkin bo‘lgan. Shunga o‘xshash yarim sharsimon tog‘ xrustal yordamida xatga, qaralganda qatorlar kengayib kattalashadi” (Beruniy bu savolida linzaga ishora qilgan). Hozirgi linzalarni ko‘rinishi quyidagi rasmda ko‘rsatilgan:



1-rasm. Linzadan nurlarni o‘tishi va linzada tasvir hosil bo‘lishi.


Yuqorida keltirilgan faktlardan quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin: Beruniy birinchilardan bo‘lib linzaning kattalashtirish, nur yig‘ish, tasvir hosil qilish xususiyatini bilgan va bayon qilgan, ya’ni linza yasash va uni ishlatishga xarakat qilgan mutaffakirdir. Xozirgi kunda hayotni, tabiatni, ilm-fanni, kundalik turmushni linzalarsiz tassavur qilib bo‘lmaydi. Masalan, ko‘zoynakni olaylik (2-rasm): barcha ko‘zida nuqsonli odamlar uni to‘g‘irlashda ko‘zoynakdan foydalanadi. Olamni ko‘rish, ranglarni ajratish inson uchun katta mo‘jizadir. Ko‘zoynak qaboriq va botiq linzalardan yasaladi. Vaholanki, Beruniydan 500 yil keyin 1538-yilda J. Frakastro linzalarni predmetlarni kattalashtirishda qo‘llagan.



2-rasm. Ko‘zning ko‘rish mexanizmi.

1567-yillar F. Mavrolik “Просвешающся о света” (Yorug'lik haqida porlash) asarida (1611-yil o‘limidan keyin e’lon qilingan) ko‘zning anotomiyasi, ko‘rish mexanizmi va unga ko‘zoynaklar (yaqindan va uzoqdan ko‘rar) yordam berishini yozib qoldiradi.

Asosan tabiatda ko‘rish inson va jonivorlar uchun ko‘z orqali amalga oshadi. Ko‘zni markazida asosiy tasvir xosil qiluvchi element ko‘z gavhari (xrustalik) xisoblanadi (3-rasm). Ko‘z gavhari esa xuddi Beruniy aytganidek, ichiga suyuqlik to‘ldirilgan sharsimon shaffof jism linzadir. Hozirgi kunga kelib ko‘zni ko‘rish mexanizmi yaxshi o‘rganilgan. Ko‘zi nuqsonli kishilarni ko‘zlariga suniy gavhar linza bilan almashtirmoqda.




3-rasm. Ko‘z anatomiyasi, unda Xrustalik ko‘z gavhari (linza)ning o‘rni.

1600-yillar linzali ko‘rishga yordam beradigan asboblar ixtiro qilina boshladi. Yansen tomonidan mikroskopni ixtiro qilinishi fanda mikro olamni o‘rganishga katta qadam bo‘ldi. Hozirgi kunda linzali mikroskoplarni fanda va meditsinada ishlatilishi orqali ko‘p muommalar hal etilmoqda.


1590-yillar Golland masterlari tomonidan ko‘rish trubasini ixtiro qilinishi, 1609-yil italyalik mashhur olim G. Galiley tomonidan birinchi marta teleskopni ixtiro qilinishi va uning osmonga qaratilib, Somon yo‘lidagi oq tumanliklar yulduzlar ekanligi, Yupiterni 4 ta yo‘ldoshini ochilishi, oyning relefida vulqon va tog‘larni ochilishi astronomiya fanida yangi erani (teleskop erasi) boshlab berdi (5-rasm).

Teleskop yordamida koinot sirlarini o‘rganish astronomiya va astrofizika fanida hozir ham shiddat bilan davom etmoqda. Mikroskop ham mikro olam tuzilishini o‘rganishda hozirda ham muhim asbob sifatida qo‘llanilmoqda.



5-rasm. Galileo Galiley Teleskopi.

Fotoapparatlar inson hayotida qancha muhim ahamiyat kasb etadi. Hozir ham fotoapparatlarning turmushda nufuzi davom etmoqda. Hozirgi kunga kelib video kameralarni qo‘llanilishi hamma sohalarda, turmushda, fanda, ishlab chiqarishda, kuzatish jarayonlarida, robota texnikada jadal suratlar bilan oshib bormoqda. Albatta teleskop (6-rasm), mikroskop, video kameralar, fotoapparatlarni asosini qabariq va botiq linzalar tizimi tashkil etadi.



6-rasm. Optik teleskoplar tuzilishida linza.

Shuningdek, fanda interferometrlar, spektrometrlar, spektrograflar, proeksion apparatlar, kompyuterlar va televezon eshittirishlarda linzalarni o‘rni benihoyat kattadir.

Ko‘rib turibmizki, Beruniy bobomiz qiziqib, o‘rtaga tashlagan linzalarning xususiyatlari, muammosi 1000-yillar, undan 600 yillar keyin linzalarning xususiyatlaridan foydalanish uchun turli asboblar ko‘rilishi boshlangan. Hozir linzalardan foydalanish eng yuqori pog‘onada. Buni esa 1000-yillar Beruniy bobomiz boshlab bergan. Fizika fanini o‘qitishda optika bobida linzalar, ko‘z tuzilishi, optika tarixi, teleskop, mikroskop tuzilishi kabi mavzularni o‘tishda talabalarga, o‘quvchilarga yuqoridagi Abu Rayxon Beruniy va Ibn Sino bobolarimizni ilmiy meroslari bilan tanishtrib borish, ularni qadriyatlarimizga, Vatanga bo‘lgan hurmati, mehri va qiziqishini oshirib borishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беруний – великий ученый средневековья. Издательство АН УзССР. – Т., 1950 г.

2. Beruniyning fizika sohasidagi ishlari. F. Zikrillayev. Fan nashriyoti, – T., 1973 y.

3. Физика.(Биографический справочник) Ю.А. Храмов. – М.: “Наука” 1983 г.

4. Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining jahon fani rivojidagi o‘rni. 25-28-sentiyabr 2023-yil. Nuks,Urganch,Toshkent. Xalqaro ilmiy konferensiya.

5. Fizika kursi. “O‘qituvchi” nashriyoti, – T., 1973 y. R.I. Grabovskiy.

6. “Beruniy va Ibn Sino – Ikkinchi ming yillikning taqdirini o‘zgartirgan daholar: Ma’mun akademiyasining jahon fani taraqqiyotida tutgan o‘rni” mavzusidagi Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari Xiva 4-may 2023-yil.

7. Avezmuratova Z.A, Qaxxorov S.Q, Avezmuratov O. Astronomiya fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda kompyuter dasturlaridan foydalanish samaradorligi // “Hozirgi zamon fizikasining dolzarb muammolari”, “Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari”. – Buxoro. 2018 y. – № 3. – 6-9 b.

Umida SAPAROVA,
‘‘Toshkent amaliy fanlar universiteti’’ nodavlat ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

TA’LIM MUASSASASI VA OILA HAMKORLIGIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IQTISODIY TARBIYA KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga iqtisodiy tarbiya ko‘nikmalarinii oila hamkorligida shakllantirishninng o‘ziga xos jihatlari, oilada iqtisodiy tarbiyani, oilaviy biznesni va xususiy tadbirkorlikni ilk tushunchalarini maktab yoshidagi o‘quvchilar ongida shakillantirish haqida fikr yuritilgan. Xususan, oila, oilada iqtisodiy tarbiya, oila daromadlari, oila xarajatlari, oilaviy biznesni tashkil etish yo‘llari, mehnat qilish, mehnatni qadrlash kabi tushunchalarni o‘quvchilar ongida shakillantirishga e’tibor qaratilgan va shu kabilar yuzasidan mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Iqtisodiy tarbiya, ko‘nikma, oila hamkorligi, oilaviy biznes, xususiy tadbirkorlik, maktab, oila, mehnat, ong.

В данной статье рассматриваются конкретные аспекты формирования навыков экономического воспитания у младших школьников в семейном сотрудничестве, формирование первых представлений об экономическом воспитании в семье, семейном бизнесе и частном предпринимательстве в сознании школьников. В частности, уделено внимание формированию в сознании студентов представлений о семье, экономическом воспитании в семье, семейном доходе, семейных расходах, способах организации семейного бизнеса, труда, оценки труда, представлены мнения по этому поводу.

Ключевые слова. Экономическое воспитание, умение, семейное сотрудничество, семейный бизнес, частное предпринимательство, школа, семья, труд, сознание.

This article discusses the specific aspects of forming economic education skills for primary school students in family cooperation, forming the first concepts of economic education in the family, family business and private entrepreneurship in the minds of school-aged students. In particular, attention is paid to forming the concepts of family, economic education in the family, family income, family expenses, ways of organizing a family business, working, valuing work in the minds of students, and opinions are presented in this regard.

Key words. Economic education, skills, family cooperation, family business, private entrepreneurship, school, family, labor, consciousness.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida 2022-yilni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”, 2023-yilni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” dasturlarida inson huquqlarini ta’minlash, xalqimizga mehr-oqibat, insoniylik, ahillik, asosiysi inson qadrini ulug‘lash, butun millat, mamlakat taqdirini mustahkamlashga doir vazifalar ko‘rsatilgan.

Bu sohada yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga barcha imkoniyatlar yaratib berish, ularni yetuk va yurt kelajagiga manfaati tegadigan shaxs bo‘lib shakllanishida uzluksiz ta’lim, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida inson qadrini ulug‘lash madaniyatini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Buning uchun yoshlarimizda bolalikdan boshlab iymon-e’tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ma’naviy-axloqiy

salohiyatini yuksaltirish, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan avlodni voyaga yetkazish, ularning tafakkurida inson qadrini ulug‘lash madaniyatini takomillashtirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Oila jamiyatning negizi, barkamol avlod ana shu oilada kamol topadi, tarbiyalanadi. A.S. Makarenkoning “Hozirgi ota-onalar bolalarni tarbiyalash bilan mamlakatimizning kelajak tarixini tarbiyalaydilar”, degan dono iborasi bor. Oilalarda ota-onalar, oilaning keksa avlod vakillari, yoshi kattalar tomonidan amalga oshiriladigan tejamkorlik bolalar uchun o‘ziga xos saboq bo‘ladi. Ota-ona uvol qilish gunohligini farzandiga yoshligidan nasihat yo‘li bilan o‘rgatadi.

O‘qituvchi va ota-onalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga oilaning sarf-xarajatlari tuzilmasini ochib berishlari kerak:

– kundalik xarajatlar tarkibini: ovqatlanish, kiyim-bosh va poyabzal, transport, kvartira haqqi, kommunal, maishiy va boshqa pullik xizmatlar;

– bir yo‘la qilinadigan xarajatlar tarkibini: uzoq vaqt foydalaniladigan buyumlar (uy, dala hovli, kvartira, transport vositasi, murakkab uy-ro‘zg‘or texnikasi, mebel, sanitariya texnikasi, gaz plitasi va hokazo), uy anjomlari sotib olish, soliqlarni to‘lash.

Oilada o‘quvchilar ehtiyotkorlik va tejamkorlikka qanchalik yaxshi o‘rgatilsa, butun jamiyatga ham, o‘ziga ham shuncha ko‘p foyda keltiriladi. Har bir bola oila a’zosi shu ma’noda u ma’lum darajada oila xo‘jaligining ishtirokchisi. Binobarin, biz o‘quvchilarimizni faqat oila xo‘jaliginigina emas, balki jamiyat xo‘jaligini tejab-tergab yuritadigan sadoqatli inson qilib tarbiya qilmog‘imiz lozim.

Ibn Sino o‘quvchilarni hayotga tayyorlash uchun ularga hunar o‘rgatish kerak, deb ko‘rsatadi: “Inson hunarni puxta o‘rganishi shart. Chunki hunar unga kelajakda ro‘zg‘or tebratishi uchun asqotadi. Oilada iqtisodiy tarbiya o‘rgatish zamirida bolada mehnatsevarlikni shakllantirish yotadi. Bu shunday olib borilishi kerakki, bola o‘z mehnatining natijalarini ko‘ra bilsin. Shundagina bola o‘z imkoniyatidan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri foydalanayotganini anglaydi.

Hunar egallash o‘quvchilarni mustaqillikka o‘rgatadi. Bu jarayonda o‘quvchiga hisob-kitob qilishni ham o‘rganadi, ishbilarmonlik va tashabbuskorlik xususiyatlariga ega bo‘ladi. Ota-onalar hovli va xonadonlarni tartibga solish, ovqat pishirish, kir yuvish va kiyim-kechakni yamash, ro‘zg‘or asboblari va uydagi jihozlarni ta’mirlash sohasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mehnatini tashkil etadilar. Bunda ota-ona yumushlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga ularning jismoniy, aqliy, ruhiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda topshirishlari kerak. Ota-ona ishni topshirish bilan cheklanmay, bola uni qanday bajarayotganini nazorat qilishi, lozim bo‘lsa, maslahat, ko‘mak berishi, bolani ruhlantirib turishi maqsadga muvofiq.

Tarbiya samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan oila, maktab, jamoatchilik va mehnat jamoalarining bahamjihat kuch-g‘ayrat sarflashlariga va o‘quvchilarga nisbatan qo‘yiladigan talablari bir xil bo‘lishiga bog‘liq. Shunday ekan, yoshlarda shaxsiy va ijtimoiy turmush masalalarini, shuningdek, vatan mudofaasi, halqaro munosabatlar va tabiat injiqliklari bilan bog‘liq ravishda tug‘iladigan muammolarni to‘g‘ri hal etishga yaroqli bo‘lgan qobiliyati, jumladan, tejash va tejamli bo‘lish qobiliyatini hozirdan boshlab astoydil shakllantirish va o‘stirish g‘oyat katta ahamiyatga ega. Bu borada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iqtisodiy tarbiya ko‘nikmalarini oila hamkorligida shakllantirish texnologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari va bozor qonunlarining belgilari mavjud.

Bozor iqtisodiyotining muhim va umumiy belgilari quyidagilardan iborat:

– turli shakllardagi mulkchilikning mavjud bo‘lishi va unda xususiy mulkchilikning ustun turishi;

– tadbirkorlik va tanlov erkinligi;

– raqobat kurashining mavjudligi;

– davlatning iqtisodiyotga cheklangan holda aralashuvi;

– korxona va firmalarning ichki hamda tashki shart-sharoitlar o‘zgarishlariga moslashuvchanligi.

Ana shu belgilar mavjud bo‘lgandagina bozor mexanizmi yaxshi ishlay boshlaydi.

Buni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iqtisodiy ko‘nikmalarni oila hamkorligida shakllantirish yaxshi yo‘lga qo‘yilganda o‘rgatiladi. Endi ularda iqtisodiy tarbiya mexanizmini tarkib toptirish zarur. Masalan, iqtisodiy tarbiya haqida nimalar deyish mumkin va u qanday amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iqtisodiy ko‘nikmalarni shakllantirish orqali biz maktab o‘quvchilariga iqtisodiy tarbiyani qanday qilib singdirish lozimligi borasida o‘z fikrimizni berib o‘tishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Boshlang‘ich ta’limning 4-sinfida quyidagi iqtisodiy tushunchalar o‘quvchilarga singdirilishi kerak. Bular: biznes, biznesmen, menejer, raqobat, unumdorlik, inqiroz, ko‘chmas mulk, talab, taklif, yarmarka, birja, aksiya, auksion, eksport, chakana savdo, ulgurji savdo va oldingi sinflarda o‘tilgan bilimlar takomillashtiriladi, unda misol uchun: 1-sinflarda o‘tilgan iqtisod, ehtiyoj, aqliy mehnat, jismoniy mehnat, mahsulot, bozor, sotuvchi, xaridor, do‘kon, pul, narx, davlat mulki, mulkdor kabi bir qator tushunchalar o‘quvchilarga o‘rgatilgan. Shuning bois, ular bu tushunchalarning mazmun mohiyatini to‘la anglab yetadilar.

Chunki 1-sinfdan to 4-sinfgacha bu so‘zlar bilan ishlar uzluksiz davom etib kelmoqda. Boshlang‘ich ta’limning 2-sinflarida o‘qiydigan o‘quvchilarga quyidagi iqtisodga oid bilimlar va tushunchalar singdirilgan. Bular: moddiy ehtiyoj, ma’naviy ehtiyoj, tovar, natural maxsulot, ishlab chiqarish, korxona, tadbirkor, reklama, daromad, ish haqqi, mukofot, meros, merosxo‘r, bank, banker kabilar. Bundan ko‘zlangan maqsad, har bir o‘quvchining ongiga iqtisodga oid bilimlarni singdirish va shu orqali ularda iqtisodiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish. Misol uchun moddiy va ma’naviy ehtiyoj tushunganda bilimlarning iqtisodiy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda undan qanday foydalanish mumkin.

Ehtiyoj – jonli mavjudotning hayot kechirish sharoitlariga qaramligini ifoda etuvchi va bu sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holat.

Ehtiyoj – insonning, uning hayoti va rivojlanishini ta’minlaydigan ma’lum sharoitlarga bo‘lgan zarurati. Ehtiyoj – insonning voqelikka va o‘z vazifalariga bo‘lgan munosabatini belgilovchi shaxs xususiyati, oxir-oqibat bu munosabat, uning yashash, hayot tarzi va faoliyati.

Markaziy Osiyo xalqining qadimgi ‘‘Avesto’’ diniy kitobining vujudga kela boshlashi natijasida, ya’ni miloddan 3000 yillar muqaddam shakllanib kelgan G‘arb va jahondagi boshqa mamlakatlarda yashovchi xalqlar ma’naviyatiga zid o‘laroq uyat, andisha, sharm-hayo, ibo, or-nomus, iffat, g‘urur, izzat-nafs, qadr, insonparvarlik, muruvvat kabi axloq me’yorlariga asoslangan insonning ruhiy, axloqiy qiyofasi bo‘lib, shular asosida tashkil topgan urf-odatlar, milliy an’analar va turmush kechirish tarzi hisoblandi. Ana shu tushunchalar mohiyatidan kelib chiqqan holda, ma’naviy va moddiy ehtiyojga to‘xtab o‘tamiz:

Moddiy ehtiyoj – kishilik jamiyati, insonlar o‘zlarining tabiiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida unga muhtojlik sezadi. Misol uchun suvga, kiyimga, uyga, mashinaga ish qurilmalari va hokozalar. Bular to‘g‘risida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga qanday

ma’lumot bersa bo‘ladi va u orqali ularda qanday qilib iqtisodiy tarbiya shakllantiriladi degan savolga, albatta, o‘z javobiga ega bo‘lishi kerak.

Buni amalga oshirishda o‘qituvchi o‘zining mahoratiga, qobiliyatiga tayanib ish ko‘radi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ma’naviy ehtiyoj to‘g‘risida tushuncha berganda, qalb istagiga ko‘ra, kitob o‘qish va uni xarid qilish qo‘g‘irchoq teatrlariga borish, har xil rangdagi gullar rasmini yig‘ish. O‘yin uchun olingan vositalarning ko‘rkamligi, chiroyliligi, odamni o‘ziga jalb qiluvchi tomonlari, uyga, ota-ona bag‘riga talpinishini misol qilib ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Buning iqtisodga oid tomonlari shuki, insonda ehtiyoj paydo bo‘lsa, undan foydalanish mexanizmini ongli tarzda ishga tushurish kerak bo‘ladi. Bu o‘z navbatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida avaylab-asrash, saqlash, yaxshilab tutish, ko‘paytirish, jilo berish, sovg‘a qilish kabi istaklarni ro‘yobga chiqaradi. O‘zida ehtiyoj orqali erishgan narsalarni asrashga va tejashga o‘rganib boradi. Shu tarzda boshlang‘ich sinflarda iqtisodiy ta’lim-tarbiya asta-sekinlik bilan yo‘lga qo‘yilib boriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining iqtisodiy bilimlarini rivojlantirishning bosh maqsadi boshlang‘ich sinfdagi o‘quvchilarda iqtisodiy bilimdonlik, iqtisodiy ong, iqtisodiy madaniyatni tarkib toptirishdan iborat. Bu vazifani bajarishda esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining bilim va mahorati ko‘p narsani hal qilib, ularning iqtisodiy savodxonligi darajasi va o‘z faoliyatini pedagogik muloqat asosida, yani subyekt – subyekt munosabatlariga tayangan holda qurishi ko‘zlangan maqsadga erishishda muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashdagi asosiy talablardan biri ularni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga iqtisodga oid bilim va tushunchalarni taqdim etish bo‘yicha bilim, mahorat va metodika bilan qurollantirish, iqtisodiy fikrlashga o‘rgatishdan iborat.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bir emas, bir necha o‘quv fani bo‘yicha o‘quvchilarga to‘rt yil davomida bilim beradi. Shuning uchun iqtisodga oid tushunchalarni mazkur o‘quv fanlari tarkibiga singdirish, ya’ni integratsiyalashgan tarzda taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integratsiyalashgan darslar mazmunini ishlab chiqish, integrasiyalashgan o‘quv materiallarini taqdim etishning ma’qul shakl, metod va vositalarini tanlay olish, integratsiyalashgan darslarni didaktik jihozlashga o‘rgatish lozim.

Oilada bolalarni yoshligidanoq oilaning iqtisodiy masalalarni hal qilishga jalb etish birinchidan, bolanining ota-ona oldidagi qadrini oshiradi, bolaning o‘ziga ishonchini kuchaytiradi, ikkinchidan, pul sarflash madaniyatiga hisob-kitobga, tejamkorlikka o‘rgatadi. Oila xo‘jaligining iqtisodiy masalalari demokratik asosda, hamma oila a’zolari ishtirokida o‘tadigan oilalarda pul-mablag‘ sababli janjallar ro‘y bermaydi, balki oila a’zolarini oila jamoasiga yanada jipslashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyevning “Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish — eng muhim vazifamizdir”// mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so‘zlagan nutqi. – T., 2021-yil 20-avgust.

2. Boboqulova D.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tadbirkorlik va tejamkorlik orqali iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda oila bilan hamkorlik texnologiyasi. Jurnal “Ta’lim, Fan va innovatsiya” №2 , – T., 2021. – 4-11 b.

3. Xudoyqulov X.J. Shaxsni shakllanishida iqtisodiy tarbiyaning roli. // Xalq ta’limi. – T., 2005. – 5-son, – 69-73 b.

Munira TO'YCHIYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
''Ispan tili amaliy fanlar'' kafedrasi katta o'qituvchisi

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, hamda xorijiy tilni o'quvchilarga o'rgatishdan maqsad, ularda shu tilda so'zlashish, yozish, tinglab, o'qib tushunish kabi ko'nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda ularning tafakkurini, muloqot madaniyati, bilim olishga qiziqishi, faolligi, mustaqillik, mahnatsevarlik va qiziquvchanliklarini uyg'otishning ahamiyati to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Ta'lim, zamonaviy pedagogika, texnologiya, xorijiy til, globallashuv, uzluksiz ta'lim, psixologik, pedagogik va fiziologik rivojlanish.

В статье рассказывается о современных педагогических технологиях в обучении иностранным языкам, а также о целях обучения студентов иностранному языку, о важности воспитания у них мышления, культуры общения, интереса к получению знаний, активности, самостоятельности, трудолюбия, любознательности наряду с формированием у них таких навыков, как говорение, письмо, аудирование и понимание прочитанного.

Ключевые слова. Образование, современная педагогика, технологии, иностранный язык, глобализация, непрерывное образование, психолого-педагогическое и физиологическое развитие.

The article will talk about modern pedagogical technologies in teaching foreign languages, as well as the purpose of teaching foreign language to students, the formation of such skills in them as speaking, writing, listening and reading, as well as the importance of awakening their thinking, culture of communication, interest in acquiring knowledge, activity, independence, dedication, curiosity.

Key words. Education, modern pedagogy, technology, foreign language, globalization, continuing education, psychological, pedagogical and physiological development.

Bugungi kunda o'qituvchiga qo'yiladigan muhim talablardan biri ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishish, amalda qo'llash va shular orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdan iborat. Uzluksiz ta'lim tizimining hamma bo'g'inlarida ham o'qituvchi dars jarayonida noan'anaviy darslarda pedagogik texnologiyalardan foydalanadi, lekin xorijiy tillarni o'quvchilarga o'rgatishda xorijiy til o'qituvchisi o'quvchilarning psixologik, pedagogik va fiziologik rivojlanish qoidalarini bilib, o'rganib, darsning maqsad va mazmunidan kelib chiqib, pedagogik texnologiyalarni darsda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Har bir fanni o'qitishda samarali natijaga olib keluvchi o'quv jarayonini tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Samarali va kafolatlangan natijaga erishish uchun har bir o'qituvchi-pedagog quyidagi uch bosqichli mexanizmga asoslanishi kerak:

– aniq belgilangan maqsad – darsni mavzu yuzasidan to'g'ri tashkil qilish, mavzuni to'liq va izchillikda yoritib berish, o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish va boshqarish,

belgilangan aniq vaqt davomida o‘quvchilarning mavzuni qay darajada tushunganligi, ular tomonidan o‘quv topshirig‘ini to‘g‘ri bajarilganligini baholash, shuningdek, agarda xatolikka yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, yana mustahkamlash chora-tadbirlariga oldindan tayyorgarlik ko‘rishi tushuniladi;

– ta’lim vositalari – o‘quv materialini ko‘rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o‘qitishning samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi;

– qoida va prinsiplar – davlat ta’lim standartlari qoidalariga, o‘quv muassasasi nizomiga, umuman me’yoriy-huquqiy normalarga amal qilish, shuningdek, o‘qituvchi-kadrlarning auditoriya muhiti uchun yaratgan o‘z qoidalariga amal qilishi.

Ta’limni texnologiyalashtirish – o‘qitish jarayonini texnologik yondashuv asosida ta’lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo‘llari va samarali vositalarini tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarini ochib beruvchi pedagogik yo‘nalishdir. Ta’lim berish usuli – belgilangan ta’lim berish maqsadiga erishish bo‘yicha ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘zaro faoliyatini tartibli tashkil etish usuli. Usullarni tanlashning asosiy qoidasi: turlicha emas, balki aynan ta’lim maqsadiga mos keladigan yo‘nalishni tanlash.

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etish ko‘lamini kengaytirish, bu yo‘nalishda ilg‘or tajribalarni tadbiq qilish, har bir fan bo‘yicha bu sohada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish, darslik va o‘quv qo‘llanmalari hamda dasturlar va ma’ruza matnlarini raqamlashtirish, ular bilan har bir talabani ta’minlashga erishish, ilmiy va ilmiy-metodik ishlarda, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining keng joriy etilishiga erishish, ta’lim tizimini zarur axborot vositalari bilan yetarli darajada ta’minlash, ta’lim muassasalarini kommunikatsion tarmoqlarga bog‘lash kabi vazifalar muhim hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya – o‘qitish jarayonlarini optimal tashkil etishdir. O‘quv materiallarini tanlash, qayta ishlab o‘quvchi yoki talabaning kuchiga, o‘zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl va hajmini o‘zgartirish ham ta’lim texnologiyasiga daxldor. Pedagogik texnologiya, o‘z navbatida, ta’lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari va diagnostik maqsadlari asosida o‘quv jarayonlari, ta’lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir, ya’ni fan va texnika yangiliklarini o‘zida mujassamlashtirgan o‘quv jarayonidir. Shuni aytish mumkinki, ta’limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars jarayonida bir nechta masalalarni hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi o‘quvchilarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, o‘quvchilar orasida emotsional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlari fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

Tahlillardan ma’lum bo‘ldiki, xorijiy tillarni o‘qitish jarayonini mutlaqo zamonaviy omilsiz tashkil etib bo‘lmaydi. Shu sababli xorijdagi samarali metodikalarni o‘rganish va shu asosda o‘qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatini milliy qadriyatlarga tayangan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xorijiy tillarni o‘rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg‘or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to‘liq javob bermayapti. Ta’lim asosan an’anaviy uslublarda olib borilmoqda. Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o‘rganishni tashkil qilish, shuningdek, o‘qituvchilar malakasini uzluksiz oshirish hamda ta’lim jarayonini zamonaviy o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta’minlashni har tomonlama takomillashtirish taqozo etiladi.

Chet tili o‘rganishga bo‘lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani

to‘rt aspectga (o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo‘linib, ularning har biri bo‘yicha alohida tushuncha va ko‘nikmalar berilmoqda. Ta’lim texnologiyalari – bu ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o‘quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o‘z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Pedagogik innovatsion texnologiyalarning yana bir o‘ziga xos xususiyati o‘quvchi faoliyatining ustuvorligida, ta’lim jarayonida talaba yoki o‘quvchinining asosiy figura ekanligidadir. Ta’lim jarayonida bilish, leksik, grammatik, talaffuz tushunchalarni to‘g‘ri shakllantirish, o‘quvchi ongida bilimlar sistemasini, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini to‘g‘ri tarkib toptirish innovatsion pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismidir. Hozirgi kunda ta’lim jarayonidagi eng samarali, o‘qituvchi pedagoglar ko‘zlagan maqsadlarga erishishning kafolatlangan o‘qitish uslublari, o‘quvchi talabalarda mustaqil fikrlash, erkin qaror chiqarish ko‘nikmasini shakllantiradigan, ularni muammolarini yechishlari, turli vaziyatlardan qiynalmasdan chiqib ketishlari uchun zamin hozirlashga qodir bunday o‘qitish uslublari pedagogik texnologiyaning eng ilg‘or xususiyatidir.

Xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi:

– ta’lim jarayoni, uning sifati va ahamiyati talabaning bilim olishiga yordam beradi;

– vositalar, o‘qituvchining ko‘nikma va malakalari, yangi pedagogik texnologiya va informatsion texnologiyalar zamonaviy ta’limning asosiy belgilari bo‘lib, bularni amalga oshirish orqali yuqori samaraga erishiladi.

Dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning yana bir foydali jihati shundaki, bu jarayon yordamida o‘qituvchi ham o‘z ustida ishlab, shu bilan malakaviy ko‘nikma va kasbiy mahoratini oshiradi, natijada uning mashg‘ulotlari qiziqarli olib boriladi. Bugunga kelib ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha sifatli bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilishni ta’minlovchi pedagogik usullarni qo‘llay bilishi lozim. Zamonaviy texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o‘rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan amaliy yo‘llanmalar ishlab chiqishi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zlashtirgandan so‘ng, uni ta’lim tizimiga joriy eta olish kerak bo‘ladi. Bu o‘rinda xorijiy til o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish katta ahamiyatga egadir. Xorijiy til o‘qituvchisining zamon talabiga mos faoliyat olib borishida esa uning pedagogik-kommunikativ qobiliyati muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.05.2021-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son Qarori, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2021 y., 07/21/5117/0472-son.

2. Kenjaboyev A. Pedagogik texnologiyalar – dars samaradorligining muhim omili. – T.: Navro‘z, 2012.

3. Saidaxmedov N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2006.

4. Tolipov U.K., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.

Dilnoza ELMURODOVA,
‘‘Iqtisodiyot va pedagogika universiteti’’ nodavlat ta’lim muassasasi,
‘‘Pedagogika va o‘qitish metodikasi’’ kafedrasi o‘qituvchisi

MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA OLIY TA’LIM TASHKILOTLARI TALABALARINING TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI VA KOMPONENTLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada muammoli ta’lim texnologiyalari asosida oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmuni va komponentlari keng yoritilgan. Shuningdek, ‘‘Muammoli ta’lim texnologiyasi’’ning mohiyati va qo‘llanilishi tahlil qulingan.

Kalit so‘zlar. Muammoli ta’lim texnologiyalari, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari, zamonaviy axborot-ta’lim muhiti, mantiqiy fikrlash va isbotlash, standart va nostandart vaziyat, shaxsiy, kognitiv, analitik, faoliyat, refleksiv.

В данной статье широко освещены содержание и компоненты развития навыков критического мышления студентов организаций высшего образования на основе проблемных образовательных технологий. Также анализируется сущность и применение технологии проблемного обучения.

Ключевые слова. Проблемные образовательные технологии, навыки критического мышления, современная информационно-образовательная среда, логическое мышление и доказательство, стандартная и нестандартная ситуация, личностная, познавательная, аналитическая, деятельностная, рефлексивная.

In this article, the content and components of the development of critical thinking skills of students of higher education organizations based on problem-based educational technologies are widely covered. Also, the essence and application of problem-based learning technology is analyzed.

Key words. Problem-based educational technologies, critical thinking skills, modern information-educational environment, logical thinking and proof, standard and non-standard situation, personal, cognitive, analytical, activity, reflexive.

Bugungi zamonaviy ta’lim yoshlardan kuchli salohiyatli, raqobatbardosh, maxsus qobiliyatli, zamon bilan hamnafas, maqsadli, ilmiy-texnika taraqqiyot talablariga javob beradigan, mustahkam irodali bo‘lishni talab etadi. Bu kabi sifatlarni amalga oshirilishda esa muammoli ta’lim texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammoli ta’lim – bu mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, izlanish, umumlashtirish, muammoli vaziyatlar, yechim topish, bilishga qiziqish, ehtiyoj, usullar qo‘llaniladigan bir yangicha tizimidir.

Doimiy o‘zgaruvchan muhitda tanqidiy tafakkur, o‘zgarishlarni boshqarish, muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Zamonaviy axborot – ta’lim muhitida ta’lim oluvchida tanqidiy fikrlashni shakllantirish o‘qituvchining kasbiy kompetentligi darajasini belgilaydigan mezonlardan biridir. Axborot jamiyati, raqamli iqtisodning dolzarb muammolarini hal qilishda o‘zgarishlarga tayyorgarlik, maqsadlarga erishishning nostandart usullarini taqdim qilish, mustaqil qarorlar qabul qilish, tahliliy ko‘nikmalar, jamoada samarali faoliyat olib borish, tashabbuskorlik, mos-

lashuvchanlik muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, zamonaviy ta'lim oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli yechimi pedagoglarning kasbiy kompetentligining yuqori darajasi hamda tanqidiy fikrlashiga (critical thinking) uzviy bog'liq. Yuqori dinamikaga ega jamiyatda axborotni yaratish, tizimlashtirish va baholash yangi bilish usullari va yondashuvlarni ishlab chiqish zaruriyatini vujudga keltirdi. Globallashgan zamonaviy jamiyatda yangi bilimlarni yaratish, ma'lumotlarni qayta baholash, nostandart yechimlar taklif qilish, intensiv usullarni ishlab chiqish, erkin, ijodiy va tanqidiy tafakkur faollashadi.

Mavjud tajribalarni o'rganish va tahlil natijalarini umumlashtirish oliy ta'lim muassasalari talabalarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning zaruriyatini belgilovchi omillarni aniqlashtirish imkonini berdi:

– raqamli iqtisod, globallashuv, iqtisodiy formatsiya almashinuvi, qadriyatlar tizimi transformatsiyasi, fuqarolik jamiyatining shakllanishi;

– jamiyatni rivojlantirish, tafakkurni kengaytirish, o'zgaruvchan va murakkab dunyoda samarali faoliyatni ta'minlash zaruriyati;

– ijtimoiy voqelik, jamiyat hayotining o'zgarib borishi;

– jamiyat va insoniyat taraqqiyoti talablarining o'sishi;

– o'zgarishlarning sur'ati, tezligi ta'lim muassasasida olingan bilimlarga disproporsional ravishda yuqori ekanligi;

– dunyo ta'lim tizimida yangicha yondashuvlar, innovatsion nazariyalar va metodikalarga asoslangan paradigmal jarayonlar yuz berishi;

– barqaror rivojlanish, ekologik tafakkur, umumahamiyatga molik muammolar;

– raqamli iqtisodiyot diskursida ijodiy potensialni rivojlantirish;

– fuqarolik hamjamiyatida yashash ko'nikmalariga ega, kreativ, nostandart fikrlaydigan, ilm-fan, sanoat, ishlab chiqarishda yangi usullarni topa oladigan, tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlash zaruriyati;

– texnologiyalarning jadallashuvi, axborot maydoni va sun'iy intellekt asri ta'lim kontentini qayta ko'rib chiqish zarurati;

– axborot jamiyatida yuzaga kelayotgan ma'naviy tahdidlar (axborot xavfsizligi, kiberbulling, kibersotsiumda muloqot etikasi, shaxsiy ma'lumotlarning konfidensialligi).

Pedagogikaga oid ensiklopedik atamalar lug'atida tanqid: u yoki bu voqea-hodisalarga baho berish maqsadida uni tahlil qilish, muhokama qilish; muayyan narsa haqida salbiy fikr bildirish; kamchiliklarni atroflicha asoslash va hal etish maqsadida bildiriladigan fikr-mulohazalar yig'indisi sifatida ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra tanqidiy fikrlash – axborotlarni o'zlashtirishdan boshlanib, xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab fikrlash jarayonidi.

Tanqidiy fikrlash atamasi Xalqaro terminologiya tizimida fikrlashning "tanqidiy" shakli sifatida yuritiladi. Tanqidiy fikrlash atamasi "kritikos", "tanqid", "baholash", "imtihon" kabi ko'p ma'noli so'zlardan kelib chiqqan bo'lib, aqliy qobiliyat ma'nosini bildiradi. Shuningdek, "baholash", "aniqlash", "hukm qilish", "ajratish qobiliyati" kabi ma'nolarga ega.

"Tanqidiy fikrlash" atamasi ilk bor XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. XXI asrda esa ta'lim texnologiyalarining asosi sifatida o'rganish jarayoni kuzatilmoqda. Quyida ''tanqidiy fikrlash'' atamasiga turli soha olimlari tomonidan berilgan tavsiflarni keltiramiz.

D. Xelpern "tanqidiy fikrlash" tushunchasiga quyidagi ta'rifni beradi: "tanqidiy fikrlash – bu istalgan yakuniy natijaga erishish ehtimolini oshiruvchi kognitiv texnika va strategiyalardan foydalanishdir". M.V. Klarinning ta'kidlashicha, ''tanqidiy fikrlash'' nimaga ishonish yoki qanday harakat qilish kerakligini hal qilishga qaratilgan oqilona,

aks ettiruvchi fikrlashdir. Bunday tushuncha bilan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarni (ko‘nikmalarni) va moyillikni (munosabatlarni) o‘z ichiga oladi”. Tanqidiy fikrlash mexanizmi, E.I. Fedotovskayaning fikriga ko‘ra, tanqidiy fikrlash murakkab va noaniq vaziyatlar va muammolarni sintez qilish, tahlil qilish va baholash uchun asosiy intellektual ko‘nikmalarni (bilim va tushunish) qo‘llash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash nazariyasi va amaliyoti sohasidagi AQShning yetakchi ekspertlaridan biri Richard Pol tanqidiy fikrlash tushunchasini turli xil, ziddiyatli bo‘lmagan usullarda aniqlash mumkin deb hisoblaydi.

Devid Klusterning tanqidiy fikrlashga bergan ta’rifi besh elementdan iborat:

– har bir subyekt o‘z g‘oyalarini, baholarini va mulohazalarini boshqalardan mustaqil ravishda shakllantiradi;

– axborot tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, uning yordami bilan motivatsiya yaratiladi, ularsiz inson tanqidiy fikrlay olmaydi;

– tanqidiy fikrlash savol berish va hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolarni tushunishdan boshlanadi;

– tanqidiy fikrlash asosli bo‘lishi kerak. Argumentatsiya uchta asosiy elementni o‘z ichiga oladi. Asosiy element – bu tezis, asosiy g‘oya yoki taxmin. Tezis bir qator dalillar bilan asoslanadi. Bu elementlarning barchasida to‘rtinchi element ya’ni asosda aks etadi. Asos – bu butun argument uchun asos bo‘ladigan umumiy asos yoki havola;

– tanqidiy fikrlash ijtimoiy fikrlashdir. Har bir nazariya hamkorlikda sinovdan o‘tkaziladi va kengaytiriladi. Shuning uchun ham ilmiy nazariya va g‘oyalar har doim nashrlarni, shuningdek, bahs va munozaralarni talab qiladi.

Mavjud pedagogik va psixologik manbalarning tahlili asosida fikrlashning ushbu sifatini quyidagicha tavsiflash mumkin: fikrlashning xato va nomutanosibliklarni belgilovchi, xatolarni bartaraf etish; obyektlarning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlovchi, nazorat qilinayotgan obyektlar va jarayonlarni namuna bilan taqqoslash; taqdim etiladigan taxminlarni haqqoniyligini isbotlovchi qobiliyatni tavsiflovchi xususiyati uning tanqidiyligini tashkil etadi.

Bizning nuqtayi nazarimizga ko‘ra, tanqidiy fikrlash (ingl. critical thinking) – narsa va hodisalarni oqilona xulosalar chiqarish bilan tahlil qilishda foydalaniladigan va asoslangan baholar, talqinlar berishga, shuningdek, olingan natijalarni vaziyatlar va muammolarga qo‘llash imkonini beradigan mulohazalar tizimi. Umumiy ma’noda tanqidiy fikrlash deganda tanqiddan oldingi fikrlashdan ko‘ra yuqoriroq darajada fikrlash ko‘zda tutiladi.

Tanqidiy tafakkurga ikki komponentdan, iborat deb qarash mumkin: 1) ma’lumot va e’tiqodni shakllantirish va qayta ishlash ko‘nikmalari to‘plami; 2) intellektual majburiyatga asoslangan xatti-harakatlarni boshqarish uchun ushbu qobiliyatlardan foydalanish odati.

R. Bustrom tanqidiy fikrlash tarkibida 3 ta komponentni aniqladi: motivatsion; faoliyat; aks ettiruvchi.

Tanqidiy fikrlash tushunchasining mazmun mohiyatini o‘rganish, mazkur hodisaning keng qamrovini, shuningdek, mazkur muammoga doir ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganish va tahlil natijalarini umumlashtirish orqali tanqidiy fikrlashning shaxsiy, kognitiv, analitik, faoliyat, refleksiv kabi komponentlari (tuzilishi)dan iborat tuzilmasini aniqlashtirishga erishdik.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, tanqidiy fikrlash muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabil qilish, muammolarni hal qilish, uning yechimini topishga imkon beradi. Shundan kelib chiqib, biz talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda “Muammoli ta’lim texnologiyalari”ning imkoniyatlarini o‘rgandik.

Muammoli ta’lim – bu o‘quvchilarning bilish faolligi hamda ijodiy mustaqilligini oshiradi. Muammoli ta’limning mohiyati – muammoli vaziyatlarni yaratish (tashkil etish), ularni o‘qituvchi va talaba hamkorligida hal etish. Bunda, talabalarning mustaqil ishlashi (fikr yuritishi, masalalarni hal etishi) hamda o‘qituvchining faoliyati yo‘naltiruvchi bo‘lishi shart. Muammo – (yunon. problema – masala) – yechimi talab etiladigan murakkab savol, masala.

Muammoli ta’lim texnologiyasi g‘oyasining mualliflari T.V. Kudryavsev, A.M. Matyushkin, V. Okon va M.I. Maxmutovlardir. Mazkur texnologiyaning maqsadi o‘qituvchi rahbarligida talabaning o‘quv muammolari yechimiga qaratilgan mustaqil ijodiy izlanuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Muammoli ta’lim texnologiyasi tadbig‘i talabada yangi bilimlar, uquv va malaka, rivojlanuvchi bilish qobiliyati, eruditsiya (bilim, aql-zakovat), bilishni sevish, ijodiy fikrlash kabi muhim ahamiyatga ega boshqa shaxsiy fazilatlar hamda qobiliyatlarni shakllanishiga olib keladi. Ushbu texnologiya qo‘llanilganda pedagog bilimlarni tayyor holda yetkazilmaydi, balki talabaga mavzu bo‘yicha muammoli vaziyat hosil qilinadi, muammo yechimi bo‘yicha talabada fikr va g‘oya uyg‘onishiga sharoit yaratiladi.

Muammoli vaziyatlar quyidagi qarama-qarshiliklarni faollashtirish natijasida yuzaga keltiriladi:

– mavzu bo‘yicha ma’lum va ma’lum bo‘lmagan masalalar (ma’lum usullar va uslublar yordamida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish imkoniyati yo‘qligi);

– egallangan bilimlar va yangi dalillar (juda past yoki yuqori darajadagi bilimlar, hayotiy va ilmiy bilimlar, mavjud bilimlar bilan yangi talablarni mos kelmasligi);

– mavjud bilimlar bilan uni qo‘llashdagi o‘zgaruvchan amaliy sharoitlar;

– masalani mumkin bo‘lgan nazariy yechish yo‘llari va tanlangan usul (yo‘l)ni amaliyotga mos kelmasligi (qo‘llab bo‘lmasligi);

– o‘quv topshirig‘ni amaliy bajarish bo‘yicha erishilgan natijalar va talabada uni nazariy jihatdan asoslashga oid bilimlarning yo‘qligi (yetarli emasligi).

Muammoli vaziyat qachonki, muammoli topshiriq (o‘quv topshirig‘i, savollar, amaliy topshiriq va b.) talabaning intellektual imkoniyatlariga mos kelsa, yuzaga kelgan muammoli qarama-qarshiliklarni hal qilish va muammoli vaziyatdan chiqishga undasagina didaktik ahamiyatga ega bo‘ladi.

Muammoli ta’lim texnologiyasining asosiy shakllari:

– muammoni bayon etish – o‘qituvchining talabaga qo‘yilgan muammoni hal qilishning ilmiy-mantiqiy yechimini namoyish etishi;

– qisman-izlanish faoliyati – o‘qituvchi tomonidan maxsus savollar berish orqali, talabada muammoni yechishga qaratilgan mustaqil fikrlar va savollar javobini topish bo‘yicha faol harakatni uyg‘otish;

– tadqiqiy faoliyat – muammoni hal qilish usullari va yo‘llarini talaba tomonidan to‘liq mustaqil izlashini tashkil etish.

Muammoli ta’lim texnologiyasining afzalliklari: talabaning aqliy rivojlanishini yuqori darajasiga erishish, bilish mustaqilligini shakllantirish; o‘quv faoliyatiga qiziqishini o‘stirish; o‘qitishning mustahkam natijalarini ta’minlash.

Muammoli ta’lim texnologiyasining kamchiliklari: rejalashtirilgan natijalarga erishishda katta vaqt sarfini talab etilishi; bilish faoliyatini talaba tomonidan sust boshqarilishi.

Yuqoridagi fikr mulohazalar quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi: axborot va bilimlar jamiyati kontekstida tanqidiy fikrlash – axborot manbalarining ishonchliligini baholash; zarur ma’lumotlarni topish va qayta ishlash; taxminlar, hulosalar, dalillar, farazlar, e’tiqodlarni yaratish; muammoni tan olish va uni hal qilish yo‘llarini topish; kerakli ma’lumotlarni to‘plash va tartibga solish; tasdiqlanmagan taxminlar va baholarni tan olish; idrok etishda aniqlik va selektivlik; faktlar va ma’lumotlarni talqin qilish; dalillarni baholash; mantiqiy xulosalar chiqarish va umumlashtirish; o‘z e’tiqod tizimini qurish; muammoni hal qilishning turli invariant usullarini topish; fikrlash ijodkorligi; fikrlarning o‘ziga xosligi; nostandart, g‘ayrioddiy yechimlar topish qobiliyati; bilimlar generatsiyasi; muayyan kognitiv doiradan tashqariga chiqish; bilishning irratsional elementlarini ishlab chiqish kabilarni ta’minlaydigan refleksiv-baholovchi faoliyat sifatida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramova G.R. O‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirish: ped.fanl.dokt.diss. …avtoreferati. – T., 2023. – 65 b.

2. Brookfield S. Self-Directed Learning, Political Clarity and the Critical Practice of Adult Education. Adult Education Quarterly, Volume 43, No. 4, 1993. Elektorn resurs: http://www.nl.edu/academics/cas/ace/facultypapers/StephenBrookfield_Learning.cfm S.Gupta, R.Bustrom.

3. Technology-Mediated Learning: A Comprehensive Theoretical Model // Business Journal of the AIS. 1 September, 2009. Elektorn resurs: https://www.semanticscholar.org/paper/Technology-Mediated-Learning%3A-A-Comprehensive-Model-Gupta-Bostrom/0fd4f69ae15d917ae832817a6c50e42e45ced95d

4. Mamadjanova N.A. Boshlang‘ich sinf ingliz tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish metodikasi: ped.fanl.bo`y.fals.dokt.diss. avtoreferati. – Namangan. 2022. – 51 b.

5. Nasimova Z.I. Innovatsion ta’lim sharoitida oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish: ped.fanl.bo`y.fals.dokt.diss. avtoreferati. – T.: 2023. – 62-b.

6. Nazarov Q. Falsafa metodologiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. – 78-b.

7. Paul R., Elder L. The Critical Thinking Reading and Writing Test Publisher: Foundation for Critical Thinking, 2006. – 68 p.

8. Xodjiyeva F.O. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning didaktik asoslari (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari misolida): pedagogika fanlari nomzodi ... diss. avtoreferati. – T.: 2008. – 21 b.

9. Кларин, М.В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках / М.В. Кларин. – М.: Просвещение, 1994. – С. 372

Zulfizarxon YULCHIYEVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent
davlat texnika universiteti dotsenti

MUHANDISLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada muhandislik madaniyatini rivojlantirishda ilg‘or, innovatsion texnologiyalarning roli va ahamiyati, muhandislik madaniyatini texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida shakllantirishning metodologik asoslari haqida batafsil yoritishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar. Innovatsiya, texnologiya, muhandislik madaniyati, innovatsion g‘oyalar, innovatsion siyosat.

В статье предпринята попытка подробно осветить роль и значение передовых, инновационных технологий в развитии инженерной культуры, методологические основы формирования инженерной культуры у студентов технических высших учебных заведений.

Ключевые слова. Инновации, технологии, инженерная культура, инновационные идеи, инновационная политика.

The article attempts to highlight in detail the role and importance of advanced, innovative technologies in the development of engineering culture, methodological foundations of the formation of engineering culture among students of technical higher educational institutions.

Key words. Innovation, technology, engineering culture, innovation ideas, innovation policy.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2018-yilga ‘‘Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili’’ deb nom berishni taklif etdi. Davlatimiz rahbari innovatsiyaning ahamiyati to‘g‘risida quyidagilarni ta’kidladi: “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”.

2018-yilda respublikamizda innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilandi: “Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi e’tiborimiz markazida bo‘ladi”[1].

Demak, bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, texnika sohasida ta’lim olayotgan talabalarga ham muhandislik madaniyatini rivojlantirishda, sohaning bugungi kundagi ahamiyatini oshirishda innovatsion g‘oyalar muhim o‘rin egallaydi. Zero, innovatsiya tushunchasining o‘zi (lotincha “novus” – yangi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda XIX asrlarda qo‘llanila boshlagan. Avval u alohida elementlarni

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 23-dekabr.

bir sohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan bo‘lsa, texnika sohasida esa texnikaviy yangiliklar kiritish qonuniyatlarini o‘rgangan firmalar foyda olish uchun ‘‘innovatsion siyosatni’’ butun bir tizim sifatida o‘zlashtirishdi. Mazkur faoliyat jamiyat hayotining ixtiyoriy bo‘g‘inini yangilash bo‘yicha umumiy belgilarga, qonuniyatlar, yangilik kiritish mexanizmiga ega. Xoh texnik, xoh pedagogik sohada bo‘lsin, innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Chunki interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish talaba uchun qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo‘llanilganda talaba o‘qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladi.

Har qanday sohada o‘qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Shunday ekan, o‘qituvchi o‘z oldiga nimaniki maqsad qilib qo‘ysa, albatta dars jarayonidagina buni to‘liq amalga oshira oladi.

Shuningdek, ta’lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko‘lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora-tadbirlarni ko‘llash talab etiladi.

Ta’limdagi innovatsion faoliyat ta’lim sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo‘lishiga qaratilgan kompleks faoliyatni o‘z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta'lim jarayonini tashkil etishning usul va usullari, ta’lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalar bo’lishi mumkin.

Innovatsiyalar yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlar, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo’lishi loyihalash ishlarining natijasi bo‘lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar ishlab chiqiladi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Innovatsiyalar ta’lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O‘quv jarayonida talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirish amalga oshiriladi, keyinchalik ular innovatsiyalarni yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy hayotning turli sohalarida qo‘llanilishi mumkin. Ta’limda innovatsion texnologiyalar o‘qitishda muayyan yondashuvlarni qo‘llash asosida qo‘llaniladi, ya’ni. yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo‘lgan talablar va maqsadlarni o‘z ichiga olgan tamoyillar.

Bemalol aytish mumkinki, bugungi zamonaviy inson dunyosining surati asosan dinamik, statsionar emas, yangi ma’lumotlar ta’siriga ochiq. Uni yaratish uchun yetarlicha moslashuvchan fikrlash shakllanishi kerak, buning uchun asosiy fikrlash turi sifatida strukturani qayta qurish, tushunchalar mazmunini o‘zgartirish va uzluksiz ijodkorlik jarayonlari tabiiydir. Har qanday kompleks kabi rivojlanayotgan tizim, ta’lim tizimi mos ravishda ishlaydigan o‘z-o‘zini tashkil etish va o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmlariga ega umumiy tamoyillar sinergetika. Xususan, har qanday o‘z-o‘zini tashkil qilish tizimi murakkab, chiziqli bo‘lmagan, ochiq va stokastik tizim bo‘lishi kerak, ular ko‘p fikrlarga ega. Bu xususiyatlarning barchasi ta’lim tizimiga, shu jumladan, muhandislik ta’liming quyi tizimiga xosdir. Shuni ta’kidlash kerakki, ba’zi muhim fikrlar (masalan, ta’lim darajasi va universitet bitiruvchilariga bo‘lgan talab) sezilarli darajada kechiktiriladi. Madaniyatning rivojlanishi va biologik evolyusiya o‘rtasidagi qiziqarli o‘xshashlikni olim

D. Danin ilmiy-texnikaviy inqilob sharoitida fan va san'atning o'zaro ta'siri haqidagi munozarada bergan. Uning aytishicha, tabiatga ergashib, fan va san'at madaniyat olamida evolyusiyaning ikkita hal qiluvchi mexanizmi – umumiy tur irsiyat va individual immunitet funksiyalarini ajratdi. Ilm-fan butun insoniyat uchun yagonadir, dunyoni obyektiv bilish umumiy ahamiyatga ega. San'at hamma uchun har xil: o'zini dunyoda yoki o'zi orqali dunyoni bilish, har bir kishi o'zining individualligini aks ettiradi. Fan, go'yo irsiyatning konservatizmiga taqlid qilgandek, barcha uchun majburiy bo'lgan tajriba va bilimlarni avloddan avlodga o'tkazadi. San'at, immunitet kabi, odamlarning individual farqlarini ifodalaydi. Bu haqda I. Gyote ixchamroq aytdi: "Ilm – biz, san'at – men".

Sinchiklab nazar solsak, mamlakatimizda biz hozirda bir qator sohalarda rivojlanishni ''quvib yetish'' mantig'ida harakat qilmoqdamiz: samarali dizayn va ishlab chiqarish uchun global standartlar va amaliyotlar, axborot tizimlari, dizayn va muhandislikning bir qator yo'nalishlari.

''Axborot portlashi'' va jamiyatdagi tez o'zgarishlar, texnosferaning doimiy yangilanishi muhandislik kasbi va muhandislik ta'limiga tobora yuqori talablarni qo'ymoqda.

Xususan, zamonaviy davrning eng xarakterli xususiyatlaridan biri bu inson faoliyatining barcha jabhalarini – ijtimoiy, tashkiliy, texnik, ta'lim, rekreatsion va boshqalarni loyihalashning yetakchi rolidir. Ya'ni, vaziyatni asta-sekin kuzatib borishdan, inson o'z kelajagini batafsil prognoz qilishga va uni tezda amalga oshirishga o'tadi. Bunday amalga oshirish jarayonida, g'oyalarni amalga oshirishda ushbu jarayonni tashkil etuvchi va eng yangi texnologiyalar asosida muayyan loyihani amalga oshiruvchi muhandislik faoliyatining o'rni katta. Shu bilan birga, davlat va xalqlarning, shuningdek, shaxslarning o'rni va farovonligi pirovard natijada yangi texnologiyalarning rivojlanishiga bog'liq. Dizayn faoliyatidagi markaziy shaxs muhandis ekan, uning asosiy vazifasi ma'lum va yangi ishlab chiqilgan texnologiyalar tomonidan tejamkorlik bilan amalga oshiriladigan yangi tizimlar, qurilmalar, tashkiliy yechimlarni yaratishdir. Muhandislik faoliyatining tizimli tabiati muhandislik tafakkurining uslubini ham oldindan belgilab beradi, u tabiatshunoslik, matematik va gumanitar tafakkurdan formal-mantiqiy va intuitiv operatsiyalarning teng og'irligi, keng eruditsiya, jumladan, nafaqat ma'lum bir fan sohasini, balki bilimlarni ham bilish bilan ajralib turadi. Iqtisod, dizayn, xavfsizlik muammolari va boshqalar. Bugungi kunda dizayn deganda zarur cheklovlarga – ekologik, texnologik, iqtisodiy va hokazolarga javob beradigan, oldindan belgilangan xususiyatlarga ega bo'lgan yangi obyektlarni yaratishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Zamonaviy ma'noda esa "dizayn madaniyati" odamlarning ijodiy faoliyatining deyarli barcha tomonlarini – axloqiy, estetik, psixologik jihatlarini o'z ichiga oladi. Loyiha keng ma'noda odamlarning atrof-muhitni o'zgartirish, nafaqat texnik, balki ijtimoiy, psixologik, estetik maqsadlarga erishishdagi faolligidir. Dizayn madaniyatining markazi yangi ma'lumotlarning funksiyasini belgilaydigan muhandislik faoliyati bo'lib qoladi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, muhandis fan-texnika taraqqiyoti va dunyoni o'zgartirishdagi asosiy figuradir.

Texnologik va axborot taraqqiyoti davrida muhandislik kasbining alohida roli yaxshi ma'lum, ammo zamonaviy muhandislik ta'limiga qo'yiladigan o'ziga xos talablar to'liq shakllantirilgan emas. Ushbu talablar muhandislik faoliyatining tizimli tabiati va uni baholash mezonlarining ko'p qirraliligi bilan belgilanadi: funksional va ergonomik, axloqiy va estetik, iqtisodiy va ekologik va ushbu faoliyatning vositachilik xususiyati.

Jamiyat rivojiga fan va texnika ta'sirining kuchayishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning misli ko'rilmagan darajada o'sishi, sayyoramizdagi odamlar soni, zamonaviy tex-

nika va texnika imkoniyatlari bilan bog‘liq global muammolarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Yangi muhandislik tafakkurining asosini shaxs va jamiyatning qadriyat munosabatlari, muhandislik faoliyatining maqsad-muddaosi tashkil etadi. Inson faoliyatining barcha jabhalarida bo‘lgani kabi, axloqiy mezonlar, insonparvarlik mezonlari asosiy mezonga aylanadi. Akademik N.N. Moiseyev ‘‘ekologik va ma’naviy imperativ’’ atamasini taklif qildi, bu odamlarni ommaviy qirg‘in qilish vositalarini yaratishga, atrof-muhitning buzilishiga olib keladigan har qanday tadqiqot, ishlanma va texnologiyani so‘zsiz taqiqlashni anglatadi. Bundan tashqari, yangi muhandislik tafakkuri turli jarayonlarning yaxlitligi, o‘zaro bog‘liqligi, muhandislik va boshqa faoliyatning ekologik, ijtimoiy, axloqiy oqibatlarini bashorat qilish bilan tavsiflanadi.

Har bir mutaxassis uchun eng muhimi, bu haqiqatni anglashdir. Zamonaviy sharoitlar hayotning boshida barcha keyingi yillarda ishlash uchun yetarli ta’lim olish mumkin emas. Shuning uchun ham kasbiy sohada ham, faoliyatning boshqa sohalarida ham o‘rganish qobiliyati, dunyo haqidagi o‘z tasavvurini eng so‘nggi yutuqlarga muvofiq qayta qurish qobiliyati eng muhim ko‘nikmalardan biridir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish eski ta’lim texnologiyalari asosida mumkin emas, yangi texnik va dasturiy ta’minotni hamda ochiq, birinchi navbatda, masofaviy ta’limning yangi usullarini talab qiladi.

Muhandislik faoliyati – maxsus san’at sifatida, ya’ni rasmiylashtirilmagan texnikalar, ko‘nikmalar to‘plami sifatida, ijod obyektining sintetik ko‘rinishi sifatida, noyob va shaxsiy dizayn natijasi sifatida – birinchi navbatda shaxsiy o‘zaro ta’sirga asoslangan o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Ko‘pgina muhandis-o‘qituvchilar xizmatni o‘rganishni talabalarni muhandislik kontekstiga ta’sir qilish orqali dasturlarini takomillashtirishning bir usuli deb bilishadi, shuningdek, ularga professional va shaxslararo ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ushbu qiymatlar muhandislik va texnologiyalar bo‘yicha akkreditatsiya kengashi (ABET) muhandislik maktablari uchun standartlarni, muhandislik dasturi uchun ABET ‘‘o‘z talabalaridan global, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy sharoitda muhandislik yechimlarining ta’sirini tushunish uchun zarur bo‘lgan keng ma’lumotga ega ekanliklarini namoyish etishni’’ talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 23-dekabr.

2. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. – T.: Fan va texnologiyalar, 2016. – 77 b.

3. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o‘rganish: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. – M.: Akademiya, 2009 y.

4. ABET, Muhandislik dasturlarini akkreditatsiya qilish mezonlari, Muhandislik akkreditatsiya komissiyasi Muhandislik va texnologiyalar bo‘yicha akkreditatsiya kengashi., 2005.

Temurjon KOMILOV,
A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA MOLIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI (Nazariy yondashuvlarning tahlili)

Annotatsiya

Maqolada ta’limni moliyalashtirish va ta’lim sifati orasidagi o‘zaro bog‘liqlik borasidagi nazariy yondashuvlar o‘rganilgan va ular orasidagi munozarani tahlil qilish va ta’limni moliyalashtirishni takomillashtirish mexanizmlari haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, ta’lim sifati va moliyalashtirish darajasi (miqdori) orasidagi korrelatsion munosabatlarni bor yoki yo‘q ekanligini ta’kidlovchi olimlar shartli ravishda ikki guruhga bo‘linib ochiqlangan. So‘ngra ta’limni moliyalashtirish samaradorligi bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirilgan, taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim sifati, ta’limni moliyalashtirish, samaradorlik, sifat va moliyalashtirishning o‘zaro bog‘liqligi.

В статье рассматриваются теоретические подходы к взаимосвязи между финансированием образования и качеством образования, а также анализируется дискуссия между ними и высказывается мнение о механизмах улучшения финансирования образования. Также, ученые, подчеркивающие наличие или отсутствие корреляционной связи между качеством образования и уровнем (количеством) финансирования, условно делятся на две группы. Затем были даны отзывы об эффективности финансирования образования, выдвинуты предложения и рекомендации.

Ключевые слова. Взаимосвязь качества образования, финансирования образования, эффективности, качества и финансирования.

The article explores theoretical approaches to the relationship between education funding and the quality of education, and comments on the analysis of the debate between them and the mechanisms for improving education funding. Also, scientists who argue that there is or is not a correlation relationship between the quality of education and the level (amount) of funding are conditionally disclosed in two groups. Feedback was then made on the effectiveness of education funding, and suggestions and recommendations were put forward.

Key words. The correlation of quality of education, education funding, efficiency, quality and financing.

Ta’lim jamiyat va odamlarga ko‘plab iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltirgani uchun kelajakka sarmoya, deb qaraladi. Shu bilan birga, ta’limni moliyalashtirish masalasi barcha davlatlarda eng dolzarb va munozarali masaladir. Odatda ta’limga sarflanadigan xarajatlar asosan davlat byudjetlaridan kelib chiqqanligi uchun ta’limni moliyalashtirish ta’lim va moliya ekspertlarining bahs-munozaralariga sabab bo‘lmoqda.

Ushbu bahs-munozaralardagi asosiy savollar: Davlat byudjetidan ta’limni moliyalashtirish uchun qancha mablag‘ ajratilishi kerak? Moliyalashtirish qanday amalga oshirilishi kerak? Ya’ni uning mexanizmi, eng asosiysi moliyalashtirish darajasi (mab-

lag‘ning ko‘p yoki kamligi) ta’lim sifatiga ta’sir qiladimi? Ta’lim sifatini oshiradimi? Va boshqa shu kabi masalalar ustida tortishuvlarni ko‘rishimiz mumkin.

Birinchi savol bo‘yicha, ya’ni ta’limni moliyalashtirish uchun qancha mablag‘ ajratish kerakligi davlatlarga ko‘ra farqlanadi. Jumladan, 2018-yilda OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) mamlakatlarida boshlang‘ich ta’limdan oliy ta’limgacha bo‘lgan bir o‘quvchi uchun o‘rtacha yillik xarajatlar deyarli 11 700 AQSh dollarini tashkil etdi. Ammo bu o‘rtacha ko‘rsatkich OECD hamkor mamlakatlarida turlichadir. Masalan, OECD bo‘yicha eng kam ko‘rsatkichga ega Kolumbiyada bir o‘quvchiga yillik xarajat taxminan 3100 AQSh dollarini tashkil qilsa, Norvegiya va Qo‘shma Shtatlarda bu taxminan 18 000 AQSh dollarini, eng yuqori ko‘rsatkich Lyuksemburgda 24 900 AQSh dollaridan ortiqni tashkil etdi[1]. Bundan kelib chiqadiki, ta’limni moliyalashtirishda davlatlarning iqtisodiy ko‘rsatkichi katta ahamiyatga ega. Shunday bo‘lsa da, ta’limni moliyalashtirish masalasida ma’lum bir tavsiyalar bor. Xususan, YuNeSKOning Education 2030 Action Framework Barqaror rivojlanish maqsadlarida dunyo davlatlariga yalpi ichki mahsulotlarining (YaIM) kamida 4 foizi va yillik hukumat xarajatlarining kamida 15 foizini ta’limni moliyalashtirish uchun ajratishini tavsiya qiladi[2]. Mamlakat boyligi va rivojlanish ko‘rsatkichlari qancha bo‘lishidan qat’iy nazar YaIMning 4 foizidan kam bo‘lmagan holda ta’limni moliyalashtirish ushbu davlat va jamiyatda ta’lim ustuvorligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi savol, ya’ni moliyalashtirish va uning mexanizmi qanday amalga oshirilishi kerakligi ta’lim siyosatidagi ustuvorliklardan kelib chiqmoqda. Yana OECD misolida oladigan bo‘lsak, ushbu tashkilot a’zolari va hamkor davlatlarining ba’zilarida oliy ta’limga katta mablag‘ ajratsa, boshqalari esa uch yoki to‘rt yoshli bollar uchun, ya’ni maktabgacha ta’limga ko‘proq sarmoya kiritadi[3]. Dunyoning ba’zi mamlakatlari o‘rta ta’limga ko‘proq mablag‘ yo‘naltiradi. Umuman olganda, bu o‘sha davlatning ta’lim ustuvorliklaridan kelib chiqadi. Bu bilan bog‘liq yana bir masala moliyalashtirish qanday amalga oshirilishi kerak? Buning dunyoda keng tarqalgan mexanizmi o‘quvchi boshiga moliyalashtirishdir. Ba’zi davlatlarda xususan O‘zbekistonda uchta komponentni inobatga olib moliyalashtiradi: o‘quvchi soni, sinf va o‘qituvchi (malakasi va yuklamasidan kelib chiqib). Bundan tashqari, moliyalashtirish mexanizmlari markazlashgan va mahalliy ko‘rinishi bilan farqlanadi. Markazlashgan moliyalashtirish tepadan pastga qarab bir tizim va bir strategiya asosida (ta’lim vazirligi – hududlar – tumanlar – maktab) amalga oshirilsa, mahalliy moliyalashtirishda esa pastdan tepaga qarab bir tizim ammo farqli strategiyalar asosida (maktab – tuman – hudud – ta’lim vaziriligi) amalga oshiriladi. Har ikki mexanizmning o‘ziga yarasha yutuq va kamchiliklari mavjud. Masalan, markazlashgan moliyalashtirishda ta’lim islohotining uzluksizligi, davomiyligi va monitoringini ta’minlash imkonini bersa, kamchiligi mahalliy sharoitlarni va maktab jamoasining istaklarini inobatga olmaslik holatlari bo‘lishi mumkin. Mahalliy moliyalashtirishning ijobiy tomoni mahalliy imkoniyatlar va shart-sharoitlardan, maktab jamoasining istak va xohishlaridan kelib chiqib moliyalashtirilsa, salbiy tomoni ta’lim natijalari va xarajatlarni nazorat va monitoring qilish imkoniyatlarini juda zaifligi bilan ochiqlanadi..

Uchinchi savol va bahs-munozara bu – moliyalashtirishning ta’lim sifatiga ta’siri masalasidir. Maqolamizning ham asosini tashkil etadigan ushbu masala bo‘yicha katta

[1] OECD: Education at a Glance 2021: OECD Indicators, OECD Publishing, Paris, 2021, p. 232.

[2] UNESCO, Global Education Monitoring Report-2020, ‘Inclusion and education: All Means All’. Paris, 2020.

[3] OECD: Education at a Glance 2021: OECD Indicators, OECD Publishing, Paris, 2021, https://doi.org/10.1787/b35a14e5-en.

tortishuv mavjud. Bu borada ta'lim tadqiqotchilarini shartli ravishda ikki guruhga ajratishimiz mumkin: birinchi guruh olimlari – ta'limni moliyalashtirish darajasi (miqdori) ta'lim sifatiga ta'sir qilmaydi, qilsa ham juda kam ta'sir qilishini ta'kidlasa, ikkinchi guruh olimlari esa moliyalashtirishning darajasi (miqdori) ta'lim sifatini oshishiga katta ta'sir qilishini ilgari suradi.

Birinchi guruhga kiruvchi olimlarning iddoalari. Stenford universiteti professorlari E. Xanushek va A. Lindset AQShda 1960-yildan (inflatsiyalarni qo'shib hisobga olganda) 2009-yilgacha bir o'quvchiga to'g'ri keladigan xarajatlar deyarli to'rt barobar ko'payganiga qaramay, ta'lim yutuqlari bir xil ko'rinishda saqlanib qolganini ta'kidlaydi va davlat yoki shtat miqiyosida ta'lim uchun moliyalashtirishni oshirishdan hech qanday naf yo'qligini, muvaffaqiyatsiz maktablarga hadeb ko'proq mablag' ajratish haqida o'ylamasdan, ta'lim natijalariga ko'ra moliyalashtirishni yo'lga qo'yish kerakligini ilgari suradi[4].

Rossiyalik tadqiqotchi olimlardan Ye. Savitskaya va D. Chertkovsevalar ushbu fikrlarni qo'llab-quvvatlaydi. Tadqiqotchilar o'quvchilarning yutuq va muvaffaqiyatida ta'lim xarajatlarining YaIMga nisbati, ta'lim xarajatlarining umumiy davlat xarajatlari nisbatiga va o'qituvchilarning oylik maoshining mamlakat o'rtacha ish haqi darajasidan yuqori yoki pastligiga bog'liq emasligini ta'kidlaydi[5]. Fikrlarini asoslash uchun tadqiqotchilar ta'limni moliyalashtirish va ta'lim xarajatlarini tahlil qilib, Rossiya va boshqa davlatlarning PISA va TIMSS xalqaro test natijalarini taqqoslaydi va Rossiyada yildan-yilga (oz bo'lsa ham) moliyalashtirish oshganiga qaramay test natijalarida deyarli o'zgarish bo'lmaganligini ma'lum qiladi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotchilar ta'lim sifatining tushib ketishi davlat tomonidan ko'proq mablag' ajratilmasligi yoki o'qituvchilar maoshining kamligi bilan emas, balki mukammal ishlab chiqilgan ta'lim standartlari, tajribali (malakali) o'qituvchilarning o'quv yuklamalari va o'qitish usuli hamda o'quvchilarning mustaqil ishlashi va o'quvchi oilasining xarakteristikasiga doirligini bildiradi.

Bu borada maktab o'quvchilarining fikrlari ham katta o'rin tutmoqda. Xususan, Kaliforniyadagi bir maktabning yuqori sinf o'quvchisi Elliot ismli foydalanuvchi Quora saytiga o'z maktabidan shikoyat qilib post qoldiradi. Uning so'zlariga ko'ra, maktabining SAT ingliz tili bo'yicha o'rtacha balli 589, SAT matematika bo'yicha o'rtacha bali 583 tashkil etib, umumiy hisobda maktabning o'rtacha SAT bali 1172ni tashkil etadi (Ma'lumot uchun: SAT ingliz tili va matematika bo'yicha maksimal ballari 800dan jami 1600ni tashkil qiladi). Elliot o'qituvchilarning maoshi oshgani bilan bu ko'rsatkich o'zgarmaganini, u yashaydigan hudud boy hudud bo'lishini ham ta'kidlaydi. Uning aytishicha, maktabidan 10 daqiqalik uzoqda joylashgan maktabning SAT ko'rsatkichi o'rtacha 1500 ekanligini bildirib, maktabning test natijalari va ta'lim sifatining o'qituvchilarning maoshi yoki hududning boy va kambag'alligiga bog'liq emasligini aksincha o'qitish usuli va jonkuyar malakali o'qituvchilarning tajribasiga bog'liqligini ilgari suradi[6].

Ikkinchi guruhga kiruvchi olimlarning fikrlari. Ushbu guruh olimlari ta'limni moliyalashtirish darajasi (miqdori), o'qituvchilarning maoshi ta'lim sifatiga katta ta'sir qilishini ilgari suradi. Jumladan, rossiyalik tadqiqotchi Ye. Suslova 2009-yilgi maqolasida

[4] Hanushek Eric A., Lindseth Alfred A. Performance-Based Funding. Defining Ideas, 2009, No1, pp. 101-105.

[5] Савицкая Е., Чертыковцева Д., Финансирование и качество школьного образования: эконометрический подход. Вопросы экономики. 2013. № 4. – С. 112-129.

[6] Quora сайтидаги бахслар учун батафсилроқ қаранг: How does school funding increase the quality of education of the students of the school? https://www.quora.com/How-does-school-funding-increase-the-quality-of-education-of-the-students-of-the-school (Манбага 06.06.2022да эришилган)

keltirib shularni yozadi: “O‘qituvchilar past ish haqi (3,5-4 ming rubl) oladilar, bu esa yuqori malakali yosh mutaxassislarning ta’lim sektoriga kirib kelishini cheklaydi. Boshqa kamchiliklar qatorida, o‘qituvchilarning mehnat samaradorligini oshirishga bo‘lgan motivatsiyasi va ularning ijtimoiy mavqei past darajada qolmoqda”[7].

Amerikalik tadqiqotchilar Karmel Martin, Ulrix Bozer va b. moliyalashtirish yuqori sifatli ta’limni ta’minlashning markaziy komponenti bo‘lib, ko‘pincha yaxshi natijalarga olib kelishini ta’kidlaydi. Ular 2016-yilgi bir tadqiqotdan iqtibos keltirib, 1990-yil va 2011-yillar oralig‘ida maktablarni moliyalashtirish siyosatini isloh qilgan holda kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan maktab tumanlariga ko‘proq mablag‘ ajratish orqali boy va kambag‘al hududlardagi o‘quvchilarning ta’lim ko‘rsatkichlarida biroz bo‘lsa ham (beshdan bir qismga kamaygan) tenglik ta’minlanganini ko‘rsatib o‘tadi[8].

Boshqa bir amerikalik olimlar Jekson va Matskyavichus yaqinda bu bo‘yicha katta va keng qamrovli tadqiqot o‘tkazdi. Tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, maktab xarajatlarining ko‘payishi o‘quvchilar natijalarini test natijalari, bitiruv, oliy ta’limga kirish, kelajakda daromadlarini oshirish va uning avlodlararo harakatchanlik kabi ko‘plab natijalar bo‘yicha ko‘rsatkichlarini yaxshilashi aniqlandi[9].

Oxirgi paytlar ko‘plab tadqiqotlar ta’lim xarajatlari bilan o‘quvchilarning ta’lim ko‘rsatkichlari orasida bog‘liqlikni tasdiqlamoqda. Ta’lim islohotlari natijasida ta’lim xarajatlarning o‘sishi bir qator ijobiy natijalarga olib kelgan. Jumladan, (1) test natijalari yaxshilangan, (2) bitiruvchilarning oliy o‘quv yurtlariga kirishi va uni muvaffaqiyatli yakunlash ehtimoli ortgan, (3) iqtisodiy jihatdan talaba o‘quvchilar kattalardek ko‘proq maosh ola boshlagan, (4) iqtisodiy farovonlik avloddan-avlodga o‘tgan, (5) o‘qituvchilarning maoshi ortishi bilan ba’zi hududlarda uy-joy narxi ko‘tarilgan va bu (6) past daromadli hududlarda xarajatlarning ko‘payishi bilan iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir qilgan.

Ikkala guruhni ham birlashtiruvchi nuqta. Yuqorida ko‘rib chiqqanimiz ikkala guruh yondashuvlari bir-biriga zid bo‘lsa-da, bir nuqtada birlashmoqda: ta’lim uchun mablag‘lar miqdori muhim ammo u samarali ishlatilganda. Darhaqiqat, ushbu fikrga to‘liq qo‘shilamiz. Ta’lim xarajatlari ta’lim maqsadlarida amalga oshirilsa, ta’lim natijalari yaxshi bo‘lishi aniq. Ta’lim xarajatlarini samarali ishlatish mexanizmini yaratish lozim. Ko‘plab olimlar bu borada bosh qotirmoqda. Qanday qilib, ta’lim xarajatlarini maksimal samaradorligini ta’minlash mumkin? Bu borada davlatlar tajribasini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, Daniya hukumati 2014-yilgi Folkeskole islohotida o‘quvchilarning muvaffaqiyati, tengligi, farovonligi va ularning bir qator o‘lchanadigan ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq uchta asosiy maqsadni belgilab oladi. Bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha erishilgan yutuqlar har bir maktab bo‘yicha kuzatilib, munitsipalitetlarga hisobot beriladi. Folkeskole islohotining aniq maqsadlarga asoslangan yana bir diqqatga sazovor jihati o‘qituvchilarni rivojlantirish va ixtisoslashtirish siyosatidir. Bunga muvofiq, 2020-yilga borib o‘qituvchilarning 95 foizini ular o‘qitadigan barcha fanlar bo‘yicha attestatsiyadan

[7] Коверова Мария И., Как обеспечить равновысокое качество образования: обзор эффективных механизмов, DOI 10.22394/2078−838X−2021−1−34−44, https://edpolicy.ru/kak-obespechit-ravnovysokoe-kachestvo-obrazovania-obzor-jeffektivnyh-mehanizmov. Иқтибос манбаси: Суслова, Е. (2009, апрель 14). Счастливый круг. Хороший учитель достоин хорошей зарплаты. Учительская газета.

[8] Martin C., Boser U., Benner M., Baffour P. A Quality Approach to School Funding: Lessons Learned from School Finance Litigation. Center for American Progress, NOV 13, 2018.

[9] Jackson C.K., and Mackevicius C. “The Distribution of School Spending Impacts.” No. w28517, National Bureau of Economic Research, 2021.

o‘tkazish orqali sertifikatlash maqsad qilib qo‘yiladi. Bu jarayonni osonlashtirish uchun ta’lim vazirligi qo‘shimcha maqsadli moliyalashtirishni yo‘lga qo‘ydi. Ushbu mablag‘larni qanday sarflash mumkinligi haqida dalillarga asoslangan tavsiyalar berilishi lozim. Ushbu mablag‘larga ariza berish uchun munitsipalitetlar ulardan foydalanish rejasini ishlab chiqishi, ishning borishi haqida hisobot berishi va 2020-yilgacha sarflanmagan mablag‘larni vazirlikka qaytarishi kerak[10].

Boshqa bir davlat, masalan, Estoniyani oladigan bo‘lsak, ta’lim strategiyasini ishlab chiqarishda barcha darajadagi organlar faol ishtirok etadi. Qonunchilikka ko‘ra, milliy hukumat, mahalliy hukumatlar va maktablar strategik rivojlanish rejasiga ega bo‘lishlari shart. Milliy va mahalliy hukumatlar o‘z yillik byudjetlarini to‘rt yillik o‘rta muddatli xarajatlar rejalari va uzoq muddatli strategik rejalariga ega bo‘lishlari va faoliyatlarini ushbu rejalarga muvofiqlashtirgan holda olib borishlari kerak bo‘ladi. Maktab direktorlari maktab byudjetlarini ishlab chiqarish uchun mas’uldir. Ko‘pchilik mahalliy hokimiyat organlari aniq belgilangan byudjet kalendarlari asosida ishlaydi va har bahorda maktab direktorlariga keyingi moliya yili uchun byudjet chegaralari haqida hisobot beradi. Keyinchalik bu raqamlar aniq bo‘lganda kuzda o‘rnatiladi. Davlat maktablarida maktab byudjetlari mahalliy hokimiyat organlari tomonidan yakuniy tasdiqlashdan oldin ota-onalar, o‘qituvchilar va o‘quvchilardan iborat demokratik tarzda saylangan vasiylik kengashlari tomonidan ko‘rib chiqiladi. Ushbu vasiylik kengashlari tarkibiga tashqi ekspertlar ham, kasb-hunar ta’limi maktablari misolida esa sanoat vakillari ham kiradi. Eng oxirida ta’lim vazirligi davlat maktablarining byudjetini tasdiqlaydi[11].

Ba’zi tadqiqotlarda moliyalashtirish ta’limdagi ustuvorliklardan kelib chiqib amalga oshirish kerakligini ta’kidlaydi. PISA tadqiqoti asoschisi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) bosh kotibining ta’lim siyosati bo‘yicha maxsus maslahatchisi Andreas Shlyayxerning 2022-yil 21-aprel – 7-may kunlari O‘zbekistonga tashrifida, undan O‘zbekistonning mavjud iqtisodiy imkoniyatidan kelib chiqib ta’limning qaysi yo‘nalishiga ko‘proq mablag‘ ajratish samaraliroq bo‘lishi so‘ralganda, Shlyayxer sifatga, deb ta’kidlaydi va sifat o‘qituvchilarning bilim va malakasiga bog‘liqligini va ta’lim sifati hech qachon o‘qituvchi sifatidan oshib ketolmasligini bildirib o‘tadi[12]. Boshqacha aytganda, o‘qituvchi malakasi va o‘qitish sifati ta’lim sifatini oshirar ekan, o‘qituvchilarga ko‘proq investitsiya kiritish, ularni uzluksiz qayta tayyorlash, malakasini oshirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash lozim.

Mablag‘larni va (aqliy va jismoniy) resurslarni samarali sarflash va ishlatish mexanizmlarini chuqur o‘rganishga ehtiyoj bor. Bunda mahalliy sharoitlarni va imkoniyatlarni, boshqaruv shakli va jamiyat mentalitetini hisobga olish, har bir so‘m uchun hisobdorlik va javobgarlik tamoyillarini yo‘lga qo‘yish lozim. Bularni barchasi ta’lim strategiyasi, qonunlar va qarorlar shaklida o‘z ifodasini topishi kerak.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ta’limni moliyalashtirish va sifat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi aloqadorlik masalasi ilm jamiyatida hali hamon tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda. Chunki, mablag‘ muhim bo‘lsa-da aslo yechim emas. Shu bois, ta’limni moliyalashtirishda samaradorlik masalalari katta ahamiyat kasb etmoqda. Albatta, ta’limda mablag‘lar

[10] Nusche D., Radinger T., Falch T. and Shaw B., OECD Reviews of School Resources: Denmark 2016, OECD Publishing, Paris, 2016. http:// dx.doi.org/10.1787/9789264262430-en.

[11] Santiago, P. et al. (2016), OECD Reviews of School Resources: Estonia 2016, http://dx.doi.org/10.1787/9789264251731-en.

[12] “Ta’lim sifati hyech qachon o‘qituvchi sifatidan oshib ketolmaydi” — Андреас Шляйхер, 7 июн 2022. https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/07/schleicher/

ta’lim sifati va natijadorligiga qaramasdan ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jamiyat uchun katta va ijobiy o‘ringa ega ekanligini ta’kidlayotgan tadqiqotchilar ham bor. Ammo, bu davlatning yetarlicha mablag‘ va resurslarga ega bo‘lishi bilan mumkindir. Agar davlatda byudjet taqchilligi bo‘lsa (odatda ko‘plab rivojlanayotgan davlatlarda kuzatiladigan holat), ta’lim uchun ortiqcha mablag‘ topishi amrimahol. Bu holatda puxta ishlangan ta’lim ustuvorliklariga e’tibor qaratish va mablag‘lardan samarali foydalanish juda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, ta’limda muvaffaqiyatga erishish aniq maqsad va ustuvorliklarga ega bo‘lish va moliyalashtirish strategiyasini takomillashtirish va uning ishlash mexanizmini rivojlantirishga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bu uchun davlat darajasida qabul qilinadigan qisqa va uzoq muddatli reja va strategiyalarda mahalliy organlar va maktablarning faol ishtirokini ta’minlash va shunga muvofiq ishlash mexanizmining shaffofligini, xisobdorligini oshirish kerakligi katta o‘rin tutmoqda. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ta’lim borasidagi barcha reja va strategiyalar, xarajatlar va moliyalashtirish mexanizmlari ta’lim sifati, samarasi va natijadorligiga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hanushek Eric A., Lindseth Alfred A. Performance-Based Funding. Defining Ideas, 2009, No1, pp. 101-105.

2. How does school funding increase the quality of education of the students of the school? https://www.quora.com/How-does-school-funding-increase-the-quality-of-education-of-the-students-of-the-school (Manbaga 06.06.2022da erishilgan)

3. Jackson C.K., and Mackevicius C. “The Distribution of School Spending Impacts.” No. w28517, National Bureau of Economic Research, 2021.

4. Lafortune J., Understanding the Effects of School Funding. Public Policy Institute of California, REPORT May 2022.

5. Martin C., Boser U., Benner M., Baffour P. A Quality Approach to School Funding: Lessons Learned from School Finance Litigation. Center for American Progress, NOV 13, 2018.

6. Nusche D., Radinger T., Falch T. and Shaw B., OECD Reviews of School Resources: Denmark 2016, OECD Publishing, Paris, 2016. http:// dx.doi.org/10.1787/9789264262430-en.

7. OECD: Education at a Glance 2021: OECD Indicators, OECD Publishing, Paris, 2021, p. 232.

8. OECD: Education at a Glance 2021: OECD Indicators, OECD Publishing, Paris, 2021, https://doi.org/10.1787/b35a14e5-en.

9. Santiago P. et al. (2016), OECD Reviews of School Resources: Estonia 2016, http://dx.doi.org/10.1787/ 9789264251731-en.

10. UNESCO, Global Education Monitoring Report-2020, ‘Inclusion and education: All Means All’. Paris, 2020.

11. Коверова Мария И., Как обеспечить равновысокое качество образования: обзор эффективных механизмов, DOI 10.22394/2078−838X−2021−1−34−44, https://edpolicy.ru/kak-obespechit-ravnovysokoe-kachestvo-obrazovania-obzor-jeffektivnyh-mehanizmov.

Erkin MURODOV,
A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti, “Uzluksiz kasbiy ta’lim” kafedrasi dotsenti v.b., PhD

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASHDA KASB-HUNARGA O‘RGATISHNING ZARURIYATI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilarini mustaqil hayotga tayyorlashda asosiy ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish orqali ularni kasb-hunarga o‘rgatishning zaruriyati bayon etilgan. Shu bilan birga, bugungi taraqqiyot davrida har bir maktab bitiruvchisini hayotda muvaffaqiyatga erishishi uchun maktab davridanoq manfaatli kasblarni egallashi, buning uchun umumiy ta’lim tizimi va xususan, har bir ta’lim muassasasi natijalarining o‘ziga xos ifodasi hisoblangan maktab bitiruvchisining modeli hamda o‘qitish-o‘rganish modellarini shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Kasb, ko‘nikma, kompetensiya, mexanizmlar, maktab bitiruvchisining modeli, mexanizmlarini takomillashtirish, raqobatbardosh.

В статье изложена необходимость профессиональной подготовки выпускников общеобразовательных школ путем формирования базовых навыков и компетенций в подготовке их к самостоятельной жизни. Вместе с тем, в настоящее время даны методические рекомендации по формированию модели преподавания и обучения выпускника школы, которая является своеобразным выражением результатов работы общеобразовательной системы и, в частности, каждого образовательного учреждения, с тем, чтобы каждый выпускник школы с самого школьного возраста приобретал интересные профессии для достижения успеха в жизни.

Ключевые слова. Профессия, умения, компетенции, механизмы, модель выпускника школы, совершенствование механизмов, конкурентоспособность.

The article describes the need to train graduates of general secondary schools in the profession of the organization of the formation of basic skills and competencies in preparing them for independent life. At the same time, in the period of today’s development, methodological recommendations have been given for the formation of the model of the graduate of the school, as well as teaching-learning models, for which the general education system and, in particular, a specific expression of the results of each educational institution are considered, in order to make each school graduate succeed in life.

Key words. Profession, skills, competence, mechanisms, model of a school graduate, improvement of mechanisms, competitiveness.

Bugungi taraqqiyot davrida, ayniqsa, jahonda globallashuv jarayonlari va juda tez suratlarda o‘zgarib borayotgan innovatsion texnologiyalar, insoniyat hayotida transformatsiya jarayonlarning tezlashuvi, mehnat bozoriga bo‘lgan talablarning ortishi, yangi kasblarga ehtiyojni yuzaga keltirmoqda. Bu esa, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini kasbga tayyorlash tizimi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Juda tez yangilanayotgan tex-

nologiya davrida ta’lim tizimida o‘zgarishlarni, yangicha yondashuvlarni vujudga keltirmoqda, qolaversa umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini, ayniqsa, ularni keyingi hayotida kasb-hunar o‘rganishi orqali raqobatbardosh kadr bo‘lib tayyorlanishida, yangi texnologik o‘zgarishlarga moslashishida, ular uchun muhim bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va rivojlantirish tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon amaliyotida o‘quvchilarning kelajakda biznes va hayotda muvaffaqiyatli va namunali fuqaro bo‘lishlari uchun bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega bo‘lishlari kerakligi ta’kidlanadi va bu malakalarni egallashlari borasida manzilli ishlar amalga oshiriladi. XXI asr bilim va kompetensiyalari: ijodkorlik, muammolarni hal qilish, innovatsiya, tanqidiy fikrlash va axborot texnologiyalari savodxonligi deb ta’riflangan va bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarning muvaffaqiyatli ta’lim islohotlariga ishora qilinadi.

O‘zbekistonda ham uzoq muddatga mo‘ljallangan strategik taraqqiyot dasturlarida eng ustuvor yo‘nalishlardan biri bu – o‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish orqali hayotda munosib o‘rin topish va farovon hayotga erishishdan iborat. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev “Ta’lim sohasidagi navbatdagi muhim yo‘nalish, bu – yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat ekanligiga e’tibor qaratib, maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo‘lmasdan kirib kelayotgani hammani o‘ylantirishi kerakligi, shu bois, maktab bitiruvchilari kamida 2 ta xorijiy til va kasb-hunarga ega bo‘lishi zarur” deb ta’kidlagan edilar[1].

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevral PF-27-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-241-son “Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-iyuldagi 390-son “Xalq ta’limi vazirligi tizimida o‘quvchi-yoshlarni kelajak kasblariga tayyorlash markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-dekabrdagi 792-son “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi. Umuman olganda mamlaktaimizda o‘quvchilarni kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni kasb-hunarga o‘rgatishga oid bir necha tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, R. Djurayev, U. Inoyatov, U. Begimqulov, S. Turg‘unov, J. Yo‘ldoshev, Sh. Qurbonov, O. Musurmanova, E. Seitxalilov, M. Mirsoliyeva, X. Rashidov va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan[1].

Shuningdek, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida umumiy o‘rta ta’lim

[1] Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. – T.: “Voris-Nashriyot”., 2012. – 167 b.; Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1995. – 159 b. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi (20.12.2022) // https://president.uz/uz/lists/view/4057.

muassasalari o‘quvchilarida zamonaviy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish muammolari yuzasidan T. Bazarov, A. Derkach, I. Zimnyaya, E. Zeer, V. Zvereva, Yu. Vasilev, V. Lazarev, V. Slastenin, G. Abdraxmanov, V. Toporovskiy, A. Moiseyev, M. Potashnik, P. Tretyakov, T.I. Shamovalar tomonidan o‘rganilgan.

Mavzuga oid bo‘lgan muammoning ilmiy-nazariy masalalari bo‘yicha xorijlik olimlar B. Cole, E. El-Khawas, J. Goldberg, L. Harvey, D. Westerheijden kabi olimlarning tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan. Shuningdek, o‘quvchilarning ko‘nikma va kompetensiyalari tadqiqotchilar M. Byalik va Ch. Fadel “XXI asrda o‘quvchilarni qanday bilimlarni egallashlari kerak?” nomli maqolasida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, xarakter va metabilish kesishmasida bahs yuritadi.

Umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilari egallashi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni hayotda qo‘llash mexanizmlarini takomillashtirish tadqiqotimiz mavzusini belgilab berdi.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilarini mustaqil hayotga tayyorlashda ularning egallashi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirish orqali kasb-hunarga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun quyidagi vazifalarni ilmiy jihatdan tahlil etish zaruriyati yuzaga keladi:

– umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalar borasidagi nazariy yondashuvlarni o‘rganish;

– kasbga yo‘naltirish jarayonlarida umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilari egallashi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni hayotda qo‘llashga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish;

– bitiruvchilar egallashi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni hayotda qo‘llash mexanizmlarini takomillashtirish jarayonini boshqarishni tashkil etish;

– bitiruvchilar egallashi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni hayotda qo‘llash mexanizmlari bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o‘tkazish va natijalarni tahlil qilish.

Shuningdek, tahlil etilayotgan mavzuning asosiy predmeti umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilari egallashi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni hayotda qo‘llash mexanizmlarini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalaridan iborat.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishning muammolarini aniqlashda tadqiqot jarayonida mavzuga aloqador ilmiy-adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot ishlarni qiyosiy o‘rganish, tizimli tahlil, anketa so‘rovnomalari, suhbat, kuzatish, matematik-statistik ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish kabi usullardan foydalanish mumkin.

Ayni vaqtda umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishda bir qator amaliyot natijalariga erishildi:

– kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maktab o‘quvchilari uchun “Kasblar katalogi” nomli qo‘llanma nashr etildi;

– o‘quvchilar kelajak kasblarini tanlash, kareralarini belgilash va biznes loyihalarini amalga oshirishda ko‘maklashuvchi http://kasb.maktab.uz hamda o‘quvchilarni kasbiy layoqatini aniqlash, diagnostikadan o‘tkazish va ularni tahlil qilish uchun http://profnavigator.uz elektron platformalari ishlab chiqildi;

– umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 10-11-sinf o‘quvchilarini qiziqishi va kasbiy layoqatiga ko‘ra kasbga yo‘naltirish jarayonlarini boshqarishni tashkil etish bo‘yicha 3 ta yo‘nalishdagi mexanizmlari yaratildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining mustaqil hayotga tayyorlashda kasbiy ko‘nikmalar mazmun-mohiyati, ularni hayotda qo‘llay olish mexanizmlarini takomillashtirish mazmuni, kasbga yo‘naltirish jarayonlarini boshqarishni tashkil etish bo‘yicha 3 ta yo‘nalishdagi mexanizmlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda kasblar katalogi, http://kasb.maktab.uz, http://profnavigator.uz elektron platformalardan foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilari egallashi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni hayotda qo‘llash mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflari asosida:

– kasbga yo‘naltirish jarayonlarini boshqarish jarayonlari o‘qituvchilarning o‘qitish samaradorligi (X1), o‘quvchilarning ta’limdan qoniqishi (X2), o‘quvchilarning muvaffaqiyat motivatsiyasi (Y), o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi (Z) kabi o‘zgaruvchan omillarning empirik produktivligini bevosita hisobga olish orqali aniqlashtirilgan xulosa va takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilariga ikkinchi xorijiy til hamda zamonaviy kasblarga o‘rgatish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori loyihasini ishlab chiqilishida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta’lim vazirligining 2023-yil 1-maydagi 02-02/2-574-son ma’lumotnomasi). Natijada, har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o‘rta ta’lim muassasasining o‘quvchilari 10-sinfdan boshlab Milliy malaka ramkasining 2-darajasiga mos bo‘lgan kasb-hunarlarga o‘qitilishi amaliyoti yo‘lga qo‘yildi;

– o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish jarayonlarini amalga oshirish mazmuni metakognitivlikka asoslangan o‘quv-bilishga doir (o‘qish, yozish, matematik, tabiiy-ilmiy savodxonlik), ijtimoiy-hissiy (o‘z-o‘zini boshqarish, kommunikativlik, intiluvchanlik) ko‘nikmalarning kasbiy (jamoada ishlash, buyurtmachiga yo‘naltirish, iqtisodiy samaradorlikni belgilash) kompetensiyalar bilan integrativlik darajasini qat’iy belgilash orqali takomillashtirilgan xulosa va takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori loyihasini ishlab chiqilishida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta’lim vazirligining 2023-yil 1-maydagi 02-02/2-574-son ma’lumotnomasi). Natijada, kasb-hunarga o‘rgatish kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan maktab o‘quvchilariga o‘z biznesini tashkil etish uchun mikrokreditlar ajratish amaliyoti joriy qilindi;

– o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning tashkiliy-funksional modelining jarayonli-baholovchi komponentlari an’anaviy va individual o‘qitish tizimini uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan vitagen (hayotiy tajriba), pragmatik (amaliy yo‘naltirilgan), ijtimoiy-kasbiy trening kabi texnologiyalarni psixosotsial, madaniy va lingvistik baholash bilan qayta aloqasi identivligini ta’minlash asosida takomillashtirilgan xulosa va takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilariga ikkinchi xorijiy til hamda zamonaviy kasblarga o‘rgatish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori loyihasini ishlab chiqilishida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta’lim vazirligining 2023-yil 1-maydagi 02-02/2-574-son ma’lumotnomasi). Natijada, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yuqori sinf o‘quvchilarining ishchi kasblarga, “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi orqali tadbirkorlikka, axborot texnologiyalari va “kreativ industriya” yo‘nalishlari (veb-dizayner, dasturchi va boshqalar) bo‘yicha kasblarga o‘rgatilishi joriy qilindi;

– o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish jarayonlarini boshqarish mexanizmi maktab, professional ta’lim, ishlab chiqarish korxonalarining integratsiyasini ta’minlashga xiz-

mat qiladigan elektron tizimi (http://kasb.maktab.uz, http://profnavigator.uz) ergonomiyasining interaktivlik darajasini vertikal va gorizontal yo‘nalishlarda kengaytirish asosida takomillashtirilgan xulosa va takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori loyihasini ishlab chiqilishida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta’lim vazirligining 2023-yil 1-maydagi 02-02/2-574-son ma’lumotnomasi). Natijada, umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘quvchilarini ish va hayotga tayyorlash uchun kasbiy bilim va texnik malakalarini oshirish mexanizmlari takomillashtirildi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni tizimli va rejali nazorat qilish katta ahamiyatga ega. Kasb-hunar ta’limi darslarida olinadigan bilim, ko‘nikma va malakalarning sifati ko‘p jihatdan ularning “ixchamligi”, ya’ni ularni o‘quvchilar yangi mehnatning sharoitlarida qanchalik qo‘llay olishlariga bog‘liq. Masalan, o‘quvchilar tikuvchilik darslarida olgan bilim va malakalaridan foydalanib tikuvchilik mashinalari (overlog, to‘g‘ri va har xil chok tikadigan, zigzag, tugma, qaviydigan, petlya tikadigan va h.k.)da mustaqil ifodalash topshirig‘ini qo‘yish mumkin. Politexnik ta’lim vazifalaridan kelib chiqib, o‘quvchilar bunday topshiriqlarni bajarishga tayyorlangan bo‘lishi kerak. O‘quv ustaxonalaridagi mashg‘ulotlarda mustaqil kuzatish bo‘yicha o‘quvchilar amaliy ish bajarayotganda ular vaqt me’yorini obyektiv belgilash maqsadida o‘z mehnat faoliyatini o‘zi kuzatishiga oid beriladigan topshiriqni ko‘rsatish mumkin.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini mustaqil hayotga tayyorlashda ularni kasb-hunarga o‘rgatish, maktab davridanoq kasb egallashi ortidan manfaat topishini tushunib yetsa, keyinchalik farovon hayotni barpo etishda, qolaversa mamlakatni taraqqiy ettirishda zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi (20.12.2022) // https://president.uz/uz/lists/view/4057.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta’lim vazirligining 2023-yil 1-maydagi 02-02/2-574-son ma’lumotnomasi.

3. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. – T.: “Voris-Nashriyot”., 2012. – 167 b.; Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1995. – 159 b.

Surayyo TURSUNOVA,
Farzona MIRZAYEVA,
